**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**

**Qo‘lyozma huquqida**

**UDK 378.018.001.895**

**EGAMNAZAROV MUROD YUSUPOVICH**

# ShAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH TIZIMI

**13.00.01 – Pedagogika nazariyasi. Pedagogika ta’limotlar tarixi**

**Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**
**ilmiy darajasini olish uchun yozilgan**
**DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar: Ibraimov Holboy Ibragimovich**
**pedagogika fanlari doktori, professor**

**Jizzax – 2023**

## MUNDARIJA:

**KIRISh** ........................................................................................ 3-10

**I BOB. ShAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISh TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI**

1.1-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida 11-24

1.2-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari 25-34

1.3-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni. 35-55

Birinchi bob buyicha xulosalar

**II BOB. TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRIShDA SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETIShNING PEDOGOGIK SHART ShAROITLARI**

2.1-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etishning respublika OTM laridagi mavjud holati 56-66

2.2-§. O‘quv mashg‘ulotlarida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etishning tamoyillari, mexanizmlari. 67-83

2.3-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini tadbiq etish vositasida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish modeli

Ikkinchi bob buyicha xulosalar. 84-99

**III BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISh TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI**

3.1-§ Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi 100-109

3.2-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarining rivojlantirishga yo‘naltirilgan tadqiqot ishining ilmiy tahlili 110-119

**XULOSA** 120-123

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI** 124-140

# KIRISH

Jaxonning rivojlangan mamlakatlarida oʻquv jarayonida shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim texnalogiyalarini qoʻllashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, AQShning Princeton universiteti, Fransiyaning Strasbourg universiteti, Germaniyaning Rheinische Friedrich-Wilhelms-Universität Bonn, Angliyaning Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters universiteti, Janubiy Koreyaning Seoul National, Puchong, Yonsei kabi universitetlari, Yaponiyaning Miyagi pedagogika universiteti, Rosiyaning Ta'lim akademiyasi hamda Oʻzbekiston Pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot institutlarida shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim texnalogiyalari keng koʻlamda tadqiq etilmoqda. Shuningdek, shaxsga yoʻnaltirilgan ta'lim texnalogiyalari yordamida boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy koʻnikmalarini rivojlantirish masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Dunyoda shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish texnalogiyalarini oʻquv jarayoniga tadbiq etish, pedagog mutaxassislar tayyorlash sifatini yangi bosqichga koʻtarish imkoniyatlarini koʻtarish, oʻquv dasturlarni ushbu nuqtai nazardan yondashgan holda takomillashtirishga kuchli ehtiyoj sezilmoqda. Shaxsga qaratilgan dars imkoniyatlarini barpo etish orqali ziddiyatli ijtimoiy pedagogik holatlar yechimini yarata oladigan mutaxassislar malakasini oshirishga oid tadqiqot ishlari oʻrganilmoqda. Rivojlangan mamlakatlarning nufuzli ta'lim muassasalari Bayjing universiteti (Xitoy), Singapur Milliy universiteti hamda "Ta'lim sifatini baholash va pedagog kadrlar malakasini oshirish" (RF, Janubiy Federal universitet) va ilmiy tadqiqot akademiyalarida dars samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar tashkillashtirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar negizida partisipativ (hamkorlik), shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish texnologiyalarining didaktik ahamiyati, uning ta'lim sifatiga ta'siri, tayyorlanayotgan boʻlajak kadrlar xatti-harakatidagi funksional vazifalari yetakchilik qilib, uning dialektik oʻziga xosligida ilmiy-nazariy, pedagogik yondashuvlarni oʻrganish masalalari muhim oʻrin egallaydi.

Bugungi kunda jahonda ta’limning: Yevropa, Janubiy Osiyo, Amerika qo‘shma shtatlarining ta’lim modellari mavjudligi hammamizga ayon. Dunyodagi nufuzli universitetlar mana shu ta’lim modellari asosida faoliyatlarini olib bormoqdalar. Bizning O‘zbekiston Respublikamizda 1997 yildan e’tiboran milliy mentalitetimizga mos bo‘lgan Milliy ta’lim modeli yaratildi.

So‘nggi yillar ichida ta’lim tizimidagi islohotlar mazmuni rivojlangan mamlakatlar darajasida, O‘zbekistonda ham shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish ijtimoiy pedagogik hodisa sifatida o‘ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko‘rsatmoqda va u davlat, jamiyat va fuqarolarning ehtiyojlarini qondirishga yo‘naltirilgan uzluksiz pedagogik jarayonning natijasida o‘z ifodasini topmoqda. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda o‘qitish sifati ijtimoiy buyurtma va davlat ta’lim standartlariga mos tarzda ta’limiy mahsulotlar hamda xizmatlarni talabalarga ta’sir etganlik darajasining natijasini belgilaydi.

O‘qitish jarayonida o‘quv fanlarining maqsadi va vazifalariga; mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlariga; fanlararo bog‘lanish masalalariga; o‘qitishning samarali vositalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarining qo‘llanilishi, mashg‘ulotlarning rang-barangligiga, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘zbekistonda ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar uning sifatini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, mazkur masala davlat siyosatida ustuvor o‘rin egallamoqda. Jumladan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2020 yil 29 oktabrdagi “Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6097-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim

tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son farmoni, 2020 yil 27 fevraldagi “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 14 avgustdagi “Yoshlarni ma’naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta’lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3907-son qarorlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar taraqqiyotining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Mazkur dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi:** Ta’lim jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalarni qo‘llash asosida tashkil etish muammolari X.Ibraimov, R.Safarova, B.Ma’murov, B.R.Adizov, E.Seytxalilov, A.T.Nurmonovlar tomonidan tadqiq etilgan [70,124,125,92,27,28,128,129,104]. Pedagogik hamkorlikka oid yondashuvlar pedagogik sinergetika nazariyasi tarkibida ilgari surilgan bo‘lib, bu sohada X.A.To‘raqulov. R.G.Safarova, Sh.Abdullaeva, X.Ibraimov, A.T.Nurmonov, N.Dilova, J.Yo‘ldoshev, B.Sa’dullaev ishlarida o‘z ifodasini topgan [145,146,126,24,70,105,56,72,73,130].

MDH davlatlari olimlari A.A.Bodalev, A.Derkach, N.V.Kuzmina, A.Rean, Ye.Rыbalko, I. Steklova, G. Nikolis, L.Gordin, A.A.Vorojbitova, O.A.Abdullina, V.G.Budanov, V.G.Vinenko, V.A.Ignatova, Ye. N.Knyazeva, S.N.M.Talanchuk, Yu.V.Sharonin, V.V.Matkin, V.I.Andreevlar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim, ta’lim texnalogiyalariga oid izlanishlarni amalga oshirganlar [44,59,76,121,122,123,120,138,108,63,52,22,23,49,50,53,71,75,141,142,159,93, 29,30]

Xorijlik olimlar D.Djonson, B.Myunsterberg, D.Syuper, A.G.Maslou, A.Bandura, Dj.Rotter tomonidan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim muammolari tadqiq etilgan [58,94,137,91,40,41,119].

**Dissertatsiya tadqiqotining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi.** Tadqiqot ishi Jizzax davlat pedagogika institutining “F1-XT-1-31247-raqamli «Talabalarda o‘zaro do‘stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko‘rsatish ko‘nikmalarini shakillantirish strategiyasi»” mavzusidagi fundamental loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi:** shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarda kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-emperik asoslarini ishlab chiqish hamda ushbu masadga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar yaratish.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tadqiqot ishiga oid ilmiy qarashlani o‘rganish asosida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning nazariy-imperik asoslarini ishlab chiqish;

shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmunini aniqlash;

shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish mexanizmlarini aniqlash;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni modelini takomillashtirish va uning samaradorlik darajasini ko‘rsatish.

**Tadqiqotning ob’ekti:** shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni.

**Tadqiqot predmeti:** shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni, shakllari, vositalari, mexanizmlari, shart-sharoilari.

**Tadqiqot metodlari:** anketa, savol-javob, suhbat, pedagogik tahlil, analitik obzor, o‘rganish, kuzatish, umumlashtirish, ekspert bahosi, pedagogik eksperiment, matematik-statistika.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:**

talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida rivojlantirish tizimi nazariy-empirik asoslarga tayangan holda aniqlanib, uning kirishuvchanlik, ichki bilish jarayoni, refleksiv darajasi interfaol dialog asosida aniqlashtirilgan;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi kasbiy yo‘nalganlikka ustuvorlik berish, shaxsiy qiziqishlar, qadriyatli munosabatlar, aksiologik yondashuvlarga tayangan holda takomillashtirilgan;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish shart-sharoitlari va mexanizmlari “Partisipativ dialog”, “Ringdagi vaziyat” usullarini qo‘llash orqali takomillashtirilgan;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli o‘zaro hamkorlik, bir-birini tushunish, qadriyatli munosabatlar doirasini kengaytirish asosida ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari:**

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish va uni takomillashtirishga yo‘naltirilgan didaktik vaziyatli topshiriqlar ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonni tashkil etish metodikasi taqdim etilgan;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar va ulardan foydalanish mexzanizmlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi:** shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari orqali o‘quvchilarning aloqa o‘rnata olish qobiliyatini takomillashtirish muammosi yurtimiz va chet el davlatlari ilmiy izlanuvchilari tamonidan qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalarning aniq metodlar yordamida tekshirilganligi, to‘plangan materiallarning dissertatsiya mazmunini yoritishga imkon beradigan hajmda ekanligi, dissertatsiya mazmunining ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar hamda ilmiy anjumanlardagi ma’ruzalari orqali ommalashtirilganligi va ma’qullanganligi, xulosa, takliflar va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilganligi, olingan natijalar davlat tuzilmalari tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqotning joriy qilinishi:** shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning nutq vositasida aloqa o‘rnata olish ko‘nikmalarini takomillashtirishning nazariy-emperik ma’lumotlarga tayangan holda o‘rganilib talabalarning kirishuvchanlik, ichki bilish qobiliyati, refleksiv darajasi interfaol dialog asosida aniqlashga oid ma’lumotlar A-1-173 raqamli “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi TDPU 2022 yil 3-mart 02-07-621/04-son dalolatnomasi). Natijada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishga erishilgan;

shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish tizimi kasbiy yo‘nalganlikka ustuvorlik berish, shaxsiy qiziqishlar, qadriyatli munosabatlar, aksiologik yondashuvlarga tayangan holda takomillashtirishga mo‘ljallangan takliflardan A-1-173 raqamli “Yoshlarni umummilliy qadriyatlarimizga xos tarbiyasini

shakllantirish texnologiyasi va metodikasini ishlab chiqish” mavzusidagi amaliy loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan (Nizomiy nomidagi TDPU 2022 yil 3-mart 02-07-621/04-son dalolatnomasi). Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish mazmuni, shakllari, vositalari va mexanizmlariga oid bilimlarni kengaytirishga erishilgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga oid muayyan mezonlar ishlab chiqilib, metodik tavsiyalar va ulardan foydalanish mexzanizmlarini pedagogik amaliyotga joriy qilish natijalardan PZ-2017927124 raqamli “Ta’lim muassasalarida hamkorlik pedagogikasi asosida pedagogik faoliyatni rivojlantirish” nomli amaliy loyiha doiramsida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlashda foydalanilgan. Natijada shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari yaratilgan.

**Tadqiqotning nazariy-amaliy ahamiyati:** pedagogika nazariyasi va pedagogik ta’limotlar tarixi sohasi talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish mazmuni, metodlari, didaktik shart-sharoitlariga aloqador tavsiyalar bilan boyitildi. Ushbu tavsiyalardan o‘qituvchilar, malaka oshirish kurslari tinglovchilari faoliyatini takomillashtirish, ta’lim samaradorligini oshirish, talabalarning intellektual-ijodiy rivojlanishlarini yangi bosqichga ko‘tarishda samarali foydalanish mumkin.

Tadqiqot ishining amaliy ahamiyati shundaki shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari orqali o‘quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirish texnalogiyalari, metodlari, vositalari, hodisa obrozi va ilmiy-metodik ko‘rsatmalarning ishlab chiqilganligi bilan xarakterlanadi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqotning nazariy va amaliy natijalari 2019-2022 yillar davomida 4 ta xalqaro, 9 ta OAK e’tirof etgan jurnallarda nashr etilgan va 8 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 21 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 13 ta maqola, shundan, 8 tasi Respublika, 4 tasi xorijiy jurnallarda, 8 tasi ilmiy-amaliy konferensiya to‘plamlarida nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya kirish, uch bob, umumiy xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, uning asosiy matni 123 sahifani tashkil etadi.

# I BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISh TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

## 1.1.§ Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tadbiq etish ijtimoiy pedagogik zaruriyat

Muntazzam o‘zgarib boruvchi kasbiy o‘zgarish jarayoni bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari vositasida rivojlantirishni taqozo etadi. Chunki shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan hamkorlikda ishlash imkoniyatlarnni kengaytiradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy taraqqiyotini ta’minlash, ularning faolligini qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi.

Rivojlangan mamlakatlar ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalarini qo‘llashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Oliy ta’lim tizimida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalarini qo‘llash talabalarni o‘quvchilar bilan birgalikda ishlashgap tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalarini qo‘llash asosida bo‘lajak o‘qituvchilarga kasbiy rivojlanishlari uchun samarali yordam ko‘rsatiladi. Ularda tayanch hamda kasbiy kompetensiyalarning shakllanishi jadallashadi. Shu bilan bir qatorda bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy mahorat, pedagogik odob, hamkorlikda faoliyatni samarali tashkil etish texnikasi shakllanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalarini ta’lim jarayonini bo‘lajak o‘qituvchi shaxsiga yo‘naltirishga ko‘maklashadi. Professor-o‘qituvchilar bilan talabalar orasida hamkorlikka asoslangan pedagogik muhit vujudga keladi va ishchan muloqot uchun qulay sharoit yaratiladi. Bu esa bo‘lajak pedagoglarning bilish imkoniyatlarini kengaytiradi. Natijada bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy bilimlarni egallashga bo‘lgan intilish, motivatsiya, qiziquvchanlik tarkib topadi, o‘z-o‘zini rivojlantirishgsha rag‘bat hosil bo‘ladi. Talabalarni kasbiy

rivojlantirish jarayoni kommunikativ yondashuv konsepsiyasi asosida tashkil etiladi.

Talabalarni kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayoni uzluksiz pedagogik jarayon bo‘lib, mazkur jarayonda ta’lim oluvchilarning kommunikativ mobilligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratiladi. Bunday yondashuv talabalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash, hayotiy muammolarga qat’iy yondashuv asosida yechim topa olish, kasbiy kompetensiyalarni puxta o‘zlashtirish, muloqotga kirishuvchanlik ko‘nikmalarini shakllantirishga ko‘maklashadi. Shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik vaziyatlarda talabalarning bilish jarayonlarini samarali tashkil etish natijasiada kommunikativ ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

Pedagogikaning izohli lug‘atlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tushunchasiga quyidagichcha ta’rif berilgan:

**ShAXSGA YO‘NALTIRILGAN TA’LIM –** ta’lim oluvchilarning shaxsiy, individual layoqati, qobiliyati va imkoniyatlarini inobatga olgan holda o‘quv jarayoniga ilg‘or pedagogik va axborot texnologiyalarni tatbiq etish asosida ularda ma’lum bilim, ko‘nikma, malakalarni hosil qilishgina emas, balki, eng asosiysi, o‘quvchi shaxsini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini anglatuvchi tushuncha. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim asosini ta’lim oluvchilarda ong, xarakter, dunyoqarashni shakllantirishga xizmat qiluvchi tabaqalashtirish va individuallashtirish prinsiplari tashkil etadi.[1]

Shaxsga yo‘naltirilgan texnalogiyalari esa – shaxsning ma’naviyati, tafakkurini rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish bilan bog‘liq bo‘lgan shart-sharoitlarni yaratish hamda o‘quv jarayoni markazida ta’lim oluvchilar shaxsi turadigan texnologiyalarni ifodalovchi tushuncha[2] sifatida izohlangan.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim tahsil oluvchilarning individual xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkillashtirilgan pedagogik sharoit

---

[1] Педагогика энциклопедияси 3-жилд 11 бет
[2] Педагогика энциклопедияси 3-жилд 11 бет

hamda ta’lim tarbiya voqeligini  tashkillashtirish ko‘zda tutiladi.

Talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali ta’lim texnalogiyalarini qo‘llash muhim ahamiyatga ega. Bunday texnalogiyalar sirasiga shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalarni kiritish mumkin. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari tarkibiga talabani evristik izlanishga undovchi metodlar, muammolari ta’lim metodlari, dialog, bahs-munozara, Suqrotona savol-javob, pedagogik hamkorlik metodlarini kiritiish mumkin. Ushbu metodlarning barchasi shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari doirasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’limiy shart sharoitni shakillantirish, unda o‘quvchining nutqiy aloqa o‘rnatish ko‘nikmalarini takomillashtirish maqsadini amalga oshirishda quyidagi ta’lim muhim ahamiyatga ega: faollashtiruvchi o‘yin darslari, senariylashtirilgan darslar, mulohaza darslari, ma’ruza va bahs-munozara mashxulotlari.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalarini qo‘llash shaxsga yo‘naltirilgan vaziyatlarni tashkil etishni taqozo qiladi. Professor-o‘qituvchilar mazkur vaziyatlarni shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalarini qo‘llashga mo‘ljallagan holda tashkil etadilar. Talabalarni kommunikativ faoliyatga, o‘zaro diologga undashda professor-o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalaridan unuumli foydalanishlari lozim.

Kommunikativ so‘zi fransuzcha “kommuna” (commune) so‘zidan olingan bo‘lib, “jamoa” ma’nosini ifodalab, birgalikda muloqot qilish yoki muloqotda birlashishni anglatadi.

Kommunikativ – kommunikasiyaga, fikr almashuvga oid. Tilning kommunikativ vazifasi. Qo‘shma gap murakkab fikriy va kommunikativ munosabatlarni ifodalash vositasi bo‘lib, nutqning hamma janrlarida qo‘llanadi.[3]

Pedagogika ensiklopediyasi kommunikativlikka oid bir qator tushunchalarga bir qator izohlar berilgan. Jumladan:

---

[3] Ўзбек тилининг изоҳли луғати иккинчи жилд 395 бет

**kommunikativlik** – ta’limiy faoliyat tizimining ijtimoiy muhiti va boshqa muloqatlar bilan ta’sir o‘tkaza olish holatlariga ega ekanligini ifodalovchi tushuncha.

**kommunikativ bilimdonlik** – o‘qituvchining ta’lim oluvchilar bilan aloqaga kirishish va fikrlarini tushunarli ifodalash hamda erkin muloqot qila olish qobiliyatlari majmuiini ifodalovchi atama.

**kommunikativ madaniyat – shaxsning** yuksak darajadagi muloqot ko‘nikmalariga ega ekanligini ifodalovchi atama.

**kommunikativ qobiliyat** – pedagogning samimiy muloqotda bo‘lishi, muloqotni to‘g‘ri tashkil etishi, ta’lim oluvchilar bilan do‘stona muloqot o‘rnatish uchun to‘g‘ri yo‘l topa bilishi, boshqalar orqali pedagogik jihatdan maqsadga muvofiq o‘zaro aloqa bog‘lashiga qaratilgan qobiliyatni ifodalovchi tushuncha.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qiitish texnalogiyalari orqali kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik jarayonda talabalar asosiy sub’ekt sifatida faoliyat ko‘rsatishlari nazarda tutiladi. Bu jarayonda ular o‘z oldilariga kommunikativ faollik ko‘rsatish, kommunikativ ko‘nikmalarni faollashtirish, shaxslararo muloqot madaniyatini egallash uchun harakat qiladilar. Shu bilan bir qatorda talabalar mazkur maqsadlarga erishish yo‘llarini mustaqil izlaydilar.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari kommunikativ faoliyat doirasida o‘qituvchi bilan o‘quvchi orasidagi shaxslararo sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini taqozo etadi. Buning uchun talabalar kommuikativ faoliyat tajribasiga ega bo‘lishlari kerak. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari o‘z tarkibiga insonparvarlik, demokratiya, o‘zao tenglik va har bir shaxsga nisbatan oliy qadriyat sifatida yondashishi tajribasini mujassamlashtiradi. ifodasini topgan.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari birinchi navbatda talabalarni kompleks rivojlantirish, ularda muloqotchanlik sifatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Talabalarning kommunikativ ko‘nikmalari

mustaqil fikrlash natijasida rivojlanadi. Kommunikativ ko‘nikmalarning rivojlanishi uchun talabalar mustaqil fikrlashga asos bo‘ladigan zarur so‘z zaxirasiga ega bo‘lishlari kerak.

Jahon miqyosida globallashuv jarayonini kuchayishi yadroviy urushlardan ko‘ra mafkuraviy kurashlarni avj olishiga olib keldi. Bunday holatda fuqarolarning turli oqimlarga kirib ketishini oldini olish maqsadida ularda kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirish orqali shaxsning mustaqil fikrlashi eng dolzarb masalaga aylandi. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda bu jarayonning samaradorligini ta’minlovchi yangi dunyoqarashdagi o‘qituvchi shaxsini tayyorlash, bu jarayonda o‘qituvchining tutgan o‘rni va faoliyat mazmunini aniqlash masalalari o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar sirasiga kirishi ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar tahlili natijasida aniqlandi.

Bugungi kunda jahonda ta’limning Yevropa, Janubiy Osiyo, AQSh ta’lim modellari mavjud. Dunyodagi nufuzli universitetlar mana shu ta’lim modellari asosida faoliyatlarini olib bormoqdalar. O‘zbekiston Respublikasida 1997 yildan e’tiboran milliy mentalitetimizga mos bo‘lgan Milliy ta’lim modeli yaratildi.

So‘nggi yillar ichida ta’lim tizimidagi islohotlar keng amalga oshirilayotgan rivojlangan mamlakatlar qatori O‘zbekistonda ham shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shundayin ijtimoiy-pedagigik ehtiyoj jamiyat, davlat va aholining pedagogik ta’limiy zaruriyatini qondirishga qaratilgan davomiy ta’lim jarayonining natijasida ifodalonmoqda. Shuningdek, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda o‘qitish sifati ijtimoiy buyurtma va davlat ta’lim standartlariga mos tarzda ta’limiy mahsulotlar hamda xizmatlarni talabalarga ta’sir etganlik darajasining natijasini belgilaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonida quyidagilarga e’tibor

qaratish lozim: o‘quv jarayonining ilmiy-didaktik asoslarga tayangan holda tashkil etilganligi; o‘quv jarayonining texnologiyalashtirilganlik darajasi; o‘quv jarayoni asosiy parametrlarining davlat ta’lim standartlari va didaktik me’yorlarga muvofiqligi; bunda quyidagilar hisobga olinishi kerak: pedagogning yuklamasi, o‘quv maydoni bilan ta’minlanganlik darajasi, o‘quv jarayonining texnik vositalar bilan ta’minlanganligi, o‘quv jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan kutubxona fondining mavjudligi, har bir o‘quv predmeti mazmuniga mos keladigan o‘quv-metodik majmualarning mavjudligi kabilar; auditoriyadan tashqari o‘quv ishlarini tashkil etish va o‘tkazish sifati; o‘quv jarayonining maromiyligi, ma’muriyat harakatlarining muvofiqligi, qo‘yilgan maqsadga erishish uchun o‘qituvchi hamda talabalar harakatlarining yo‘naltirilganligi, o‘quv va taqvimiy rejalarning bajarilishi, maqsadli hamda umumlashgan dasturlarning ijrosi ta’minlanganligi; asosiy parametrlarning barqarorlik darajasi, o‘quv jadvali, o‘quv rejasi va dasturlarning aniq bajarilganligi; yuklamalarning talabalar salomatligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishiga yo‘l qo‘yilmasligi; o‘quv jarayonida ta’minlanadigan ijtimoiy-psixologik qulaylik darajasi kabilar.

Adabiyotlar va tadqiqotlar tahlili mamlakatimizda til o‘rganishga alohida e’tibor qaratilayotganligini ko‘rsatadi. Zero, ta’lim jarayoni uning har bir bosqichida yangilangan mohiyatni, innovatsion mazmunni yoshlar tafakkuriga singdirishi va ularni raqobatbardosh qilib jamiyatga yetishtirib berishi taqozo qilinadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda shaxsning ijtimoiy-kasbiy bilimdonligining rivojlanishi bilan bog‘liq ehtiyojlar va intilishlarni o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda o‘qitish sifatini o‘quv faoliyatining turli yo‘nalishlarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar yig‘indisi belgilaydi. Jumladan, ta’lim mazmuni, o‘qitish shakllari va metodlari, o‘quv jarayonining moddiy-texnik bazasi, kadrlar tarkibi kabilar. Bularning barchasi shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitishda yaxlit tarzda talabalarning kommunikativ kompetentliligini rivojlantirish imkonini beradi.

Bo‘lajak mutaxassisning **kommunikativ qobiliyati** – tevarak-atrofdagilar bilan muloqatga kirishuvchanligi, shirinso‘xanligi, to‘g‘ri muomala qila bilishi, pedagogik nuqtai nazardan samarali o‘zaro munosabat o‘rnata bilishidir. O‘qituvchi nutqidagi ravonlik, o‘z fikrini aniq ifoda etish o‘qituvchilik kasbi uchun juda muhimdir. Darsda o‘qituvchi nutqi hamisha talabalarga qaratilgan bo‘ladi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uchun ularda nutqning hissiy bo‘lishiga ham e’tibor qaratish lozim. Chunki bo‘lajak pedagog va psixologlar nutqning aloqaviy fazilati hisoblangai aniqlik, to‘g‘rilik so‘zning lug‘aviy ravonligi bo‘lajak mutaxassisning asosiy ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Nutqning mantiqiyligi so‘z ma’nolarining ma’no va mazmuniy bog‘lanishlariga asoslanadi. Nutqning soflik, ifodaviylik, o‘rinlilik kabi aloqaviy fazilatlari ham pedagog va psixologlarning nutqiy madaniyatidan dalolat beradi.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun ularga taqdim qilinayotgan o‘quv materiali davlat ta’lim standartlari talablarini bajarish bilan birga, nutq dinamikasini hamda unga ta’sir etgan omillarni aniqlash, monitoring natijalariga ko‘ra tahsil oluvchilar bilimida aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda sifatli ta’lim-tarbiya jarayonini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilash, turli pedagogik texnologiyalarning qo‘llanishi natijalarini o‘zaro taqqoslash, pedagoglarning ta’lim jarayonida ilg‘or pedagogik, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, psixologik, didaktik va metodik usullardan foydalanishidagi muammolarni aniqlash, ularni to‘ldirish yo‘llari bo‘yicha chora-tadbirlar ishlab chiqish, ta’lim muassasasining ta’lim-tarbiya sifatiga oid holatini bashoratlash asosida sifat muammolarini kompleks hal qilish imkoniyatini beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos pedagogik xususiyatlarga ega. “Fikrlar ifodasi talabalar uchun aniq, sodda, ravon,

tushunarli bo‘lishi shart”[31,82.]. O‘qituvchining bayoni talabalar fikri va diqqatini maksimal darajada faollashtirishga qaratiladi. O‘qituvchi talabalarni faollashtirish va diqqatini jamlash maqsadida muayyan so‘z va iboralar qo‘llaydi. O‘qituvchi uzundan uzoq jumlalar, murakkab so‘z birikmalari, qiyin, tumtoq iboralarni qo‘llashdan qochishi lozim. O‘rinli yumor, hazil-mutoyiba, yengilgina istehzo nutqni jonlantiradi, bu nutqni talabalar yaxshi qabul qiladilar.

“O‘qituvchining nutqi aniq, jonli, emotsional - obrazli, talaffuzi jihatidan erkin ifodali, his - hayajonli bo‘lib, unda stilistik, grammatik, fonetik nuqsonlar uchramasligi lozim. Bir maromdagi cho‘ziq, zeriktiradigan nutq talabalarni tez charchatadi, ularni lanj, loqayd qilib, fanga bo‘lgan qiziqishi so‘ndiradi”[144]. Talaba uzatilayotgan axborotni yaxshi qabul qilishi uchun jonli nutq samarali natija beradi. O‘qituvchi muloqoti doimo o‘zining ichki mativ, qatiyatliligi, muloqat qilayotgan narsaga intilayotganligi bilan farqlanib turishi lozim. Pedagogik nazokat va kommunikativ qobiliyatga ega bo‘lgan o‘qituvchi tahsil oluvchilar bilan tezda til topisha oladilar.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev o‘zining “Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalkimiz bilan birga quramiz” nomli asarida har bir fuqaroning vatanparvar va yurtparvarlik fazilatlariga ega bo‘lishi, ona yurtini chin qalbidan sevishi va ardoqlashi, el-yurti uchun o‘zini ayamasligi, bu yo‘lda jonini ham fido qilishiga tayyor bo‘lishi lozimligini uqtiradi [16]. Shunday ekan, bo‘lajak mutaxassislar o‘z ona Vatanining ravnaqiga ravnaq qo‘shishlari uchun o‘zining tili va madaniyati barobarida o‘zga tillar va madaniyatini ham o‘rganishi, haqiqiy fuqarolik pozitsiyalariga ega bo‘lishi talab etiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ta’lim tarbiya jarayoniga qo‘llashda bo‘lajak mutaxassislarning individual kasbiy layoqat tizimiga: kasbiy xarakter (mutaxassislik odobi) mutaxassislik madaniyati; mutaxassislik burchi va layoqati; kasbiy savodlilik; kasbiy tashkillashtira olish; kasbiy faoliyatini tarbiyalash; kasbning sharafli va jamiyat rivojida tutgan o‘rni hamda kasbiy g‘oyani anglab yetish; kasbiy qadriyatlar; kasb sifatlari; kasb fazilatlari; kasbiy

erkinlik; kasbiy qiyinchiliklarni yengib o‘tish; kasbiy raqobatbardoshlik; kasbiy faollik, kasbga sodiqlik kabilarga alohida e’tibor berilishi zarur.

T.Qudratov o‘zining “Nutq madaniyati” asoslari kitobida yozishicha: “Har bir shaxsning nutqi o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bir kishining nutqi tinglovchiga yaxshi tushuniladi, voqea, hodisalar haqida aniq-ravshan ma’lumot beradi, o‘zining til qurilishi bilan tinglovchining xulqiga ta’sir etadi. Boshqa bir kishining nutqidan tinglovchi asosiy narsalarni ajratib ololmaydi. Bunday nutqning til qurilishida grammatik-uslubiy nuqsonlar bo‘ladi. Tilga olingan nutqlarning birinchisini to‘g‘ri, madaniyatli nutq, keyingisini nuqsonli nutq deyish mumkin” [85]

Barcha pedagogika oliy ta’lim muassasalaridagi “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalar muloqatini takomillashtirish dolzarb ahamiyat kasb etadi, chunki muloqat va falsafiy tahlil yuritish uzviy bog‘liq bo‘lgan tafakkuriy jarayondir. Nutq bo‘lajak mutaxassis uchun hodisalar haqida aniq-ravshan ma’lumot beradi, o‘zining leksikasi bilan tinglovchining xulqiga, hissiyotiga ta’sir etadi. Buning uchun esa ularda tillardagi normalarga e’tibor qaratish lozim bo‘ladi.

**Nutq -** og‘zaki kommunikatsiya vositasi hisoblanadi.

Nutq: *yozma va og‘zaki nutq,* o‘z navbatida, og‘zaki nutq: *diologik va monologik* turlarga ajratiladi. Yozma nutq fanda foydalaniladigan murakkab umumlashmalarni rivojlantirishda, badiiy timsollarni yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Til qoidasi tahlili dolzarb muammolardan hisoblanib, ko‘p qirrali, ko‘p tahlilli, ya’ni ob’ektiv-tarixiy, madaniy-sotsiologik va sof lingvistik jarayondir. Til qoidalarining mazmunini rus tnlshunosi L. I. Skvorsov obrazli qilib shunday deydi: «Ijtnmoiy madaniy hayotda til normalari bir mash’aldirki, nutq faoliyatining qirg‘oqsiz okeanida til kollektivi unga qarab intiladi, tayanadi»[136].

O‘zbek mutafakkir shoirlari nutq ma’nosida «nutq», «til», «so‘z» atamalarini ishlatganlar. Bulardan eng ko‘p uchraydigani «so‘e» atamasidir. Bu

so‘z naziyatga qarab til, suz, nutq o‘rnida qo‘llana bergan. Navoiy she’rida «nutq» so‘eini fikrni ifodalovchn matn ma’nosida ilatgan:

*“Har kimsaki nutqi farovon bo‘lmas,*

*Til ranjiga qilmoqligi imkon bo‘lmas*. («Tilni azob chekib o‘rganmagan kishining nutqi ravon bo‘lmaydi».) Inson nutqi bulbulga qiyoslanadi. Bu bulbulni sayratadigan narsa so‘zdir. So‘z bo‘lmasa bulbul sayramay qo‘yadi.

*“Gulshane keldi jismi insoniy,*

*Nutq oning bulbuli xush ilhoni.*

*Bo‘lmasa so‘z, ajab balo bo‘lg‘ay,*

*Bulbuli nutq benavo bo‘lg‘ay.*

*«So‘z» atamasi «nutq» ma’nosida:*

*Ham so‘z ila elga o‘limdan najot,*

*Ham so‘z ila topib o‘lik tan hayot»* [ Majolis un-nafois.175].

*(Navoiy)*

So‘z gavhari noyobdur, uni til (nutq) izhor qiladi. Agar nutq gavhar (mazmun) bilan to‘la bo‘lmasa, chiroyli husndan foyda yo‘q.) Yuqoridagilardan ma’lum bo‘ladiki, Sharq mutafakkirlari nutq dinamikasini hamda unga ta’sir etgan omillarni aniqlashga katta e’tibor qaratishgan.

Tadqiqot mobaynida va monitoring natijalariga ko‘ra tahsil oluvchilar bilimida aniqlangan bo‘shliqlarni to‘ldirish hamda sifatli o‘qitish orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda tarbiyaviy jarayonlarning sifatini aniqlash ham talab etiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarining tatbiqini ta’minlashda ta’lim mazmuni birinchi darajali mohiyat kasb etadi. Uning ko‘satkichlari sifatida quyidagilarni e’tirof etish mumkin:

- ta’lim muassasasida amal qilinayotgan modernizsiyalashtirilgan ta’lim dasturlarining samaradorligi;

majmualarda ta’lim bosqichlariaro uzviylik va uzluksizlikning ta’minlanganligi va boshqalar.

O‘qitish sifatining namoyon bo‘lishida o‘qituvchilarning shaxsiy yutuqlari muhim o‘rin egallaydi.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ta’lim muassasasi faoliyatining ijtimoiy samaradorligi ham sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Bu quyidagilarda namoyon bo‘ladi:

- o‘quv jarayoni sub’ektlarida mazkur jarayondan qoniqishning hosil bo‘lishi;
- o‘quv jarayonining tashkil etilishi, borishi, natijalari va sifatining namoyon bo‘lishi;
- o‘quv jarayoni sub’ektlarining o‘zaro hamkorligi;
- ta’lim muassasasining mavjud mavqei;
- ta’lim muassasasida amal qiladigan strategiyalar kabilar.

Ta’lim muassasalari bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasi va mazkur darajadan yuqori ta’lim muassasalarining qoniqishi ham o‘qitish sifatini ifodalaydi. O‘qitish sifatini boshqarishning muhim mexanizmi unga o‘quv jarayonini yaxshilash orqali ta’sir ko‘rsatishda namoyon bo‘ladi. Uni amalga oshirishning muhim sharti o‘qitish sifati monitoringini amalga oshirishdan iborat. Mazkur monitoring maqsadga yo‘naltirilgan, maxsus tashkil etilgan, o‘qitish sifatida ro‘y beradigan asosiy o‘zgarishlarni uzluksiz kuzatadigan jarayondir. Uning asosiy maqsadi o‘z vaqtida ta’lim jarayonini boshqarishga oid to‘g‘ri qarorlar qabul qilish, unga tuzatishlar kiritish, bashorat va materiallarning tahlili hamda uni takomillashtirishga xizmat qiladigan sharoitlarni yaratishdan iborat.

Talabalarda ko‘nikma va malakalar vositasida ularning bilish mustaqilliklarini shakllantirish.

v) didaktik jarayonning mazmuni – barcha dasturlar uchun mazmun yagona hisoblanadi;

g) o‘quv jarayoni doirasida - o‘rgatish faoliyati davomida o‘qituvchining yo‘naltiruvchilik,  rahbarlik, maslaxat beruvchilik mavqei namoyon bo‘ladi;

y) o‘quv jarayoni doirasida pedagogik faoliyat talabalarning yetakchilik mavqei bilan uyg‘unlashadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari sifatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan quyidagi tarkibiy qismlar ajratiladi:

1. Moyillik hosil qiluvchi – talabalarni faol o‘rganish jarayoniga jalb qiluvchi va bilish faoliyatining barcha bosqichlarida faollikni saqlab qoluvchi qiziqishlari, ehtiyojlari, mayllari.

2. Yo‘naltiruvchi natijalarni mustaqil baholash, o‘zgalarning bahosiga tayangan holda o‘zlari va faoliyatlariga bergan baholari, o‘rganish jarayonlarini mustaqil boshqarishlari va tuzatishlar kiritishlari, o‘z-o‘zlarini boshqarishlari kabilar.

Ushbu qismlarning barchasi o‘zaro aloqadorlikka ega.

Ta’lim muassasasi va unda tahsil olayotgan talabalarning rivojlanishlariga beriladigan baho ham o‘qitish sifatini aniqlashda muhim o‘rin tutadi.

O‘qitish maqsadlariga erishish uchun o‘qituvchi, talabalar hamda ota-onalarning o‘zaro hamkorliklari, o‘z faoliyatlarini mustaqil boshqarishlari;

- talabalarning hamkorlikka asoslangan faoliyatlarini tashkil etish;

- o‘quv-tarbiya jarayonining sifati uchun o‘qituvchi hamda talabalar orasida mas’uliyatlilikni teng taqsimlash talab etiladi.

Shunga ko‘ra, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘p jihatdan istiqbolga yo‘naltirilgan chora-tadbirlar amalga oshirilib ta’lim sifatining xalqapo talablapga muvofiqligi ta’minlanadi.

Ta’lim mazmunini tubdan isloh qilish, o‘quv jarayoni sifatining iqtisodiy pivojlanishining ilg‘op jahon dapajasiga muvofiqligi ta’minlanadi.

Mustaqillik yillarida yangi ta’lim paradigmaga asoslangan ta’lim-tarbiya tizimining huquqiy - ijtimoiy asoslari yaratildi. Ayniqsa, o‘quv-tarbiya sifatini baholashning o‘ziga xos tizimini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari vujudga keldi. Uning mezonlapi va taptibini modernizatsiyalash hamda o‘qitish sifati monitoringi modelini takomillashtirish orqali mazkur jarayonni istiqbolda

yangi sifat bosqichiga ko‘tarish zaruriyati kuchaydi. Bu sohada O‘zbekiston Respublikasida 2007 yil 26 fevraldagi “Xalq ta’limi muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish to‘g‘risida”gi PF-3857-sonli Farmoni [7] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Birlashgan Millatlar tashkiloti tomonidan tasdiqlangan “2013-2017 yillarda Ta’lim sektorini rivojlantirish rejasi”, Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2015 yil 25 sentabrdagi 70 - Bosh Assambleyasida qabul qilingan 2016-2030 yillarga mo‘ljallangan “Barqaror Rivojlanish Maqsadlari”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 15 fevraldagi “2016-2030 yillarga mo‘ljallangan “Barqaror Rivojlanish Maqsadlari”ni [9] O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirish” to‘g‘risidagi 111-f-sonli Farmoyishi me’yoriy-huquqiy asos sifatida xizmat qilmoqda. Mazkur Qonun va qonunosti hujjatlari:[10,]

- o‘qitish sifati;

- kadrlar tayyorlash sifati va pedagogik faoliyat natijalarini baholash mezonlari;

shaxs, jamiyat va davlat manfaatlapini himoya qilish;

- mehnat va ta’lim xizmatlari bozorida raqobatbardoshlilikni ta’minlash;

- ta’limning belgilangan davlat ta’lim standarti talablarini bajarilishiga erishish monitoringi amalga oshirilishini tartibga solish;

- ta’lim sifati va taqdim etilgan ta’lim menejmenti nomenklatupasiga nisbatan qo‘yiladigan talablapni belgilash;

- ta’lim-tarbiya ustuvor xulosalari, tahsil oluvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari dapajasini muntazam baholash taptibi va mezonlarini ishlab chiqish;

- o‘quv-tarbiya jarayoni, unda qo‘llaniladigan pedagogik texnologiyalar, axborot ta’minotiga erishish;

- o‘qitish darajasini nazorat qilish, ta’lim muassasalarida talabalarning bilim, ko‘nikma va malakalariga qo‘yiladigan me’yoriy talablarni belgilash;

- ta’lim tizimida faoliyat ko‘rsatayotgan pedagog kadrlar bilimi va kasbiy kompetensiyalari sifatini nazorat qilish hamda xolisona baholash tizimini

tashkil etish masalalariga qaratildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish, ta’lim sub’ektlari hamkorligi, ular orasidagi munosabatlarning psixologik-pedagogik asoslari;

- shaxsga qaratilgan ta’lim texnalogiyalari vositasida o‘quvchilarning muloqatmandlik qobiliyatlarini takomillashtirishning didaktik asoslaridan iborat.

Mazkur vaziyatlarda talabalar dastlab qiyinchiliklarni bartaraf etish ko‘nikmalarini egallash yo‘llarini izlashlari talab qilinadi. Talabalar shaxsiy, ijodiy qarashlarini bayon qilish, farazlarni ilgari surish tajribasiga ega bo‘lishlari lozim. Talabalarning muloqot ko‘nikmalarini namoyon qilishlarida pedagogik amaliyot alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki pedagogik amaliyot talabalar uchun o‘quvchilar bilan muloqotga kirishish imkoniyatini yaratib, shaxsga yo‘naltirilgan texnalogiyalarni qo‘llashlari uchun katta imkoniyat yaratadi. Bu jarayonda talabalar o‘quvchilar bilan kechadigan muloqotda duch keladigan qiyinchiliklarni ham bartaraf etish tajribasini egallaydilar.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda mahsuldor texnalogiyalardan hisoblanadi. Chunki shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalolgiyalari o‘quv jarayonini bevosita talabaga yo‘naltiradi. Guruh a’zolari orasida hamkorlik va ishchan muloqot muhitini vujudga keltiradi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari quyidagilarni amalga oshirish uchun qulay sharoit yaratadi:

- tahsil oluvchilarning ijodiy fikrlash holatlarini takomillashtirish;
- tahsil oluvchilarning muloqatidagi individuallik ni namayon etishiga imkoniyat tashkil etish;
- nutqini bayon etish jarayonida talabalar o‘rtasida ijobiy muhit munosabatlarini egallaganligini taminlash;
- tahsil oluvchilar egallagan intelektual qobiliyatlarini muloqat orqali namoyon qilishlariga imkoniyat yaratish;
- talabalar orasidagi kanfiliktlarni muloqot orqali bartaraf etish kabilar.

Shuning uchun ham oliy pedagogik ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalaridan tizimli tarzda foydalanish maqsadga muvofiq.

## 1.2-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishning pedagogik xususiyatlari.

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantiirishda mustaqil o‘qib-o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun talabalarda mustaqil o‘qib-o‘rganishga nisbatan mas’uliyatli munosabat shakllangan bo‘lishi zarur. Ta’lim jarayonida talabalarga mustaqil rivojlanish imkoniyatini berish natijasida ularda ishchan muloqot ko‘nikmalari shakllantiriladi. Bunday muloqot jarayoni o‘z navbatida talabalarning bilish faolligi va mustaqil rivojlanishlarini vujudga keltirish orqali amalga oshiriladi. Talabalar o‘zlarining faoliyatlarini takomillashtirishlari natijasida kommunikativ ko‘nikmalari rivojlanishining yangi bosiqichiga ko‘tariladilar. Natijada ularda madaniy va kasbiy muloqot ko‘nikmalari rivojlanadi.

Talabalarning o‘z-o‘zlarini rivojlantirishga bo‘lgan intilishi ularda kommunikativ faollik, mustaqil muloqotga kirishishga intilishini kuchaytiradi. Bu jarayon bevosita o‘quvchilar bilan muloqot asosida pedagogik amaliyot davrida amalga oshiriladi. Talabalarda o‘z-nutqi va muloqot ko‘nikmalarini nazorat qilishi motivatsiyasi shakllanishi lozim.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnalogiyalari talabaning kompeleks rivojlanishi uchun alohida imkoniyatlarni ta’minlaydi. Ta’lim jarayonining boshqa sub’ektlari bilan o‘zaro munosabatga kirishganda talabalarning kommunikativ faolliklari yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur faollik sub’ektlarning o‘zaro dialogi jarayonida aniq ko‘zga tashlanadi. Dialog metodi asosida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish sub’ekt-sub’ekt munosabatlarini takomillashtirib, hamkorlik uchun qulay muhit yaratadi.

Ta'lim jarayoni sub'ektlari orasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan diolog ularning munosabatlarida ochiqlik, o'zaro huramat, ishonch va qo'llab-quvvatlashga asoslangan munosabatlarni vujudga keltiradi.

Dialogga asoslangan hamkorlik o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarining o'zaro tenglik asosida amalga oshishiga sharoit yaratadi. Bunday munosabatlar talabalarda kommunikativ ko'nikmalaraning rivojlanishiga ko'maklashadi.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnalogiyalarini qo'llash natijasida talabalarning kommunikativ ko'nikmalari quyidagi bosqichlarda rivojlanadi:

- kasbiy jihatdan ahamiyatli bo'lgan pedagogik fikrlarni bayon qilish bosqichi.
- o'zlashtirilgan bilimlarni og'zaki ifodalash bosqichi;
- guruhdoshlari bilan o'zaro diolog va bahs-munozaraga kirishish bosqichi;

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan har uchala bosqichlar talabalarda kommunikativ ko'nikmalarning tadrijiy rivojlanish dinamikasini ifodalaydi.

Oliy pedagogik ta'lim jarayonida talabalar o'quvchi va o'quvchi, o'quvchi va o'qituvchilar orasida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnalolgiyalari vositasida qulay muloqot vaziyatlarini tashkil etish usul va metodlari bilan qurollantirilishlari lozim.

Shaxsga yo'naltirilgan o'qitish texnalogiyalari bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xususan, tahsil oluvchilarning g'oyalarini qo'llab-quvvatlash va real voqelikda aks ettirish, barkamol shaxs sifatida takomillashtirish uchun yangi pedagogik sharoit tashkillashtirish bilan bevosita aloqadordir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnalogiyalari talabalarda fikriy mustaqillik, tashabbuskorlik, mas'uliyatlilik, ijodkorlik, nostandart firkrlash kabi kommunikativ layoqatini va ko'nikmalarinini namoyon qilish uchun zarur bo'lgan sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnalogiyalari tahsil oluvchiga yangicha yondashuvi, talabaning individual, kasbiy intilishlarini qadirlash, tashkilotchiligini qo'llab quvvatlash uchun qulay imkoniyat yaratadi. Shu jumladan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim intelektual-

pedagog – talaba, talaba-talaba, talaba-talabalar orasida muloqot muhitini vujudga keltirishga ko‘maklashadi.

Professor-o‘qituvchilar shaxsga yo‘naltirilgan ta’limning muayyan texnalogiyalaridan foydalanadilar. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalarini qo‘llash jarayonida professor-o‘qituvchilardan quyidagilarga amal qilishlari talab etiladi

- har bir talabaga alohida layoqatga ega bo‘lgan individual shaxs sifatida yondashish;
- talaba shaxsining o‘ziga xos jihatlarini hurmat qilish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash;
- talabalarning izlanuvchanlik sifatlarini munosib baholash, ular bilan erkin muloqotga kirishish uchun qulay vaziyatlarni tashkil etish;
- talabalarning mustaqil bilim olish va qarashlarini bayon qilishi uchun shart-sharoitlar yaratish;
- talabalarning o‘z qarashlarini erkin ifodalashlari uchun kichik guruhlarda ishlashlarini tashkil etish;
- talabalarni muloqot nutqini muntazam nazorat va refleksiyalashga o‘rgatish;
- talabalarning o‘z nutqidagi hato va kamchililklarni bartaraf etishga odatlantirish asosida muloqot ko‘nikmalarining sifatini ta’minlash;
- talabalar uchun muvaffaqiyat vaziyatlarini vujudga keltirish;

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni shakllantirish uchun ularni mahsuldor faoliyatga jalb qilish, o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasini kuchaytirish, oldin olgan bilim va tajribalarini tizimli qo‘llashga o‘rgatish, tadqiq qilinayotgan muammolarga o‘z fikrini bildirish talab qilinadi.

Talabalarning **kommunikativ qobiliyatlari** deganda ularning o‘qitish jarayonidagi bilimlar, tajribalar va nutq vositasida kirishimlilik, muloqatmandlikka moyilligini ko‘rsatuvchi topshiriq va vazifalarni samarali amalga oshira olishlariga oid umumiy layoqatlari tushuniladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda ikki pedagogik xususiyatga e’tiborni qaratish lozim. Bular:

1. O‘quv jarayonining davlat ta’lim standartlariga mosligi.
2. O‘quv jarayonining iste’molchilar talablariga mosligi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda o‘qitish sifatini boshqarish muhim ahamiyatga ega. O‘qitish sifatini boshqarish deganda umumiy tarzda ta’limni boshqarishning yangi shaxsga yo‘naltirilgan paradigmasi tushuniladi. Respublikamiz ta’lim tizimini boshqarishda o‘qitish sifatini nazorat qilish muhim o‘rin egallaydi.

O‘qitish sifati O‘zbekistonning milliy taraqqiyoti va xavfsizligi, raqobatbardosh kadrlarga ega bo‘lishining muhim shartidir. O‘qitish sifatining asosiy qismini ta’lim mazmunining sifati va tarbiyaviy jarayonlarning sifati tashkil qiladi.

O‘qitish sifatini ta’minlashda ta’lim muassasasidagi manbalarning sifati ham alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday muhim manbalar sirasiga ta’lim muassasasidagi pedagogik kadrlar, informatsion-metodik, ta’limiy-texnologik, moddiy-moliyaviy manbalarni kiritish mumkin.

Shu bilan bir qatorda shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etish uchun quyidagilarni tahlil qilish talab etiladi:

- amalda qo‘llanilayotgan o‘quv dasturlarining samaradorligi va maqsadga muvofiqligi;
- metodik hamda tashkiliy innovatsiyalar;
- mazkur innovatsiyalarning o‘qitish natijalarining sifati va bitiruvchilarning bilimdonlik darajasiga ko‘rsatadigan ta’siri;
- o‘quv jarayonining texnologik jihatdan ta’minlanganlik darajasi;
- fanlar bo‘yicha o‘qitish sifati baholanishini ta’minlovchi kvalimetrik, tashxislash metodikalarining o‘qituvchilar tajribasida foydalanilganligi va sinovdan o‘tkazilganligi kabilar.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini ta’lim jarayoniga tatbiq etishda ta’lim muassasasining metodik quvvatini tashkil etuvchi ko‘rsatkichlar ham muhim o‘rin egallaydi. Xususan:

- o‘tgan o‘quv yillarida tashkil etilgan o‘quv dasturlari;
- umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim muassasasida tashkillashtirilgan va yaratilgan uslubiy hamda didaktik qo‘llanmalar;
- sinovdan o‘tkazilgan o‘rgatuvchi va tashxislovchi metodikalar;
- yangicha fikrlar yig‘indisi;
- uslubiy faoliyatning tashkillashtirilganligi, yetakchi tatqiqotlarni aniqlash tanlash, umumlashtirish va ommalashtirish kabilar.

O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida oliy ta’lim tizimining joriy holati va mavjud muammolar tahlil qilinar ekan, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda informatsion-metodik hamda ta’limiy-texnologik manbalarni tahlil qilish ham alohida qimmatga egaligi aniqlandi. Uning asosiy ko‘rsatkichlari:

- ekspert xulosalari;
- nazorat va tekshirish natijalarini ifodalovchi materiallar;
- yig‘ilishlar, kengashlarning materiallari;
- metodik seminarlarning materiallari kabilar.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda muassasaning moddiy-moliyaviy manbalarini hisobga olish ham nihoyatda zarur. Mazkur manbalar sirasiga:

- ta’lim muassasasida amalga oshiriladigan alohida tadbirlarni moliyalashtirish manbalari;
- qabul qilingan me’yorlar va talablarga mos tarzda o‘quv materiallari mazmuniga muvofiq keladigan moddiy-texnik bazaning tavsifi;
- ta’lim muassasasidagi sinf xonalari va o‘quv kabinetlarining kompyuterlar, audio, zallar, inventarlar bilan ta’minlanganligi;

- ta’lim muassasasining moddiy-texnik bazani kengaytirishga yo‘naltirilgan rejasi;

- o‘qitish jarayoni sifatining o‘quv jarayoni sifati natijalari bilan mos kelishining ta’minlanganligi;

- ta’lim muassasasida masofaviy ta’limni joriy etish uchun moddiy-texnik bazaning mavjudligi kabilarni kiritish mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘quv jarayoni sifatini miqdor va sifat ko‘rsatkichlari asosida ifodalash mumkin.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari tarkibida o‘quv jarayonining sifati alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda uzluksiz ta’lim tizimidagi islohotlar rivojlanishning bozor iqtisodiyoti sharoitida vujudga kelayotgan raqobat muhitida ustuvor ahamiyat kasb etib, ta’lim muassasasini boshqarish masalalarini o‘rganishni talab qiladi.

O‘quv jarayonidagi **shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya** -bu yaqqol uzluksiz yaxlit hodisa bo‘lib, u tahsil oluvchi zaruriyatidan kelib chiqqan holda bir maqsadga yo‘naltirilgan, oldindan puxta loyihalashtirilgan va shaxsning ichki iqtidori va salohiyatini qaratilgan pedagogik jarayondir.

Texnologiya- (texne- san’at, mahorat; logos-ta’limot)- ta’lim jarayonini mahoratona tashkil qilish san’ati sifatida ham tushuniladi.



**1.2.1- rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari**.

Rasmda tasvirlanganicha, talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari: 1) o‘zaro hamkorlikdagi, ya’ni interfaol, 2)sog‘lomlashtiruvchi; 3)raqamli kabi turlarga bo‘linadi. Ular o‘z navbatida guruhlanadi va talabalarning ichki qobiliyatlari va ta’lim ehtiyojlarini qondirishga mo‘ljallanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini amaliyotga tadbiq qilish jarayonida yangi mazmun va mohiyatga ega bo‘lgan boshqaruv faoliyati yaratuvchanlik, ijodkorlikka intilish hissi bilan yo‘g‘rilgan. Bugungi kun o‘qituvchisi ta’lim sifati va uzluksizligini ta’minlash va o‘zining kasbiy darajasi va malakasini doimiy ravishda oshirib borishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida o‘quv jarayonini uzluksiz takomillashtirib borishi, kasbiy masalalarni yechishga moyil bo‘lishi shart.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarining xarakterli jihatlari ta’lim sub’ektlarida izlanuvchanlik faoliyatining birgalikda amalga oshirilishidadir. Hissiy-obrazli muhokama va tanlov natijasida shaxslararo mustahkam hamkorlikdagi harakat vujudga keladi. Hamkorlikka oid qat’iy talablarning ishlab chiqilganligi uni o‘quv jarayoni bilan birgalikda amalga oshishiga asos bo‘ladi. Shu jumladan, shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari tahsil beruvchidan muayyan pedagogik-psixologik mahorat va yuqori darajadagi fidoiylikni talab qiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish jarayonini tashkil etish o‘zining pedagogik xususiyatlariga ega (1.2.2-rasm)




**1.2.2-rasm. Talabalarda shakllantiriladigan kommunikativlik funksiyalari**.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda o‘qituvchi hamda talabalar orasidagi demokratik munosabatlarni ta’minlash imkonini beradi:

1. Talaba va o‘qituvchi orasidagi munosabatlarni barqarorlashtirish.

2. Darsda hamjihatlikka asoslangan ijobiy muhitni vujudga keltirish.

3. Talabalarda erkin tanlov va o‘z fikrini himoya qilish ko‘nikmasini shakllantirish.

4. Pedagogik jarayonda o‘qituvchi va talabalar orasida o‘zaro tenglikka asoslangan munosabatlarni qaror toptirish kabilar (1.2.3-rasm).




**1.2.3-rasm. Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarning pedagogik omillari.**

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar didaktik jarayonlarni tahlil qilish va o'z faoliyatini tashkil qilish metodlarini izchil tadbiq etishga yo'naltirilgandir.

Jahon ta'limi va tadqiqot muassasalarida zamonaviy va istiqbolli mehnat bozori talablarining diversifikatsiyalashuvi o'qitishni yangi strategiyalarga moslashtirish, ta'limiy axborot infrastrukturasi bazasini kasbiy faoliyatga aloqador parametrlar doirasida rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga yo'naltirmoqda. Shu jihatdan olganda tadqiqot doirasida o'tkazilgan izlanishlar ko'rsatishicha, bo'lajak mutaxassislarni malaka talablari asosida tayyorlash, kredit-modulli ta'lim tizimida zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida o'qitishning jahon ta'limi andozalariga mos eng ilg'or uslublarini joriy etish bo'yicha yirik loyihalarni amalga oshirishda tizimli ishlar olib borilmoqda.

Respublikamizdagi akademik muhitida ta'lim oluvchilarning samarali bilim egallashlari va sifatli o'quv-biluv faoliyati uchun zarur bo'lgan didaktik tayyorgarligini shakllantirishning ijtimoiy mexanizmlari ta'lim jarayoniga joriy etilganligi tadqiqotlarimiz mobaynida ayon bo'ldi. Biroq, zamonaviy ta'limda o'qitish modellarini texnologik taraqqiyot g'oyalari bilan uyg'unlashtirish, xususan, innovatsion ta'lim texnologiyalari va pedagogik modellardan

foydalanish uchun o‘qituvchilar mas’uligini oshirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirishga ham alohida ahamiyat qaratish lozimligi ayon bo‘ldi.

Kuzatuvlardan aniqlanishicha, oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga bo‘lgan pedagogik talablar to‘g‘ri tashkil qilinganligiga qaramasdan, shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini o‘quv mashg‘ulotlariga muntazam ravishda tatbiq qilish lozimligi aniqlandi.

Janubiy Koreya, Fransiya, Yaponiya, Germaniya kabi taraqqiy etgan davlatlar tajribasida talabalarning tafakkur erkinligi, mustaqil fikrlashni shakllantirishga jiddiy yondashadilar.

OTMlarda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish sohasidagi kompetensiyaviy yondashuvga ko‘ra talabalarning bilim olishlarida o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchni tarbiyalash, mustaqil fikrlashini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish bo‘yicha xalqaro dasturlar, assessment topshiriqlarini tizimli qo‘llash orqali ularning o‘quv-biluv motivatsiyasini jadallashtirish muhim ahamiyatga egadir. Bu esa talabalarda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish – ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida dolzarb muammolardan biri ekanligini ko‘rsatadi.

Respublikamizda ta’lim tizimini rivojlantirish, talabalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish, har tomonlama barkamol avlodni tarbiyalash borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasining to‘rtinchi yo‘nalishi bo‘lgan Ijtimoiy sohani rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlarida yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish haqida to‘xtalib, jismonan sog‘lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, Vatanga sodiq, qat’iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash ustuvor vazifa sifatida qo‘yildi.

Pedagogika fanida bunday tizimni shaxs ongini shakllantirishga yo‘naltirilgan didaktik jarayon sifatida baholash mumkin. Unda amalga

oshadigan ichki o‘zgarishlar shaxs ongi strukturasining faoliyatini ta’minlaydi. Bu, o‘z navbatida, ta’lim-tarbiya sifatiga ta’sir ko‘rsatadi.

## 1.3-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish mazmuni.

Biz tadqiqotlar davrida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida talabalar kommunikativ ko‘nikmalarini aniqlash mezonlarini ham o‘rganib chiqdik. Bunda ball me’yorlari quyidagicha asoslanildi:

**Talabaning ma’lumotlarni qabul qilishi.** Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quv fanlaridan beriladigan mavzular yo‘nalishdagi ma’lumotlarni talabalarning qabul qilishi maksimal 1 ball bilan baholanadi va o‘zlashtirish darajasida 10% tarzida qayd etiladi. O‘z navbatida bu ma’lumotlarni qabul qilishning uch darajasini ajratib belgilaymiz:

1-bosqich ma’lumotlarda qayd etilgan raqamlar va sanalarni to‘liq qabul qilishi, tushunishi va anglashi -0.40 ball

2-bosqich talabaning voqea-hodisalarni to‘laqonli tushunib olishi-0.40 ball

3-bosqich mavjud ma’lumotlarni berilgan vaqtning o‘zida o‘zlashtira olishi – 0.20 ball. Jami 1 ball bilan baholandi.

Bunda talabalarning mustaqil fikrlash kompetensiyasi aniqlanayotganligiga asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Shu bois birinchi bosqichda 0.4%, ikkinchi bosqichda 0.6%, uchinchi bosqichda 0.2%, umumiy 10% etib belgilandi.

**Talabaning ma’lumotlarni tahlil etishi va qiyoslashi.** Ma’lumotlarni qabul qilish va qiyoslash parametrini biz ikkiga ajratib belgiladik:

**Birinchisi:** ma’lumotlarni tahlil etishi 0.50 bal (5%) bilan

**Ikkinchisi:** ma’lumotlarni qiyoslashi 0.50 bal (5%) bilan belgilandi

Umumiy tarzda 1 ball 10% qayd etiladi

**Talabaning manbalar asosida qo‘shimcha ma’lumotlar bera olish darajasi.** Talabaning mustaqil fikrlash kompetensiyasini boyitadigan, ta’minlab boradigan jarayon uning qo‘shimcha manbalar bilan ishlash jarayonidir.

Talabalarning har bir fan yo‘nalishidagi manbalardan misollar keltira olish malakasi muhim sanaladi. Buni biz o‘z navbatida 4 ta tarkibga ajratishga erishdik:

1. Fan yo‘nalishidagi materillardan ma’lumotlar keltirishi – 0.1 ball (0.10%)

2. Tarixiy manbalardan misollar keltirishi- 0.4 ball (0.40%)

3. Internat orqali olingan ma’lumotlardan ma’lumotlar keltirishi – 0.2 ball (0.20%)

4. Ilmiy ma’lumotlardan qo‘shimcha ma’lumotlar keltirishi - 0.3 ball (0.30%)

Umumiy tarzda bu parametr ham 1 ball (10%) bilan qayd etiladi.

Aytish lozimki «Pedagogika va psixologiya» mutaxassisligi tahsil oluvchilari uchun «Shaxsning rivojlanish, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi» mavzusida tashkillashtirilgan analiz vaqtida ulaning nutqiy aloqa o‘rnata olish layoqatlarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan bir necha algoritmik etabma-etablaridan foydalandik.

1.3.1. Jadval

| № | O’zaro Kommunikativ muloqotning shakillanish jarayoni | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 1. | O’qituvchi va o’qituvchi o’rtaasidagi fikr almashinish holatlari | | O’qituvchi va o’quvchilar bilan fikr almashinish holatlari | | O’quvchi o’quvchilar bilan fikr almashinish holatlari | | O’quvchining ijtimoiy jamiyat bilan o’zaro muloqot hamkorligini o’rnatish holatlari | |
| 2. | Ijobiy | Salbiy | Ijobiy | Salbiy | Ijobiy | Salbiy | Ijobiy | Salbiy |

| | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 3. | 1. Guruh haqida ma'lumotlar oladi.<br>2. O'quvchi o'zlashtirish to'g'risida ma'lumot yig'adi.<br>3.Muammoli vaziyatlarni bartaraf etishga imkoniyat topadi<br>4. O'quvchilar bilan muloqat va qiziqishlar turini aniqlaydi(qanday suhbat olib boradi va nimalarga qiziqadi) | 1. Muloqat almashanayotgan o'qituvchining tasavvurini o'ziga singdirib olish holatlari<br>2.Kayfiyat holatining aralashuvi natijasida nato'g'ri ma'lumotning berilishi | 1.Samimiyatning paydo bo'lish holatlari.<br>2.ma'lumot almashinish<br>3. o'zaro hurmat va boshqalar | 1. Meni koyib beradi<br>2. meni tushunish qiyin | 1.O'zaro bahs natijasida muloqot boyligining oshishi<br>2. Masalaga do'stona oydinlik kiritishi<br>3. Sog'lom raqobatning vujudga kelishi va boshqalar | 1. o'zaro bosim o'tkazishning paydo bo'lishi<br>2. Qisman hadiksirashning mavjudligi<br>3. Ma'lumot almashinishda hayotiy tajribaning kamligi<br>4. Yoshga doir qiziqqonlik | 1. nazariy ko'nikmalarini amaliyotga qo'llash<br>2. tengaoshlarini orasida shaxsiy namuna ko'rsatish<br>3. Oila azolariga ijobiy munosabatda bo'lish va boshalar | 1. o'zini chekkaga tortish olib qochish<br>2. O'zini yuqori baholash |

Mavzu: Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi.

Reja

1. Individ va shaxs tushunchasi
2. Shaxs rivojlanishida irsiyat, muhit va tarbiyaning tutgan o‘rni.
3. Shaxs rivojlanishining yosh va psixologik xususiyatlari

**SHaxs rivojlanishi haqida tushuncha. SHaxs** tushunchasi insonga taalluqli bo’lib, konkret kishi, ya’ni, muayyan jamiyatning a’zosini ifodalashga xizmat qiladi. Odam shaxs bo’lishi uchun psixik jihatdan rivojlanishi, o’zini yaxlit inson sifatida his etishi, o’z xususiyatlari va sifatlari bilan boshqalardan farq qilmog’i kerak.

“Individ” nima? Bola ma’lum yoshga qadar “individ” sanaladi. **Individ** lotincha “individium” so’zidan olingan bo’lib, «bo’linmas», «alohida shaxs», «yagona» ma’nolarini anglatadi.

**Individuallik** esa tarbiya jarayonini amalga oshirishda bolaning shaxsiy xususiyatlari va yashash sharoitlarini chuqur bilish hamda hisobga olishdan iborat.

Individual yondashuv o’quvchilarning aqliy qobiliyatlari, bilishga bo’lgan qiziqish hamda iste’dodini namoyon etishda muhim ahamiyatga ega.

Bola harakatlari ongli, ijtimoiy munosabatlar jarayonidagi ishtiroki natijasida shakllana boradi.

**SHaxs** – muayyan jamiyatning a’zosi bo’lib, u psixologik jihatdan taraqqiy etgan, o’z xususiyatlari va xatti-harakatlari bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kadrlar tayyorlash milliy modelida ham shaxs – kadrlar tayyorlash tizimining bosh sub’ekti va ob’ekti, ta’lim sohasidagi xizmatlarining iste’molchisi va ularni amalga oshiruvchi sifatida ta’riflanadi.

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intelektual va ma’naviy-axlohiy jihatdan tarbiyalash, uning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida namoyon bo’lishiga erishishni nazarda tutadi. Mazkur ijtimoiy talabning amalga oshirilishi har bir fuharoning bilim olish, ijodiy qobiliyatini namoyon etish, intellektual jihatdan rivojlanishi hamda muayyan kasb yo’nalishi bo’yicha mehnat qilish huquqni kafolatlaydi.

Odamning ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo’ladi. Ana shular ta’sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

*Rivojlanishning o’zi nima?*

**Rivojlanish** oddiyda murakkabga, quyidan yuqoriga, eski sifatlardan yangi holatlarga o’tish, yangilanish, yangining paydo bo’lishi, eskining yo’qolib borishi, miqdor o’zgarishining sifat o’zgarishiga o’tishini ta’minlovchi murakkab harakat jarayoni sanaladi. Rivojlanishining manbai qarama-qarashliklarni o’rtasidagi kurashdan iboratdir.

Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotdir, degan falsafiy ta’limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. Demak, uning rivojlanishida tabiat rivojlanishining qonuniyatlari ham muhim ahamiyatga ega. SHuningdek, shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta’sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo’lmaydi.

CHunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta’sir etadi.

Inson butun umri davomida o’zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo’lsa, u jamiyat a’zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o’ziga munosib o’rin egallaydi. CHunki rivojlanish tarbiya ta’siri ostida boradi.

SHaxsning fazilatlarini to’g’ri ko’rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim.

Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to’g’ri hal etish uchun uning xulqiga ta’sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur.

Tarbiya bolaga samarali ta’sir etishi uchun o’sish va rivojlanish qonuniyatlarini bilish va hisobga olish maqsadga muvofiq. SHunday qilib, rivojlanish va tarbiya o’rtasida ikki tomonlama aloqa mavjud.

**SHaxs tarbiyasiga ta’sir etuvchi omillar**. Fanda odamning shaxs sifatida rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillarning ta’siri o’rtasidagi munosabatni belgilashga oid munozara ko’pdan buyon davom etmoqda.

Insonning shaxs sifatida rivojlanishiga ijtimoiy voqealar, tabiiy omillar yoki tarbiya ta’sir etadimi? Bu uch omilning o’zaro munosabati qanday?

Fanda biologik yo’nalish deb nomlangan nuqtai nazar yetakchi o’rinlardan birini egallab, uning vakillari Aristotel, Platonlar tabiiy-biologik omillarni yuqori qo’yadi. Ular tug’ma imkoniyatlar, taqdir, tole har kimning hayotdagi o’rnini belgilab bergan, deydilar.

XVI asr falsafasida vujudga kelgan preformizm oqimi namoyandalari esa shaxs rivojlanishidagi naslning roliga katta baho berib, ijtimoiy muhit va tarbiyaning rolini inkor etadi.

Xorij psixologiyasidagi yana bir oqim – bixeviorizm XX asr boshlarida yuzaga kelgan bo'lib, uning namoyandalari, ong va aqliy qobiliyat nasldan-naslga o'tib, insonga u tabiatan berilgan, deyiladi. Mazkur ta'limot vakili amerikalik olim E.Torndaykdir.

*Progmatizm oqimi* va uning vakillari D.D'yul, A.Kombe ham shaxs rivojlanishini biologik nuqtai nazarda asoslaydilar. Ular rivojlanishni fahat miqdoriy o'zgarishdan iborat, deb qaraydilar. Naslning rolini absolyutlashtirib, uni inson taqdirida hal qiluvchi ahamiyatga ega deb biladilar.

Demak, bir guruh xorijiy olimlar rivojlanishni biologik (nasliy) omilga bog'laydilar.

Biologik oqimga qarshi falsafiy oqim vakillari rivojlanishi ijtimoiy omil omil bilan belgilaydilar. Bu oqim vakillari bola shaxsining jismoniy, psixik rivojlanishi u yashaydigan muhitga bog'liq deb ko'rsatadilar.

Muhit deganda odam yashaydigan sharoitdagi barcha tashqi ta'sir tushuniladi. SHu nuqtai nazardan tarbiya tufayli bolani o'zi yashaydigan ijtimoiy sharoitga moslashtirish mumkin, degan xulosa kelib chiqadi.

Ular ijtiomiy muhitning rolini hal qiluvchi omil deb hisoblaydilar. Demak, odam bolasining shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etib borishi, uning shaxs bo'lib kamolga yetishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (bola yashaydigan sharoit), shuningdek, maqsadga muvofiq amalga oshadigan tarbiya ham birdek ahamiyatga ega. Bu omillarning ta'sirini aniqlashda ilg'or pedagogik olimlar, psixolog va faylasuflar ta'limotiga suyaniladi.

Falsafada shaxsni jamiyat bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy hayotdagi murakkab voqelik deb qaraladi. Ular individning ma'naviy boyligi uning munosabatlariga bog'liq, deb hisoblaydilar.

Haqiqatdan ham, shaxs mehnat faoliyati zaminida rivojlanadi, kamolga yetadi. Inson sharoitni, sharoit esa odamni yaratadi. Bu esa o'z navbatida inson faolligini namoyon etadi. Zero, shaxs ma'lum ijtimoiy tuzum mahsulidir. Jamiyat shaxs kamolotining muayyan imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin.

Faylasuflar shaxsni tabiatning bir bo'lagi deb baholaydilar. Bu insondagi layoqat kurtaklari bo'lib, uning rivojlanishi uchun tarbiya kerak, degan g'oyani ifodalaydi.

Jamiyat taraqqiyoti shaxs rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Demak, shaxs bilan jamiyat o'rtasida ham uzviy aloqa mavjud.

SHunday qilib, odam shaxsining jamiyatdagi rivojlanishi tabiat, muhit, inson o'rtasidagi murakkab aloqa ta'siri ostida ro'y beradi, inson ularga faol ta'sir etadi va shu yo'l bilan hayoti va o'z tabiatini o'zgartiradi.

*SHaxsga ijtimoiy muhitning ta'siri* ham muhim. Bu tarbiya *tizimi orqali amalga oshiriladi.*

Birinchidan, tarbiya ta'sirida muhit bera olmagan bilim, ma'lumot egallanadi, mehnat va texnik faoliyat bilan bog'liq ko'nikma va malakalar hosil bo'ladi.

Ikkinchidan, tarbiya tufayli tug'ma kamchiliklar ham o'zgartirilib, shaxs kamolga yetadi.

Uchinchidan, tarbiya yordamida muhitning salbiy ta'sirini ham yo'qotish mumkin.

To'rtinchidan, tarbiya kelajakka qaratilgan maqsadni belgilaydi.

Demak birinchi prezident I.A.Karmimovning quyidagi so'zlarini keltirishni joiz bilamiz «…yurtimizning ertangi kuni, taraqqiyoti uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir bo'lgan yetuk mutaxassis yoshlarimiz …».

SHunday ekan, yoshlarni tarbiyalab rivojlantirish bir-biriga ta'sir etadigan bu tarbiya tamoyilidir.

Bola shaxsining rivojlanishida tarbiya ham yetakchi o'ringa ega bo'lib, tarbiya tufayli nasl-nasabi, oila muhiti, ijtimoiy muhit ta'sirida har tomonlama rivojlanishga qodir, degan xulosani chiqarish mumkin.

**SHaxs rivojlanishida faoliyatnig o'rni.** SHaxs rivojlanishida irsiyat, muhit, tarbiya bilan bir qatorda inson faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu degani inson qanchalik mehnat qilsa, uning rivojlanishi shunchalik yuqori bo'ladi.

*Faoliyat o'zi nima?* **Faoliyat** inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy hayotni maqsadga muvofiq o'zgartirishga yo'naltirilgan ijtimoiy-tarixiy turmushning o'ziga xos shaklidir. Insonning qobiliyati va yoshi u tomonidan tashkil etilayotgan faoliyat mohiyatiga ko'ra belgilanadi.

Faoliyat jarayonida inson shaxsi, har tomonlama va bir butun, yaxlit holda rivojlanadi. Lekin faoliyatni maqsadga muvofiq amalga oshirishi uchun uni to'g'ri tashkil etish lozim. Lekin ko'p holatlarda shaxsning rivojlanishi uchun imkoniyatlar yaratilmaydi, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy mehnat, bilish faoliyatlari cheklangan bo'ladi.

O'smir va o'spirinlar faoliyatining asosiy turlariga o'yin, o'qish va mehnat kiradi. Ular yo'nalishiga ko'ra bilishga doir, ijtimoiy, sport, badiiy, texnik, hunarmandchilik hamda shaxsiy qiziqishga ko'ra tanlangan sohalardan iborat. Faoliyatning asosiy turi – muloqotdir.

Faoliyat faol va passiv bo'lishi mumkin. O'smir faoliyati muhit va tarbiya ta'sirida faollashishi yoki susayishi mumkin. Inson shaxsining rivojlanishida uning butun vujudi bilan sevib, o'z imkoniyatlarini namoyon etib, mehnat qilish, o'zini shaxs sifatida ko'rsata olishi unda o'z faoliyatidan qoniqish hosil qiladi. Uning ijtimoiy mehnatdagi ishtirokida faollik ko'zga tashlanadi**.**

Ta'lim jarayonida faollik o'quvchiga bilimlarni chuqur va mustahkam egallashga, o'z qobiliyatini namoyon etishga yo'llaydi. Bilishga bo'lgan faollik o'quvchining intellektual rivojlanishini ta'minlaydi.

Faollik ko'rsatishning asosini esa hamma vaqt ehtiyoj tashkil etadi. Ehtiyojlarning xilma-xilligi faoliyatining ham turlarini kengaytiradi. SHunga ko'ra, o'quvchining turli yosh davrlarida ularning faoliyati turlicha bo'ladi. Ta'lim muassasasida hamma vaqt bir xil talab shaxs rivojlanishida ijobiy natija beravermaydi. Turli yosh davrlarida faoliyatning turlari va mohiyati o'zgarib turishi kerak.

Insonning ijtimoiy faolligi, qobiliyati barcha muvaffaqiyatlarining garovidir. CHunki har bir inson o'z mehnati, g'ayrati, intilishi bilangina faollashadi. O'qituvchi qanchalik yaxshi o'qitmasin yoki tarbiya bermasin, tarbiyalanuvchining o'zi harakat qilmasa, rivojlanish muvaffaqiyatli kechmaydi. Zero, barcha ma'naviy-axlohiy kamchiliklarning asosiy sababi ham insonning o'z faoliyatini to'g'ri yo'lga qo'ymaganligidadir.

SHuning uchun ham inson faoliyati uning rivojlanishi natijasi hamdir. Demak, shaxs faolligi asosida ijtimoiy faollik, tashabbuskorlik, ijodkorlik xislatlarini shakllantirish – uning shaxslik imkoniyatlarini namoyon etishi orqali faoliyatini rivojlantirish muhim sanaladi.

**Rivojlanishning yosh va o'ziga xos xususiyatlari.** Ma'lum bir yosh davriga xos bo'lgan anatomik, fiziologik (jismoniy) va psixologik xususiyatlari yosh xususiyatlari deb ataladi. Ana shu yosh xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lim va tarbiya ishi tashkil etiladi. SHunda bola rivojlanishiga tarbiya ta'siri kuchli bo'ladi.

Bolalarning tarbiyasiga to'g'ri yondashish, uni muvaffaqiyatli o'qitish uchun bola rivojlanishidagi turli yoshdagi davrlariga xos xususiyatlarni bilish va uni hisobga olish muhimdir. CHunki bola orginizmining o'sishi ham, rivojlanishi ham, psixik taraqqiy etishi ham turli yosh davrlarida turlicha bo'ladi. Abu Ali Ibn Sino, YAn Amos Komenskiy, K.D.Ushinskiy, Abdulla Avloniylar ham bolani tarbiyalash zarurligini uqtirib o'tganlar.

Bolaning o'ziga xos xususiyatini hisobga olish juda murakkab. CHunki bir xil yoshdagi bolalar ham psixik jihatdan turlicha bo'lishi mumkin.

Masalan, ko'rish va eshitish qobiliyati, faolligi, tez anglash, sust fikr yuritishi, hovliqma yoki vazminligi, sergap yoki kamgapligi, serg'ayrat yoki

g'ayratsizligi, yalqov yoki tirishqoqligi, pala-partish va chala ishlaydigan, yig'inchoqligi yoki ishga tez kirishib ketishi, qobiliyati kabilar nerv faoliyati tizimining ta'siri bo'lib, o'qituvchi yoki tarbiyachi ularni bilishi zarur.

Bolaning individual – o'ziga xos xususiyatini bilish uchun temperamentning umumiy tiplari va bolaning o'ziga xos xususiyatini o'rganish metodikasini bilish muhim.

SHuningdek, turli yosh davrlarining o'ziga xos rivojlanish qonuniyatlari ham mavjud. Masalan, 5-sinf o'quvchilari bilan 10-sinf o'quvchisini tenglashtirib bo'lmaydi. SHuning uchun bolaning jismoniy va psixik kamoloti quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Go'daklik davri – chaqaloqlik (1 oy) davri tugagandan to bir yoshgacha bo'lgan davr.

2. Bog'chagacha bo'lgan yosh davri – 1 yoshdan 3 yoshgacha.

3. Maktabgacha ta'lim yoshi – 3 yoshdan 7 yoshgacha.

4. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilar –7-11-12 yoshgacha.

5. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar (o'smirlar) 14-15 yosh.

6. Katta yoshdagi maktab o'quvchilari (o'spirinlar) – 16-18 yosh.

Zero, O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»da ham ta'kidlab o'tilganidek, uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish tamoyillari ta'limning ijtimoiylashuviga erishish dolzarb masaladir. Ta'lim oluvchilarda estetik boy dunyoqarashni shakllantirish, ularda yuksak ma'naviyat, madaniyat va ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish kabilar muhim ijtimoiy talablar hisoblanadi.

Ijtimoiylashuv uzoq davom etadigan murakkab jarayon. CHunki har qanday jamiyat rivojlanish jarayonida ijtimoiy va axloqiy qadriyatlar, ideallr, axloqiy me'yorlar va qoidalar tizimini ishlab chiqadi, har bir bola yuqoridagi qoidalarni qabul qilib, o'rganib mazkur jamiyatda yashash, uning a'zosi bo'lish imkoniyatiga ega bo'ladi. Buning uchun jamiyat u yoki bu shaklda shaxsga maqsadga muvofiq ta'sir etadi. Bu ta'sir ta'lim vositasida amalga oshadi. Ikkinchi tomondan, shaxsning shakllanishiga turli g'oyalar, ijtimoiy muhit ta'sir ko'rsatadi.

Ijtimoiylashuv jarayoni ichki qarama-qarshiliklarga ega. Ijtimoiylashgan inson jamiyat talablariga mos kelishi, unga «kirishib» ketishi, jamiyat rivojlanishidagi salbiy jihatlarga, shaxsning individual rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi hayotiy holatlarga qarshi turishi kerak. Lekin hayotda ba'zan aksi ham bo'ladi: to'liq ijtimoiylashgan, jamiyatga kirishib ketadigan, ammo muhitda

ba'zi salbiy holatlarga qarshi kurashishda faollik ko'rsatmaydigan odamlar ham mavjud.

Bu holat ko'p jihatdan butun jamiyat, tarbiya muassasalari, o'qituvchilar hamda ota-onalarga ham taalluqli. Tarbiyada qarama-qarshilik insonparvarlik g'oyasi yordamidagina bartaraf etilishi mumkin.

1.3.2. jadval

| **Yakka tartibdagi o'quvchi bilan olib borilgan dars jarayoni va uning tahlilida muloqot tizimining namoyon bo'lishi** | | | |
|---|---|---|---|
| **Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi** | | | |
| **O'qituvchi** | **O'quvchi** | **Darsdan oldingi vaqtdagi** | |
| | | **Ijobiy tamoni** | **Salbiy tamoni** |
| Shaxs deganda nimani tushunasiz | Shaxs bu muayyan ahamiyatga ega bo'lgan va fikrlay oladigan individ | Tushunchasi mavjud | Ilmiy tamondan asoslab bera olmayapti |
| Shaxs shakillanishiga ta'sir etuvchi omillar deganda nimalar ko'z oldingizga keladi | Atrof olam, o'qish, mehnat , ijtimoiy aloqalar | Analiz eta olishi yaxshi | Faqatgina bitta omilni tushuntira olmoqda |
| Tarbiyani qachondan boshlamoq kerak | Tarbiyani ona homladorlik davridan boshlamoq kerak | Aniq tushunchaga va tasavvurga ega | |
| Har tamonlama tarbiyalash deganda nimani tushunasiz | Bolaning barkamol shaxs sifatida shakillanishi, yetuk bo'lishi | Umumiy tushunchaga ega | Analiz va sintez jarayoni biroz qiyinchilik mavjud |
| Ijtimoiylashuv deganda nimani tushunasiz | Ijtimoiy muhit bilan aloqa o'rnata olishi, hamkorlikdagi ishlashi | Tushuncha mavjud | Ishonch mavjud ems |
| **Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi** | | | |
| **O'qituvchi** | **O'quvchi** | **darsdan keying holatda** | |
| | | **Ijobiy** | **Salbiy** |
| Shaxs deganda nimani tushunasiz | Shaxs bu ijtimoiy jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lgan | Aniq tushuncha bera olayapti | Ijodiy fikrlashida qiyinchilik |

| | | | |
|---|---|---|---|
| | va ijtimoiy jamiyatga foydasi tegadigan va foydalana oladigan individ | | mavjud |
| Shaxs shakillanishiga ta’sir etuvchi omillar deganda nimalar ko‘z oldingizga keladi | Biologik omil, ijtimoiy muhit, ta’llim-tarbiya va shaxs faolligi | Tushuntirib bera olishi va izohlashi ilmiy asoslangan holda bayon etmoqda | |
| Tarbiyani qachondan boshlamoq kerak | Tarbiyani ona homladorlik davridan boshlamoq kerak | Tushuntirib bera olmoqda aniq tasavvurga ega | Mexanik xotira mavjud |
| Barkamol shaxs etib yetishtirish deganda nimalarni tushunasiz | Shaxsning, biogenetik,tarbiyaviy va ruhiy tamondan barkamolikka erishish | | |
| Amaliy faoliyatga moslashish degandagi tushunchangizni ayting | Amaldagi ijtimoiy muhit bilan aloqador bo‘lish va muloqatga kirisha olish layoqatining shakillanishi | Kryativ tushunchalar olish layoqati o‘rta. Analiz va sintez qila olish darajasi yaxshi | |
| Umumiy tushunchalar shuni ko‘rsatadiki talabada darsdan oldingi holatda fikrlash, aniq xulosaga kelish va ilmiylik darajalarida biroz oqsash holatlari mavjud<br>Mashg‘ulotdan keyin o‘zlashtirish qobiliyati yaxshi rivojlangan bu jarayonda mexanik tushunish darajasi va ijodiy fikrlashda yuksalish kutilmoqda | | | |

| **Ikki kishilik tartibdagi o‘quvchilar bilan olib borilgan dars jarayoni va uning tahlilida muloqot tizimining namoyon bo‘lishi** | | | | |
|---|---|---|---|---|
| **Shaxsning rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi** | | | | |
| **O‘qituvchi** | **O‘quvchilar** | **Darsdan oldingi vaqtdagi** | | |
| | | **Hamkorlikdagi javoblari** | | **Qo‘shimcha savollarning paydo bo‘lishi** |
| | | **Ijobiy tamoni** | **Salbiy tamoni** | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| Shaxs deganda nimani tushunasiz | Shaxs bu muayyan ahamiyatga ega bo‘lgan va fikrlay oladigan individ | Umumiy fikrlarga ega bo‘lishi va bir birini qo‘llab quvvatlash mavjud | Bir biriga tayanib qolish holatlari mavjud | Yo‘q |
| Shaxs shakillanishiga ta’sir etuvchi omillar deganda nimalar ko‘z oldingizga keladi | Atrof olam, o‘qish, mehnat, ta’lim tarbiya va ijtimoiy muhit, ehtiyoj va hohishlarning paydo bo‘lishi va qondirilishi | Yangi fikrlarning paydo bo‘lishi va fikr almashish holatlari ijobiy | Ishonchning pastligi | Yo‘q |
| Tarbiyani qachondan boshlamoq kerak | Tarbiyani ona homladorlik davridan boshlamoq kerak. Tarbiya uzluksiz va muntazzam nazoratda bo‘lishi lozim | Hamkorlikda ijodiy fikrlashi mavjud | Yo‘q | Yo‘q |
| Har tamonlama tarbiyalash deganda nimani tushunasiz | Bolaning barkamol shaxs sifatida shakillanishi, yetuk bo‘lishi | Umumiy tushunchaga ega | Ilmiy asoslab bera olmadi | Barkamollik tarbiyalanganli emasmi |
| Ijtimoiylashuv deganda nimani tushunasiz | Ijtimoiy muhit bilan aloqa o‘rnata olishi, hamkorlikdag | Yangi fikrlarning qo‘shilishi va baxs munozara shakilida | Yo‘q | Ijtimoiylashuvda hududiy jaylashuv ham ro‘l o‘ynaydimi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | i ishlashi va bir biriga nisbatan ehtiyojlarning mavjudligi va ta’limni zamon talabiga xos tarzda tashkil etilishi | paydo bo‘lgan g‘oyalar | | |
| **Ikki kishilik tartibdagi o‘quvchilar bilan olib borilgan dars jarayoni va uning tahlilida muloqot tizimining namoyon bo‘lishi** | | | | |
| **Shaxsning  rivojlanishi, tarbiyasi va ijtimoiylashuvi** | | | | |
| **O‘qituvchi** | **O‘quvchilar** | **Darsdan keyingi vaqtdagi** | | **Qo‘shimcha savollarning paydo bo‘lishi** |
| | | **Ijobiy tamoni** | **Salbiy tamoni** | |
| Shaxs deganda nimani tushunasiz | Shaxs bu ijtimoiy jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘lgan va ijtimoiy jamiyatga foydasi tegadigan va foydalana oladigan individ va mustaqil fikrlash qobiliyatiga ega bo‘lgan | Ilmiy tushunchalar bilan birgalikda ijodiy fikrlar ham tashkil topgan. O‘zaro fikr almashinishi ijobiy shakillangan | Yo‘q | Shaxsning shakillanishi yosh davrlar xususiyatiga ham bog‘liqmi |
| Shaxs shakillanishiga ta’sir etuvchi omillar deganda nimalar ko‘z | Biologik omil, ijtimoiy muhit bunda sanat,kino,oila do‘stlar avrasi, individual | Jamoviy fikrlashish mabaynida inavatsion g‘oyalar sodir bo‘lishi hodisasi | Yo‘q | Shaxsning shakillanishida intelektni hisobga olsak bo‘ladimi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| oldingizga keladi | zaruriyat bilan birga frontal zaruriyatni ham inobatga olish, ta’llim-tarbiya va shaxs faolligi | takomillashgan. Shaxsiy ehtiyojlarning umumiy ehtiyojlarga aylanish jarayoni kuzatildi | | |
| Tarbiyani qachondan boshlamoq kerak va qanday amalga oshirmoq kerak | Tarbiyani ona homladorlik davridan boshlamoq kerak. Tarbiya uzluksiz va muntazzam nazoratda bo‘lishi lozim | Har ikkala o‘quvchining yakdil fikrga asoslangan javobi kutildi | Ikkinchi savolga nisbatan ilmiy tushunchalar yetishmadi | Tarbiyaning tasirchang va ta’siri kam bo‘lgan usulllari mavjudmi |
| Har tamonlama tarbiyalash deganda nimani tushunasiz | Bolaning fizologik, pedagogik va psixologik jihatdan yetuklikka erishishi | O‘zaro aloqa o‘rnatish jarayonida yakdil ilmiy xulosaga kela olishi yuzaga keldi. Amaliy misollar keltira oldi | Yo‘q | Yo‘q |
| Ijtimoiylashuv deganda nimani tushunasiz | Ijtimoiylashuv bu jamiyat va davllat talablariga to‘laqonli javob berish darajasiga ega bo‘lish | O‘zaro mulohaza jarayonida kryativ fikrlash qobiliyati shakillandi | Yo‘q | Yo‘q |
| Umumiy xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, darsdan oldingi vaqtda o‘tkazilgan ikki talabada yagona to‘xtamning mavjud emasligini va bu jarayonda har ikkala talaba ham o‘zining fikrida qolish hlatini ko‘rishimiz mumkin. | | | | |

Darsdan keyingi jarayonda birgalikda ishlash va fikr almashinish holatlarini ko‘rishimiz mumkin bu jarayonda ham talabalarda savollarga javob berish bilan bir qatorda ijodiy, kryativ yondashuv holatlari kuzatilib savolga nisbatan qo‘shimcha savollarning paydo bo‘lishi kuzatildi.

**Savollarga javob bering**:

1. Instinktiv harakat haqida tushuncha bering
2. Shaxs shakillanishiga ta’sir etuvchi omillar
3. Ijtimoiy muhit haqida tushuncha bering
4. Yosh davrlar psixologiyasi haqida tushuncha bering
5. Shaxs rivojlanishi haqida shar mutafakkirlarning fikrlari
6. Shaxs rivojlanishi haqida chet el olimlarining fikrlari

Talabalarga tavsiya etiladigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibragimov X.I., Abdullaeva Sh.A. Pedagogika nazariyasi. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2008.

2. Xasanboev J, To‘rakulov X, Xaydarov M., Hasanboeva O. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – T.: Fan va texnologiya, 2008.

3. Kaldibekova A.S. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliètidan laboratoriya mashg‘ulotlari. – T.: “Fan va texnologiya” nashrièti, 2013.

Elektron ta’lim resurslari

1. www. Tdpu. Uz
2. www. Pedagog. Uz
3. www. Ziyonet. Uz

Yuqorida keltirilgan mashg‘ulot xaritasidan ko‘rinadiki, talabaning har bir fan, mavzu, voqea-hodisa yuzasidan o‘z mustaqil fikrining mavjudlik holati bilan uning kompetensiyasi ham belgilanadi.

1. Fikrlarini bayon qilishi – 0.4 ball (0.40%)
2. Fikrlarini asoslashi -0.6 ball (0.60%)

Talabaning mustaqil fikrlash kompetensiyasini belgilaydigan asosiy parametrni quyidagi uch tarkibga ajratdik:

1. Vaziyatni, muammoning yechimini topish yo‘lini to‘g‘ri belgilashi – 0.4 ball (40%)

2. Qarorni qabul qilishi -0.3 ball (30%)

3. To‘g‘ri yechim -0.5 (50%).

Dastlabki mashg‘ulot bosqichlarida 7 % talaba a’lo baho olgan bo‘lsa, oxirgi bosqichda 15 % talaba a’lo baho oldi, tajriba-sinov guruhlarida esa dastlabki bosqichda 5 % talaba a’lo baho olgan bo‘lsa, oxirgi bosqichda 27 % talaba a’lo baho olishga muyassar bo‘ldi. Yaxshi baho olgan talabalar soni nazorat guruhlarida dastlabki bosqichda 25 % bo‘lgan bo‘lsa, oxirgi bosqichda bu ko‘rsatkich 26,8 % talabalar dastlabki bosqichda yaxshi baho olishgan edi, oxirgi bosqichda 56,7 % talabalar yaxshi baho olishdi. Qoniqarli baho olgan talabalar soni nazorat guruhlarida 50 % dan 35 % ga kamaydi, tajriba-sinov guruhlarida esa bu ko‘rsatkich 47,5 % dan 15,5 % ga kamaydi;

Qoniqarsiz baho olgan talabalar soni nazorat guruhlarida 18 % dan 12 % ga, tajriba-sinov guruhlarida esa dastlab 20,5 % bo‘lgan bo‘lsa oxiriga kelib bunday talabalar qolmadi.

Tajriba-sinov ishlarida olingan natijalarni ishlab chiqishda nazorat va tajriba-sinov guruhlaridagi talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘rsatkichlarining tasodifiy yoki tasodifiy emasligini aniqlash lozim bo‘ldi. Shu sababli biz mazkur ishlarni davom ettirish uchun Tajriba dasturini ishlab chiqdik. Shunday qilib, talabalar kommunikativ qobiliyatlarini aniqlashning yuqorida qayd etilgan mezonlari o‘qituvchilar faoliyatini rejalashtirish, talabalarni mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi jarayonni tashkillashning muhim jihatlarini ifodalaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida faoliyat ko‘rsatish ham shaxsning ijtimoiylashuviga ta’sir etuvchi mahsuldor sabablar bilan mustahkam bog‘liq. “Qobiliyat o‘zligicha takomillasha olmaydi, u go‘yo «mudroq holat»da bo‘lib, uning jonlanishi-takomillashuvi yaxshi sharoit hodisa kerak. Ijtimoiylashuv deganda shaxsga ta’sir o‘tkaza oladigan ijtimoiy voqelikning jamlanmasini tushuniladi”.

Ijtimoiy tarbiyaviy sohada tatqiqotlar olib borgan olima V.K.Lisenkova [175] shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida aloqadorlik muhitini tashkillashtirishda tarbiyaviy hodisaning strukturaviy tuzulishi sifatida quyidagilarni keltiradi:

1. Insonparvarlikka asoslangan demokratik yondashuvlar.
2. O'zaro ishchan muloqotga asoslangan dialog muhiti.
3. Ishchan pedagogik muhit.

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalar asosida o'quv jarayonini tashkil etishda quyidagilar muhim ahamiyatga ega. Ular: interaktiv usullardan foydalanish, talabalarga axborotlarni jadal tarzda taqdim qilish, muammoli vaziyatlarni vujudga keltirish, izlanuvchanlikka asoslangan ijodiy muhit yaratish, dialogdan samarali foydalanish, talabalarni turli didaktik o'yinlarga jalb qilish kabilar [29. 176].

Shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni tashkil etish prinsiplari o'ziga xos jihatlarga ega. Bunday o'ziga xosliklar sirasiga:

1. Talabalarni faollashtiruvchi, rivojlantiruvchi didaktik majmualarga ega bo'lish. Mavjud didaktik majmualardan o'quv-biluv jarayonida keng foydalaniladi. Ushbu majmualar bilan ishlash talabalarga quvonch bag'ishlashi, shaxslarda ijtimoiy moslashish va tajribalarni shakillantirishga yordam berishi, tahsil oluvchilarga dars qo'llanmalaridan erkin tanlash asosida foydalanish holatining berilishi, dars qo'llanmalari tahsil oluvchilarning zaruriyatlari hisobga olinishi kerak.

2. Talabalar shaxsiga nisbatan insoniy yondashuvni ta'minlash. Bunda talabalar bilan demokratik munosabatlarni o'rnatish, shaxslararo do'stona munosabatlarni o'rnatishning muhim tamoyili bo'lib, bunday munosabat o'quv-biluv jarayoni samaradorligini ta'minlaydi. Bunday munosabat zamirida har bir talabani mustaqil shaxs sifatida tan olish, o'quvchilarning shaxsini xurmat qilish, hissiyotlarini inobatga olish va tushunish, o'quvchilarning tanlovlarini hisobga olish va ishonchlilikni namoyon qilish, tahsil oluvchilarning erkin holatini taminlanishi, faollar bilan passiv darajadagi o'zlashtiruvchi

o‘quvchilarning huquqiy holatlarini tenglashtirish, talabalarning o‘z-o‘zlariga ko‘makdosh bo‘lishlarini ta’minlash imkoniyati vujudga kelishi lozim.

3. Insonparvarlikka asoslangan hamjihatlik muhitini qaror toptirish. Insonparvar, demokratik, jamoaviy hamkorlik jarayonida talabalarda mustahkam tushuncha, moslashish va tajribalarni yuzaga chiqarish, ularga nisbatan muruvvat va oqibatlilik, vafodorlik bilan aloqada kirishish, talabalarni ijobiy harakatlarga ruhiy holatini ko‘tarish aloqa o‘rnarish, o‘zaro nuloqat va nutqda tarbiyaviy mahorat ko‘rsatish, tahsil oluvchilar o‘rtasida ijobiy holatni shakillantirish, ularning kamchiliklariga nisbatan bag‘rikenglik bilan bardoshli munosabatda bo‘lish lozim.

Pedagogik ijodkorlik – o‘qituvchiga xos xususiyat bo‘lishi kerak. Uning o‘ziga xos xususiyatlari yaxlit tarzda tarixiy, milliy, tabiiy, axloqiy omillarga bog‘liq. Ijodkorlik o‘zbek xalqining milliy xususiyati sifatida e’tirof etiladi. Ushbu nuqtai nazarga tayangan holda biz ta’limni yangicha insoniy mohiyatga ega bo‘lgan jarayon sifatida talqin qilamiz. Bunda birinchi va ikkinchi darajaga ega bo‘lgan pedagogik hodisalar haqida fikr yuritish o‘rinlidir.

Mavjud pedagogik texnologiyalar asosida o‘quv materiallarini modellashtirish ta’lim jarayoniga qo‘yilgan maqsadga erishishning ma’lum bir yo‘lidir.

Modellashtirish texnologiyasi bosqichlari quyidagi izchillikda olib boriladi:

1.3.3. jadval

| | Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasining bosqichlari | Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyaning bosqichlarida amalga oshiriladigan ishlar | Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya natijalari | |
|---|---|---|---|---|
| | | 1.Pedagogik voqelikni tasavvur | Modellashtirish | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | **I** | etish.<br>2.Texnologiyaning dars jarayonidagi o‘rnini baholash | texnologiyasining amaldagi tasavvurlari | |
| | **II** | 3.Tasavvurdagi modellashtirish texnologiyasini asoslashga o‘tish<br>4.Kamchiliklarni bartaraf etish | Modellashtirish texnologiyasining modeli | |
| | **III** | 5. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyani voqelik bilan taqqoslash.<br>6. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya-sining nazariy modeliga tayyorgarlik | Modellashtirish texnologiyasini ongda hosil qilish | |
| | **IV** | 7. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiya-sini boshqa fanlar bilan tavsiflash<br>8.Uni pedagogik voqelik jihatidan baholash | Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasining nazariy modelini yaratish | |
| | **V** | 9.Pedagogik voqelikdan real jarayonga o‘tish<br>10.Modellashtirish texnologiya-sining tamoyillarini shakllantirishga tayyorgarlik | Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasining real jarayonini aniqlash | |
| | **VI** | 11.Modellashtirish texnologiya-sining tamoyillarini aniqlash<br>12.Texnologiyani modellashtirishga tayyorgarlik | Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasining tamoyillari tavsifi | |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | | | |
| | **VII** | 13. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasini tayyorlash<br>14.Tayyorlangan modellashtirish texnologiyani voqelik jihatdan baholash | Modellashtirish texnologiyasi | |
| | **VIII** | 15.Modellashtirish texnolo-giyasini tajriba-sinovdan o‘tkazish | Samaradorlikni monitoring qilish | |

## BIRINChI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda bu jarayonning samaradorligini ta’minlovchi yangi dunyoqarashdagi o‘qituvchi shaxsini tayyorlash, ushbu hodisada pedagogning mavqeyi va jarayon mazmunini tushunib yetish masalalari o‘z yechimini kutayotgan dolzarb muammolar sirasiga kirishi ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar tahlili natijasida aniqlandi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish usuli faqatgina bilimlar, axborotlarni o‘zaro ayiraboshlash, tabiiy holatlarni bashorat qilish, ma’rifat tarqatish hamda taqdim etish imkoniyati emas to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot vaziyatidir.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari vositasida talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda pedagog tashkilotchi sifatida, talabani dars faoliyatiga tayyorlash uchun ta’limiy tushunchalar bilan taminlay olish ehtiyoji tahlillarimiz natijasida ma’lum bo‘ldi. Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ layoqatlarini takomillashtirishning pedagogik holatini aniqlash uchun bu sohada mavjud bo‘lgan yondashuvlar, bilimlar, qarashlar, ta’limotlarni to‘plash, tasnif qilish va

uni o‘qituvchi faoliyatiga joriy etish maqsadida tegishli ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish zaruriyatining mavjudligi ayon bo‘ldi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish borasida dunyo va respublikamizda olib borilayotgan tadqiqotlar ko‘rsatishicha, bugungi kunda o‘qituvchi bilan talaba hamkorligini tashkil etish, pedagogik jarayonni boshqarish, pedagogik jarayondagi nomuntazam hodisalarni o‘rganish, dunyoni yangicha izohlash masalalarini sinergetika doirasida tadqiq etish, ta’lim mazmunini umumevropa xalqaro standartlari asosida tashkil etish, mutaxassislarning umummadaniy, maxsus, kasbiy va shaxsiy kompetentligini rivojlantirishga qaratilgan masalalar doirasida o‘rganish zarurati mavjud.

# II BOB. TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISHDA ShAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISH TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISHNING PEDOGOGIK SHART SHAROITLARI

## 2.1-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini tadbiq etishning respublika OTMlaridagi mavjud holati.

Bugungi kunda ijtimoiy – iqtisodiy, ma’naviy – siyosiy islohotlar hayotimizga tobora chuqurroq kirib borayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz. Bu o‘zgarishlar respublikamiz taraqqiyotida uzluksiz ustuvor yo‘nalish sanalgan ta’lim tizimida ham qaror topmoqda.

Hurmatli Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev 2019 yilning 26 dekabr kuni qo‘shma majlisda so‘zlagan nutqlarida mamlakatimiz aholisining yuksak ijtimoiy-siyosiy madaniyatini, uning siyosiy va fuqarolik ong darajasi tobora o‘sib borayotganligini, saylovchilar mamlakatni isloh etish va modernizatsiya qilish jarayonlarini chuqurlashtirish yo‘lidan izchil ilgarilib borayotganimizni keng qo‘llab-quvvatlayotganini namoyish etganligini alohida ta’kidlab o‘tdilar. Shunday ekan, ta’lim tizimidagi modernizatsiyalash jarayonini, boshqa sohalar singari, intensivlashtirish zarurati paydo bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, ta’lim tizimidagi eng muhim vazifalardan biri - uni milliy pedagogik an’analarimiz bilan boyitish, chet el pedagogikasidagi ilg‘or jihatlarni o‘zlashtirish, yangi samarali o‘quv predmetlarini ta’lim tarkibiga kiritish va h.k. hisoblanadi

Ta’lim - tarbiyada samarali islohotlarni amalga oshirish talab etilayotgan hozirgi davrda ilmiy texnika taraqqiyoti, yangi texnologik rivojlanish sharoitida muvaffaqiyatli yo‘naltirishda davlat xizmatini hamda ta’limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo‘l ochish, ilg‘or tajribalarni o‘rganish ayni muddaodir.

R.Safarova [124,125,126], O.A.Abdullina [22,23], L.I. Bojovich [47], V.S. Ilin [66], Ye.A.Kryukova [78], A.N.Leontev [84], N.V.Kuzmina [76], L.M.Mitina [102] larning ishlarida mazkur yondashuv o‘z ifodasini topgan.

Zamonaviy auditoriya mashg‘ulotlarida shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarini tatbiq etish tamoyillari, mexanizmlari o‘ta murakkab, ko‘p hadli pedagogik jarayonda amalga oshadi.

Mamlakatimizning ijtimoiy – iqtisodiy, madaniy va siyosiy taraqqiyoti avvalo yoshlarimizning say – harakatlariga bog‘liqdir.

bularning barchasi bugungi kun yoshlarini tarbiyalashda muhim hisoblanadi.

Har bir jamiyatda ham pedagog, o‘qituvchi, tarbiyachilarga yoshlar murabbiysi sifatida katta hurmat bilan qarab kelingan. Ayniqsa, bizning mustaqil yurtimizda o‘qituvchiga hurmat-e’tibor va unga quyilgan mas’uliyat ham nihoyatda oshib bormoqda.

O‘qituvchi shunday yetakchilik xususiyatiga ega bo‘lgan, ma’naviyati yuksak shaxs bo‘lishi va shunday shaxsni tarbiyalashi lozim. Shaxsning ma’naviy olami yuqori bo‘lsa, tabiiy ravishda bu uning amaliy faoliyatida ham o‘z ifodasini topadi, uning g‘oyalari jamiyatga singadi.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etishning pedogogik shart sharoitlari o‘rganilganda, respublikamizning oliy ta’lim muassasalari “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishida samarali texnologiyalarni amaliyotga qo‘llanilayotganligi aniqlandi. Biroq, bugungi kunda OTM larda tadqiqot doirasida bir qator muammolar ham o‘z yechimini kutayotgan masalalar sirasiga kiradi. Bular:1) umumiy maqsad va vazifalar taqsimoti (Bugungi kunda bakalavriat talim yo‘nalishida asosiy o‘quv hajmi **9288** soat etib belgilangan bo‘lib, shulardan **4128** soati (44,5%) sof auditoriya soatlari hisoblanadi. Pedagogikaga oid fanlar uchun o‘rtacha 250-**350** soat (turli fakultetlarda turlicha) ajratilgan bo‘lib, shundan 200-300 soati auditoriya, o‘rtacha **90** soati mustaqil ta’lim hisoblanadi. Bundan tashqari o‘rtacha **144** soat pedagogik amaliyot belgilangan. Pedagogika fani tarmoqlariga ajratilgan o‘quv soatlari turli yo‘nalishlarda turlicha bo‘lib, mazkur belgilangan o‘quv xajmlari hech bir jihatdan (ilmiy, amaliy) asoslanmagan. Mazkur holatda ixtisoslik

fanlarini o‘qitishdan ortib qolgan soatlarni teng taqsimlanganligiga e’tibor qaratilib, talabalarni pedagogik faoliyatga tayyorlash va bunda bo‘lajak mutaxassislarning kommunikativlik qobiliyatlarini rivojlantirish masalasiga alohida ahamiyat berilmagan, o‘quv yuklamalarini belgilash davridayoq pedagogik tayyorlashga nisbatan o‘ta past nazar va mas’uliyatsizlik bilan qarab kelinmoqda; 2) “Fanni o‘qitish metodikasi” pedagogika fanining maxsus tarmog‘i hisoblanishiga qaramay, uni o‘qitishda yo‘nalish bo‘yicha mutaxassisni jalb etishga katta ahamiyat qaratgan holda, pedagogik ilmiy daraja yoki ta’lim muassasalarini metodik ta’minlash malakasiga ega bo‘lganlikka ahamiyat qaratilmasligi kuzatilmoqda. Talabalarning kommunikativlik texnikasini rivojlantirish sifatini takomillashtirish zarurati mavjud; 3) Universitetlarda pedagogika faniga oid o‘quv modullari bo‘yicha mashg‘ulot o‘tkazilgan bitiruvchilar sonining o‘rtacha 90 **%** umumta’lim fanlarini o‘qitish uchun maktablar, kollejlar va akademik litseylarda mehnat faoliyatini olib borayotganliklaridan kelib chiqib, o‘rtacha **60 %** bitiruvchilarning o‘qish davrida pedagogik amaliyot mobaynida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yetarlicha e’tibor qaratilmayapti; 4) “Umumiy pedagogika”ning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarni zamonaviy pedagogika fani nazariy-tarixiy asoslari va o‘qituvchi mahoratiga doir bilimlar bilan qurollantirishdan iborat, “Fanni o‘qitish metodikasi”da asosan o‘qitish uslublarining nazariy asoslari va o‘quv eksperimentlari turlari va uning vazifalari, masala va misollar yechish uslublarini o‘rgatish nazarda tutilgan. Biroq, ushbu o‘quv modullari o‘zaro integratsiyalashtirilmaganligi, o‘quv mazmunining izchillashtirilmaganligi “Umumiy pedagogika”ga Pedagogika kafedrasi, “O‘qitish metodikasi”ga ixtisoslik bo‘yicha tegishli kafedra mas’ul bo‘lganligi sababli bu ikki tarmoq o‘zaro muvofiqlashtirilmagan) natijasida, bitiruvchilarning pedagogik ishga tayyorlanganligiga qo‘yiladigan fundamental talablar (dars berish mahorati; kommunikativlik qobiliyatini rivojlantirish; tarbiyalash mahorati; o‘quv-tarbiya jarayonida gumanitar omilni ta’minlaydigan shaxsiy sifatlar; ta’lim olayotganlarning bilimlarini xolisona nazorat qilish va baholash mahorati) va

ta’lim turiga ko‘ra alohida talablarga to‘liq javob berishi ta’minlanmay qolmoqda. “Pedagogik amaliyot” mazmuni esa ushbu fanlarning mantiqiy davomi sifatida shakllantirilmay qolmoqda.

Shu sababli, o‘qitishda ilg‘or ta’lim texnologiyalarini qo‘llash,video darslar, masofaviy ta’lim elementlarini qo‘llash, elektron resurslarni ishlab chiqish, pedagogik faoliyatga oid ma’lumotlar bazalarini tuzish, o‘zaro pedagogik muloqotning zamonaviy turlari va shakllaridan foydalanishni tizimlashtirish kerak. Talabada pedagogik mahoratni baholash uchun juda ko‘p parametrlarga murojaat qilish kerak. Ming afsuski, o‘quv mashg‘ulotlari jarayonida ayrim namoyish fayllari (slaydlar)dan foydalanishni aytmasa, deyarli AKTdan foydalanilmasligi ko‘zga tashlanadi. Video darslar, masofaviy ta’lim elementlarini qo‘llash, elektron resurslarni ishlab chiqish, pedagogik faoliyatga oid ma’lumotlar bazalarini tuzish, o‘zaro pedagogik muloqotning zamonaviy turlari va shakllaridan foydalanish tizimlashtirilmagan.

Yuqoridagi muammolar bugungi kunda quyidagi amaliy harakatlarga ahamiyat qaratilishini belgilab beradi:

1. Ilmiy asoslangan holda pedagogik faoliyatga tayyorlash modelini takomillashtirishga oid takliflar ishlab chiqish;

2. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmi sifatida baholanib, shular yuzasidan tegishli huquqiy-me’yoriy hujjatlar ishlab chiqish.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga mo‘ljallangan zamonaviy auditoriya mashg‘ulotining texnologik xaritasini qay ko‘rinish (yoki shakl)da hamda o‘qituvchi va talaba faoliyatining barcha qirralarida o‘zini namoyon etadi.

Masalan, “Uzluksiz pedagogika” o‘quv kursi bo‘yicha 2-kurs talabalari bilan “Pedagogikada shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari” mavzusi bo‘yicha o‘tkaziladigan dars mashg‘ulotining oldindan loyihalashtirilgan texnologik xaritasini keltiramiz.

2.1.1. jadval

| **Tanlangan nom** | Pedagogikada shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari |
|---|---|
| **Qo‘yilgan talablar** | **Maqsad:**<br>Tahsil oluvchilarga jamiyatda shaxs takomillashuvining umumiy holatlari, belgilari, ta’sir vositalari, asoslari va bosqichlari to‘g‘risida tushuncha berish.<br>**Vazifalar:**<br>-Talabalarda qo‘yilgan talabga nisbatan mativatsiya uyg‘otish, talabada mavzu asosida tushuncha va ko‘nikmalarni tashkil etish va takomillashtirish.<br>Qo‘yilgan talabga oid berilgan ma’lumotlarni tahsil oluvchilar tamonidan individual va frontal holatida o‘zlashtirishlari hamda bahs-munozara vositasida tarqatma ma’lumotlardagi jumlalar qay darajada o‘zlashtirilganligini nazorat qilish, talabalarning tushunchalarini baholash. |
| **O‘quv faoliyatining mazmuni** | Pedagogikada shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlari to‘g‘risida tushuncha. Pedagogik antropologiya, individ, yosh davrlari rivojlanish bosqichlari, shaxs rivojlanishi bosqichlari, irsiyat, ijtimoiy muhit, tarbiya va ta’limning ahamiyati to‘g‘risida tushunchaga ega bo‘lish. |
| **O‘quv faoliyatining amalga oshirish texnologiyasi** | **Uslub:** Diologik bayon qilish, “Bumerang” texnologiyasi.<br>**Shakl:** Suhbat-munozara, amaliy mashg‘ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash.<br>**Vosita:** Multimediali ilovalar, tarqatma materillar: matnlar, ma’lumotnoma, xabarnoma blankalari.<br>**Metod:** Tayyor yozma materillar va chizmalar asosida.<br>**Nazorat:** Og‘zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o‘z-o‘zini nazorat qilish. |

| | |
|---|---|
| | **Baholash:** Rag'batlantirish, 5 ball asosida baholash. |
| **Kutiladigan xulosalar** | **Tahsil beruvchi:** Talabalarda dars mashg'ulotiga ozgina intilish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida barcha tahsil oluvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. Talabalar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi.<br>**Talaba**:<br>Yangi bilimlarni egallaydi. Kommunikativ qobiliyati takomillashadi va xotira faoliyati rivojlanadi. O'zini nazorat qilishni o'zlashtiradi. Oz muddatda ko'p natijaga erishadi va baholay oladi. |
| **Kelgusi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)** | **Tahsil beruvchi:**<br>Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tadbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash. Mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish.<br>**Tahsil oluvchi:**<br>Matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi o'z fikrini ravon bayon qila oladi, shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib, bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi. |

O'qituvchi o'qitayotgan pedagogik fanlar turkumiga kiruvchi kursning har bir mavzusi, har bir dars mashg'uloti bo'yicha texnologik xaritasi, unga fanni yaxlit holda tasavvur etib yondashishga, tushunishiga (bir semestr, bir o'quv yili bo'yicha), yaxlit o'quv jarayonining boshlanishi, maqsadidan tortib, erishiladigan natijasini ko'ra olishiga yordam beradi. Xususan, texnalogik yo'lning tahsil oluvchilarning sharoiti va zaruratidan kelib chiqqan holda

tuzulishi, uni shaxs holatida darsning markaziga olib chiqishga va bu dars berishning natijalarini oshirishga imkoniyat beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida o‘quv jarayonini tashkil qilish, har xil pedagogik dars o‘tish san’ati va mahorati hamda zamon talablariga mos metodlarning qo‘llash orqali tahsil oluvchilarning muloqat o‘rnata olish qobiliyatlari takomillashadi, har bir tushunchaga kryativ yondashish, masuliyatlilikni shakillantirish, ilmiy tatqiqotlarni olib borish, analiz qilish, metadologik asoslardan samarali foydalanish, o‘zi tanlagan mutaxassislikka bo‘lgan layoqatini takomillashtirish (2.1.1-rasm).

Nazariy bilim,




**2.1.1-rasm. Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘lajallangan shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalari maqsadi**

O‘quv maqsadlariga erishganlik darajasini oldindan belgilab qo‘yilgan mezonlar asosida o‘lchash, tahlil qilishga qaratiladi.

Ta’lim beruvchining vaqti tejaladi; ta’lim oluvchining yakuniy bilimi baholarning soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi; yozma nutqining o‘sishi kuzatiladi; yozma va og‘zaki nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi; talabalarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqining sezilarli darajada oshadi.

“Pedagogika va psixologiya” tahsil mutaxassisligi o‘quvchilarida muloqat o‘rnata olish qobiliyatini takomillashtirishning ustuvor maqsadi, jamoat tamonidan ko‘rsatilgan meyyor darajasiga loyiqligini tahlillash, mehnat va ta’lim xizmatlapi bozopida paqobatbapdoshlilik ta’minlanganligini aks ettiruvchi umumlashtirilgan xususiyat hisoblanadi.

Yuqoridagi fikrlar asosida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish tuzilmasini quyidagicha tasniflash mumkin:




**2.1.2-rasm. Talabalarda kommunikativlikni rivojlantirish tuzilmasi**

Rasmdan ko‘rinib turibdiki, “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishi talabalarida kommunikativlikni rivojlantirish uchun taqdim

qilinadigan o‘quv materiali talabalarda nutq kompetensiyalarini tashkillashtirish yo‘lidagi amaliy harakatidir.

Tahsil dargohlarida dars sifatini nazoratga olish va xulosalash asosida amalga oshirilgan o‘qitish tadbirlar tahsil oluvchilarning umumiy tushunchalari darajalarini taqqoslash, ularni ta’limning keyingi bosqichiga tayyorlash, kasb-hunar tanlashga yo‘naltirish tizimini takomillashtirish, tahsil oluvchining to‘laqonli bilim olishi uchun unga eng maqbul pedagogik, didaktik, psixologik shart-sharoitlarni yaratishda hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Respublikamiz OTMlarida “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarda kommunikativlik ko‘nikmalarining rivojlanganligini aniqlash uchun Navoiy pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika va Guliston davlat universitetlaridagi 576 nafar respondentlarga 2019-2022 o‘quv yilida quyidagi anketa savollari bilan murojaat etildi:

**ANKETA (namuna)**

1. Tengdoshlaringiz va kursdoshlaringizga o‘z fikr va xulosalaringizni o‘tkazishingiz osonmi?

2. Muammoli vaziyatlarda muammo yechimini topishga qiynalasizmi?

3. Jamoat ishlari bilan shug‘ullanish sizga yoqadimi?

4. Agar siz ilgari surgan reja bo‘yicha muvafaqiyatsizlikka duch kelsangiz oldingizga qo‘ygan maqsaddan oson voz kechasizmi?

5. Tengdoshlaringiz va kursdoshlaringiz bilan noodatiy o‘yin va vaziyatlarni o‘ylab topishni yaxshi ko‘rasizmi?

6. Bugunga mo‘ljallagan ishlaringizni ko‘pincha keyinga qoldirasizmi?

7. Do‘stlaringiz va kursdoshlaringiz sizni fikrlaringizni qo‘llab-quvvatlshi siz uchun muhimii?

8. Tengdoshlaringiz va kursdoshlaringiz bilan agar ular sizga bergan va’dalarini o‘z vaqtida bajarishmasa nizoli vaziyatlarga borib turasizmi?

9. Siz muhim masalalarni hal qilishda tez-tez tashabbus ko‘rsatib turasizmi?

10. O‘zingiz uchun notanish muhitda mo‘ljal olish qobiliyatingiz susayganini xis qilasizmi?

11. Agar muhim ishni yakunlay olmasangiz g‘azablanasizmi?

12. Tengdoshlaringiz va kursdoshlaringiz bilan muloqotdan tez charchashingiz rostmi?

13. Ma’ruz mashg‘ulotlarida faolmisiz yoki sizga so‘z berilmaguncha jim turishni ma’qul ko‘rasizmi?

14. O‘zingizning xaqligingizni isbotlash uchun qattiq urinasizmi?

15. Universitet (yoki institutdagi) tadbirlarda tez-tez ishtirok etib turasizmi?

16. G‘oya va qarashlaringiz tengdoshingiz tamonidan inkor etilsa qarashlaringizni tark etasizmi?

17. Turli hil ananalarda o‘zgalar tamonidan tashabbus bo‘lishini hohlaysizmi?

18. Dars mashg‘ulotlari va turli uchrashuvlarga tez-tez kechikib turasizmi?

19. Tengdoshlaringiz va kursdoshlaringiz bilan bo‘ladigan suxbatlar markazida ko‘pincha o‘zingiz bo‘lasizmi?

20. Atrofingizda ko‘p sonli tanish va notanish isonlar bo‘lishi o‘zingizga bo‘lgan ishonch darajangizga ta’sir ko‘rsatmaydimi?

Tarqatilgan anketa savollariga respondentlar xolisona yondashgan holda javob berishdi. Anketaning 1-2-3-4 – savollariga 79 foiz respondentlar chuqur mulohazaga ega bo‘lgan javoblar qaytarishgan. Anketaning 5-savoliga 48 foiz respondentlar javob berishga qiynalishganligini izhor etishgan. “Ifodali nutqning mazmuni nimalardan iborat?” savoliga 56% respondentlar aniq javob berishgan.

Tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, talabalarda kommunikativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiya takomillashtirilishi lozim.

Erishilgan natijalarni aniqlash uchun analiz-sintez, pedagogik kuzatish metodlari tadbiq etildi. O‘rganilayotgan o‘quv materialiga asoslangan holda savol va topshiriqlarga javob berish, o‘quv matni bilan ishlash darajasi: o‘quv

materialini sinchkovlik bilan o‘rganganligi, shaxsiy munosabat bildira olishi kabi layoqatlarini rivojlantirishda “Ha va yo‘q” metodi, “Bilimlar daraxti” kabi metodlardan foydalanildi.

2019-2022 o‘quv yilida Jizzax davlat pedagogika universiteti “Pedagogika va psixologiya” ta’lim yo‘nalishining 107 nafar talabalariga kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganligini aniqlash uchun sohaviy ilmiy-ommabop materiallar taqdim etildi. Talabalar tomonidan matndagi asosiy axborotni ajratib olishlari, ommaviy axborot vositalaridagi dolzarb axborotlar mazmunini, maqsadini idrok etib, tushunishlari aniqlandi. Ulardan 17 foizi nutqning to‘g‘riligi, mantiqiy izchilligi, sofligi va ta’sirchanligini anglashda qiynalishganligini namoyon etdilar, barqaror atamalar, kasb-hunar so‘zlarining ma’no xususiyatlarini farqlashda 11 nafar talabada qiyinchilik tug‘dirdi.

Ilmiy manbalardagi o‘rtacha murakkablikdagi ma’lumotlarni to‘liq tahlil qiladigan, nutq uslubiyotiga xos xususiyatlarni tushunadigan talabalar 61 nafarni tashkil qildi. Ular nutqini ifodali va ravon, mazmunli va ta’sirchan ifoda eta olishlarini namoyon qila oldilar va fanga oid kompetensiyalarni ko‘rsata oldilar. Shulardan 11 foiz talabalar leksik, grammatik va stilistik me’yorlarga amal qilishda qiynalganligi ayon bo‘ldi.

Amalga joriy etilgan tajriba-sinov ishlari davomida respondentlarning muloqatini o‘stirishga asoslangan o‘quv-biluv jarayonini tashkil etishga tayyorlik darajasining o‘sganligi taqdim etilgan metodikaning samaradorligini tasdiqlash bilan bir qatorda, tadqiqot ilmiy farazining to‘g‘riligini ham asoslash uchun bir necha bosqichdan iborat tashxislovchi topshiriqlar ham taqdim etildi.

“Pedagogika va psixologiya” ta’lim mutaxassisligi 2-bosqich tahsil oluvchilarda kommunikativ tushunchalar shakillantirilganligi ularning ifodalay oladigan bilim elementlari miqdori bilan xarakterlanadi va ushbu mezonni baholash ko‘rsatkichi sifatida tahsil oluvchilar tomonidan o‘zlashtirilgan bilim elementlarining o‘quv materiali: a)darslik va majmualarda mavjud bo‘lgan tushuncha elementlari sifatida qabul qilindi; b) o‘zlashtirilgan tushunchalarning tizimliligida xarakterlanadi. Bu ko‘rsatkich tahsil oluvchilar tomonidan

tushunchalar o‘rtasidagi bog‘liqlik va munosabatlarni tushunish hamda shu asosda umumlashtiruvchi o‘quv topshiriqlarini bajara olishi bilan belgilandi. Bu mezon baholash ko‘rsatkichi sifatida talabalar tomonidan bilimlar doirasidagi aniqlangan bog‘liqlik va munosabatlar miqdorining o‘quv materialida mavjud bo‘lgan bog‘liqlik va munosabatlar miqdorini belgiladi; s) o‘zlashtirilgan bilimlarning qo‘llay olishi ko‘rsatkichi o‘zlashtirilgan bilimlarning nostandart vazifalar (o‘quv topshiriqlari)ni hal qilishda qo‘llanish darajasi bilan belgilandi. Bu mezon talabaning bergan nostandart javoblar sonining nazorat topshirig‘ida talab qilingan miqdorga nisbatan belgilandi. Demak, bugungi kunda talabalarda kommunikativ qobiliyatlarini shakllantirish uchun ularda og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

## 2.2-§. O‘quv mashg‘ulotlarida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etishning tamoyillari, mexanizmlari.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida talabalar uchun kulay, erkin, hissiy ko‘tarinkilik muhitini yaratish zarur.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bilan birga ular faoliyatini tezkor nazorat qilish imkoniyatini beradi; ta’lim beruvchining vaqti tejaladi; ta’lim oluvchining yakuniy bilimi baholarning soniga qarab emas, sifatiga qarab baholanadi; yozma nutqining o‘sishi kuzatiladi; yozma va og‘zaki nutqda xato va kamchiliklarni aniqlash imkoniyati vujudga keladi; talabalarning bilim olishga bo‘lgan ishtiyoqining sezilarli darajada oshadi.

Mashg‘ulot uchun zarur didaktik, kognitiv, vizual vositalarni oldindan tayyorlash, shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar mazmunida talabalarning motivatsiyali faoliyatini boshqarish masalasi ham mavjud.

Motivatsiya – motivlarning harakatlanish jarayoni, talabani asosiy faoliyatga undovchi motivlar yig‘indisi. Biz shaxsga qaratilgan texnalogiyalar asosida tahsil oluvchi shaxsiga tasirchanlik xususiyatini shakillantirish ijtimoiy

mativl;ar ulardagi barcha imkoniyatlarni inobatga olish talab etiladi (2.2.1-rasm).




**2.2.1 – rasm. Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida talaba shaxsiga ta’sir etuvchi ichki va tashqi motivlar**

Talabalar o‘z faoliyatini amalga oshirish hodisasi nafaqat tashqi omillar ta’sirining natijasi, balki ichki omillar, ya’ni shaxs ongi, uning ichki mazmuni va shaxsiy tarkibi bilan bog‘liqdir. Ichki omillar talabalarning maqsadga yo‘naltirilganlik darajasi, qiziqishlari, o‘z faoliyatini amalga oshirishga bo‘lgan ixtiyori hamda o‘z-o‘zini tasdiqlashini ifodalaydi. Bunday yo‘nalishlarni tayyor holda qo‘lga kiritish mumkin emas. U talabaning bilishga asoslangan ongida hamkorlik jarayonida yangidan vujudga kelishi kerak.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni tashkil etishda shakllantiruvchi yondashuv prinsipi (tamoyili) muhim ahamiyat kasb etadi. Bu

alohida shaxsning manfaatlaridan yuqori bo‘lgan qiziqishlar sifatida namoyon bo‘ladi. Shu o‘rinda , shundayin tashkil etilgan ta’lim tarbiyaning mavjud sohasi, intelektual harakat asoslari va xarakter holati malakasini namoyon qilish o‘zida ijobiy mativni birlashtiradi. Bu o‘z navbatida, talaba shaxsining istiqboldagi taraqqiyoti uchun asosiy nuqta hisoblanadi.

Talabaning shaxsiy sifatlari unga xos bo‘lgan ongli faoliyatning mazmun-mohiyati va darajasini belgilaydi.

Shaxsiy tuzilmalar – bu talaba ongining qadriyatlarga asoslangan tarkiblashgan mazmunidir. U talabaning hamkorlikdagi faoliyati va xulq-atvori orqali namoyon bo‘ladi.

U o‘zining shaxsiy fikrini ifodalash, hatti-harakatlarini boshqarish, o‘z faoliyatini hamkorlik asosida tashkil etish, qabul qilingan talablarni astoydil bajarish va o‘z faoliyatini shu talablarni amalga oshirishga sarflash kabilarda namoyon qiladi.

Shaxs ongli faoliyatining muhim ko‘rinishlaridan biri – nazoratdir. Talabaning ongi uning atrof-muhitga bo‘lgan munosabatini yo‘naltiradi va nazorat qiladi. Bu jarayonda talaba ongi haqiqatdan ham tashqi ta’sirlarni aks ettiradi va bu ta’sirlarga muayyan darajada javob qaytaradi. Ushbu hodisaning pedagogik mohiyati shundaki, u nafaqat ta’sir ko‘rsatish, balki talaba ongining mohiyatini ham ifodalaydi. Mazkur nazorat qiluvchi birlikning harakati qanchalik kuchli bo‘lsa, ongning ma’naviy-axloqiy shakllanishi shunchalik yuqori bo‘ladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarni ta’lim muhitiga tatbiq qilish mexanizmlarini takomillashtirishda ta’lim jarayoni ishtirokchilarida ongning vaziyatlarni mustaqil tarzda nazorat qilish layoqatini rivojlantirish muhim. Buning uchun ta’lim jarayoni ishtirokchilarining shaxsiy intellektual ko‘rsatkichlari, jumladan:

- tanqidiylik - shaxsning o‘zidan tashqarida va o‘z vujudida o‘zgarishlar va mantiqiy holatlarga baho berishi, mavjud tartibga nisbatan norozilik va shubhaning vujudga kelishi, qayta fikrlash jarayonlariga yo‘naltirish va ularga

tanqidiy baho berish. Qat’iy tanqidiy nuqtai nazar - 1) o‘z qarashlari, fikrlari, qadriyatli yo‘nalishlarini o‘ta ahamiyati va haqqoniy deb hisoblamasdan, balki tajribada ifodalangan fikrlar va qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida baholash ko‘nikmasi; 2) o‘zining shaxsiy tashabbusiga ko‘ra o‘z g‘oyalarini sinab ko‘rish va unga zid tarzda ilgari surilgan g‘oyalardan himoya qila olish ko‘nikmasi; 3) muayyan salbiy hodisalarda ijobiy holatlarni topa olish ko‘nikmasi; 4) noto‘g‘ri va mayda tanqidlardan qochish ko‘nikmasi; 5) baribir bizda hammasi yaxshi, degan aqidadan uzoqlashish ko‘nikmasi; 6) muayyan vaziyatlarda o‘zini ob’ektiv baholay olish, salbiy omillar ta’siridan saqlanish ko‘nikmasi;

- tajribalarni tahlil qila olish, o‘z ko‘lamidan tashqariga chiqish, fikrlash, o‘rganish, tahlil qilish; konstruksiyalash, o‘zligiga sodiq qolish, o‘z-o‘ziga haqqoniy munosabatda bo‘lish;

- voqealarning yashirin sabablarini aniqlay olish, o‘xshatish, tenglashtirish, tahlil qilish, ularning asoslarini aniqlash, ijtimoiy, shaxsiy qadriyatlar, noaniq holatlarga nisbatan yondashuvlarni namoyon qilish; hodisalar vujudga kelishining tashqi sabablarini aniqlash;

- yo‘naltirish - olam manzarasini tasavvur qilishning shaxsiy yo‘nalishlarini aniqlash, imkoniyat holatidan haqqoniylik holatiga o‘tish;

- o‘z faoliyatini amalga oshirish – atrofdagilarning o‘zligini tan olishlariga intilish, uning to‘liq namoyon bo‘lishiga mustaqil tarzda sharoit yaratish kabilarni rivojlantirish zarur [24,31-b.].

Talabalarda ijodiy faoliyatni shakllantirish uchun qulay sharoit vujudga keltirilsa, ta’lim o‘z oldiga qo‘ygan maqsadga erishadi. Hamkorlikka yo‘naltirish asosida o‘z-o‘zini boshqarish tizimini tarkib toptiradi. Bu esa, pedagogik hamkorlikning umumiy hamda xususiy tamoyillari va yo‘naltiruvchi sharoitlariga bog‘liq.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarning muhim tamoyillaridan yana biri -insonparvarlik xarakteriga ega bo‘lgan shaxsiy bilishga asoslangan onglilikdir. Shunga ko‘ra hamkorlikka asoslangan ta’lim jarayoni uni tahlil etishda tadqiqotchilardan yangicha fikrlashni talab qiladi. O‘qituvchilar va talabalar

ham ta’lim jarayonining faol sub’ektlariga aylanadilar. Buning uchun ta’lim-tarbiya jarayoni kuzatish maydoniga aylanishi lozim. Buning natijasida nazariy bilimlar va amaliy tajribalar o‘qituvchidan talabaga o‘tkazilmasdan, mantiqiy tafakkurga tayanilgan holda o‘zaro muloqot asosida bir-birlariga taqdim etiladi va o‘zlashtiriladi.

Bu jarayonda o‘qituvchining ochiq monologi o‘rnini ishchan, fikriy muloqot egallaydi. O‘zaro birgalikdagi harakat, sherikchilik, rivojlanuvchi shaxsning mustaqilligiga asoslanib yo‘nalish olish kabilar tashkil etadi.

Uchinchi muhim tamoyil ta’lim-tarbiyaviy axborotlarning ochiqligi tamoyilidir. Ochiqlik o‘zining ko‘plab aniqlovchilari orasida yana bir muhim sifatga ega bo‘lgan pedagogik hodisadir. Ochiq xarakterdagi bilimlar o‘ziga xoslikka ega bo‘lib, o‘z hududida biluvchi shaxsga nisbatan ochiqlik kasb etadi. Talaba ko‘z o‘ngida uning bilish faoliyati jadalligiga asoslangan holda bilimlar dunyosi namoyon bo‘ladi. Bu tushunchalar va tahsil oluvchilarning tushunish faoliyati talabaning asosiy qadryatidur.

Bularda tahsil oluvchilarning individual harakatini erkin tashkillashtira olishga yo‘naltirilgan  o‘quv qo‘llanmalari va tarebiyaviy qadryatlar ifodalangan. Buning yordamida tahsil oluvchini o‘qituvchi qo‘llab-quvvatlashga asoslangan ta’lim texnologiyalari vujudga keladi.

Talabaning yangi, ya’ni hamkorlik holatiga o‘tishida vaziyatning o‘zi bilan bog‘liq tarzda uning ongi va kechinmalarining ikki ko‘rinishi vujudga keladi: 1) ijtimoiy jihatdan moslashish yoki vaziyatni tashkil etish jarayonida faol ijodiy faoliyat ko‘rsatish; 2) o‘z faoliyatini mustaqil tashkil etish.

Bugungi kunda  o‘quv dasturida ko‘rsatilgan bilimlarni talabaga ko‘chirish, uning bilimdonligini shakllantirish ko‘nikmasi o‘rnini ijodiy masalalarni yechish, ko‘ptarmoqli ongni shakllantirish, o‘z faoliyatini amalga oshirish layoqatini tarkib toptirish ko‘nikmasi egallashi lozim. Shunga ko‘ra o‘qituvchi ko‘p jihatdan fan o‘qituvchisi va metodist sifatida namoyon bo‘lmasligi, balki yangicha hamkorlikka asoslangan ta’lim tizimining boshqaruvchisi sifatida faoliyat ko‘rsatishi kerak. Chunki, bugungi kun talabiga

ko‘ra o‘qituvchi talabalar ongining rivojlanish yo‘llarini tahlil qiluvchi sub’ektdir.

Mustaqillikka qadar oliy ta’limda talabaga shunchaki bilimlarni qabul qiluvchi sub’ekt sifatida qaralgan, o‘qituvchi tomonidan berilgan bilimlarning hech qanaqa tahlilsiz qabul qilinishi lozimligi, o‘qituvchining so‘zi talaba uchun yakuniy qaror ekanligi ta’kidlanganligi bois, talabalarda mustaqil fikrlash, ijod qilish, yangiliklar yaratishga bo‘lgan harakat o‘z-o‘zidan sust bo‘lgan.

Talabalarda mustaqil fikrlash ko‘nikmasining rivojlanmaganligi bois o‘quv materiallarining talab darajasida o‘zlashtirilmasligi, oqibatda davlat buyurtmasining to‘laqonli bajarilmasligi, pirovard natija davlat taraqqiyotiga xizmat qiladigan salohiyatli mutaxassislarning tayyorlanishi ehtiyojga nisbatan kamayishiga olib keldi.

Ayni paytda talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish zarur bo‘lib, ajdodlarimiz asarlarida bular o‘z aksini topgan. Shaxsdagi nutqiy aloqa o‘rnata olishlikni takomillashtirish sohasidagi nazariyalardan o‘quv amaliyotda qo‘llash zarur va tahsil oluvchi erkin fikrlash malakasini takomillashtirish sohasidagi xalqaro malakalarni o‘zlashtirish talab ertiladi.

Ta’lim-tarbiya bu talabani umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash, shuningdek, har tomonlama rivojlangan shaxsni kamolga yetkazishga yo‘naltiruvchi jarayondir. Har bir talaba kamoloti fikr tiniqligi, yaxlitligi, keng qamrovliligi, dolzarbligi, o‘zgalar tomonidan tinglanishi, o‘ziga xos fikrlay olishi bilan belgilanadi. Fikr – bu atrof-muhitga, voqelikdagi hodisalarga, jarayonlarga, narsa va shaxslarga nisbatan bildiriladi.

Talabalar har qanday ma’lumotning asoslanilishini, tahlil etilishini, ularga o‘z munosabatini bildirishni istaydi. Bunday talabalarni qanoatlantiradigan ta’lim mazmuni birmuncha murakkabdir. Ularda kommunikativ qobiliyatni rivojlantirish uning mavjud bo‘lgan kanfiliktlarni aniqlangan maqsad va vazifalarga mos holda tushunchasi hamda ijtimoiy malakalariga asoslangan holda, o‘z aqliy salohiyati darajasida turli metod, vositalar yordamida mustaqil ravishda ravishda bartaraf qilishiga yo‘naltirilgan intelektual harakatdir.

Talabaning kommunikativ qobiliyati voqea-hodisalarga nisbatan, umumiy jarayonning o‘ziga xos mahsulasi hisoblanadi. Bu natijaning jamiyatga ta’siri ham o‘ziga xosdir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, har bir talaba o‘zicha fikrlaydi.

Shuning uchun bunday holatni uzoq vaqt o‘qituvchilar xush ko‘rmay, unga salbiy munosabatda bo‘lib keldilar, talabalarning mustaqil fikrlash va o‘z fikrlarini bayon etishga to‘sqinlik qilib keldilar.

N.Muslimovning tadqiqotida dars jarayonida o‘qituvchi faoliyati ustuvorlik qilib mavzularga bir tomonlama yondashmaslik;ikkinchidan, o‘quv dasturida, darslikda va qo‘shimcha materiallarda berilgan ma’lumotlar mukammal va tugal, zotan ularni faqat o‘zlashtirish kerak degan qarashga og‘ishmay amal qilish lozimligi xaqida fikr bildiriladi [101].

Mustaqil fikrlash bilan talabalarda nafaqat bilimlarning mustahkamlanishiga, tajribaning orttirilishiga, balki ma’naviy yetuklikka ham erishiladi. Axloqiy jihatdan har qanday muhitni zabt etishga qodir bo‘lgan talaba o‘zgalarni hurmat qilish, ularning qadr-qimmatini ko‘rsatib bera olish, o‘z faoliyati jarayonida barcha ishtirokchilarning manfaatlarini yaxlit himoya qila olish uchun jur’at topadi.

Hozirgi vaqtda ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ijtimoiy pedagogik zaruriyat sifatida qaralganda har bir talabaning oddiy fikri ham vaqti kelib buyuk kashfiyotlarga asos bo‘lishi mumkinligini ko‘rsatadi. Zero, o‘quv tarbiya jarayonidagi uzviylik, uzluksizlikka asoslangan mazmunni idrok etish, tushunib yetish va o‘zlashtirishda dars qo‘llanmalariga ham ma’lum darajada tahsil oluvchini erkin faoliyat yuritishiga qaratilishni singdirish zamon o‘qituvchilarining asosiy tatqiqot muammolaridan sanaladi. Bunday talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini tarkib toptirish, rivojlantirish omillaridan samarali foydalanish muhim sanaladi.

Xulosa qilib aytganda ta’lim-tarbiya jarayonida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini kamol toptirish bugungi kun oldidagi asosiy vazifadir. Talabaning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish har bir

dars jarayonining, har bir mashg‘ulotning asosiy muammosi bo‘lib qolmog‘i lozimki, bu bilan ta’lim sifatini oshirishning, mazmunini boyitishning mezoni yaratiladi.

Shuningdek, ta’lim, xususan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish ko‘plab muammolarining tizimli ravishda yechilishiga asos bo‘ladi.

**“Konsensus i konfrontatsiya” rolli-ishchan o‘yini**

*(“Kelishuv va ziddiyat”).*

Texnologiyaning maqsadi: Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalar orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish.

**Mashg‘ulotni o‘tkazish ketma-ketligi:**

***1. O‘yinni boshlash.***

*Mazkur bosqichning vazifasi:* u yoki bu fikrni to‘g‘ri ekanligini isbotlash orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Talabalarga birin ketin tasdiqlovchi fikr yozilgan tarqatma materiallar ko‘rsatiladi. Ularga tarqatma materiallarda berilgan fikrlarni qabul qilish va qilmaslik taklif qilinadi. Tarqatma materiallardagi fikrlarni qabul qilgan talabalar bir tomondan, qolganlari ikkinchi tomondan joy egallaydilar. Shunday qilib guruh 2 ta kichik guruhlarga ajraladi. Ulardan biri tasdiqlangan fikrni qabul qiladi va uning to‘g‘riligini isbotlaydi, boshqa guruh esa, opponent bo‘ladi. Guruhlarning vazifalari – o‘z guruhlariga boshqa guruh a’zolaridan ko‘proq kishini jalb etish, ya’ni ularni o‘z fikrlarini o‘zlashtirishga olib kelishdan iboratdir. Har bir tasdiqlangan fikr ustida 5 daqiqa ishlanadi.

Tarqatma materialdagi tasdiqlangan fikrlar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Shaxs rivojlanishida tarbiyaning o‘rni ahamiyatlidir;
- Tarbiya vositasida yaxshi va yomon xulqlarni egallash mumkin;
- Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yohud axloq” asarida keltirilgan fikrni isbotlang: “Tarbiyaning mayda-chuydasi bo‘lmaydi. Tarbiyada hamma narsa ahamiyatlidir”.

**2. *Tahlil:***

*Mazkur bosqichning vazifasi*: o‘yinni o‘tkazish vaqtida o‘z holatini tahlil qila olish va quyidagi savollarga javob berish;

-Bahs shartlarini bajarish qiyin bo‘ldimi?

-Mazkur ishni bajarish vaqtida nimalarni his etdingiz?

- Bahs –munozara natijasidan qoniqdingizmi?

- Natijaga erishishingizda Sizga nima yordam berdi va nima halaqit berdi?

Bahs – munozaralarning natijasini albatta tahlil qilish va baholash kerak. uning muvaffaqiyati: birinchidan, guruhlar va ularning ishtirokchi (hamkor)larini bir-birlariga o‘zlarining vaziyatlari va holatlarini tushuntirib, yangi axborotlar olishlariga, ikkinchidan, o‘zaro munosabat vaqtidagi ziddiyat (yoki salbiy holat)ning bir qismini yo‘q qilinishiga erishishlariga, uchinchidan, qo‘yilgan muammoni yechib, o‘zaro bir-birlarini tushunishlariga bog‘liq.

**3. Murosaga kelishning kichik guruhda (juftlikda) tashkil etilishi.**

*Mazkur bosqichning vazifasi:* ikki opponent o‘rtasidagi u yoki bu fikrni tasdiqlanish roziligiga erishish.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Talabalarga biron bir tasdiqlangan fikrni tanlash taklif etiladi. Bu birgalikdagi ish quyidagi ko‘rinishda: bir kishi tasdiqlovchi, ikkinchi kishi esa, inkor etuvchi bo‘ladi. Bu faoliyat yakunida ma’lum bir juftliklar aniqlanadi (yoki agar kichik guruhda uch kishi bo‘lsa, uchta qatnashchi). 10 daqiqa mobaynida konstruktiv bahs-munozara ko‘nikmasi yordamida murosa (konsensus)ga erishish kerak.

Muhokama qilish uchun taxminiy savollar quyidagicha bo‘lishi mumkin:

- Sizga bahsshartlarini bajarish qiyin bo‘lmadimi?

- O‘yin davomida Siz nimalarni his etdingiz?

- Bahs-munozara natijasidan qoniqdingizmi?

- Natijaga erishishda Sizga nima yordma berdi va nima xalaqit berdi?

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘qituvchi mashg‘ulotga yakun yasar

ekan auditoriyaga quyidagi savolar bilan murojaat qilib, talabalarni ochiq muloqatga chaqiradi.

Tajribaviy mashg‘ulotlarda shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari qatoridan o‘rin olgan “Tushunchalar tahlili” interfaol metodi orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga harakat qilindi.

**“Tushunchalar tahlili” uslubi**

**Uslubning mohiyati.** Ushbu uslub o‘tilgan ( semestr yoki o‘quv yilida tugagan) o‘quv kursi yoki bo‘limning barcha mavzularini talabalar tomonidan yodga olish, xotirada saqlashga yo‘naltiriladi.

**Uslubning qo‘llanishi:** o‘quv mashg‘ulotlarining barcha turlarida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘tilgan mavzuni o‘zlashtirilganlik ta’limni xulosalash, qaytarish, barqarorlashtirish nazorat turlarini shakillantirish uchun, shuningdek, yangi mavzuni boshlashdan oldin talabalarning bilimlarini tekshirib olish uchun mo‘ljallangan. Ushbu uslubni mashg‘ulot jarayonida yoki mashg‘ulotning bir qismida yakka, kichik guruh hamda jamoa shaklida tashkil etish mumkin. Ushbu uslubdan uyga vazifa berishda ham foylansa bo‘ladi.

**Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar:** tarqatma materiallar, tayanch tushunchalar ro‘yxati, qalam (yoki ruchka), slayd.

***Izoh:*** *reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda o‘qituvchining qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, u holda guruhlar soniga qarab, tarqatma materilalar tayyorlanadi).*

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

Talabalar guruhlarga ajratiladi;

Talabalar mashg‘ulotni o‘tkazishga qo‘yilgan talab va qoidalar bilan tanishtiriladi.

Tarqatma materiallar guruh a’zolariga tarqatiladi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘tilgan mavzu yoki

yangi mavzu bo‘yicha tarqatma materialda berilgan tushunchalar bilan tanishadilar.

**Usulning maqsadi.** tahsil oluvchilarda o‘zlashtirilgan tushuncha bo‘yicha yetakchi g‘oyalarni egallash intelektuallikning holatini tahlillashga yo‘naltirilgan.

O‘quvchilar o‘z tushunchalarini erkin ravishda erkin bayon eta olish, safdoshlarining fikriga hurmat bilan qarash, shuningdek o‘z bilimlarini bir tizimga solishga o‘rgatildi (2.2.1-jadval).

2.2.1.jadval.

| Tahlillar | Mohiyati |
|---|---|
| Pedagogik texnologiya | Ta’lim va tarbiya maqsadlarini tizimli amalga oshirish jarayoni |
| Innovatsiya | Yangilik kiritish jarayoni |
| Pedagogik mahorat | O‘quv jarayoni mohirona, o‘z maromiga yetkazib amalga oshirish |
| Pedagogik kvalimetriya | Pedagogik hodisalarni o‘lchash, baho berish |
| Ta’lim | DTS talablari asosida tashkil qilingan, maqsadga yo‘naltirilgan bilim, ko‘nikma, malaka egallash jarayoni |
| Tarbiya | Muayyan sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan, tarbiyalovchi va tarbiyalanuvchi o‘rtasidagi qo‘shaloq jarayon |
| Texnologiya | Kafolatlangan natijani qo‘lga kiritishga mo‘ljallangan, inson salohiyati va texnik resurslar majmuidan iborat jarayon |

O‘qituvchi tarqatma materialda mavzu bo‘yicha berilgan tushunchalarni o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda har bir tushunchaga to‘g‘ri izohni belgilaydi yoki ekranda har bir tushunchaning izohi berilgan slayd orqali tanishtiriladi;

Tatqiqot jarayonlarida shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan “Zinama-

zina” texnologiyasidan qo‘llanildi. Bunda o‘quvchida nutqiy aloqa o‘rnata olish layoqatini takomillashtirishga qaratilgan mashxulot ularni erkin fikrlashga oldingi va hozirgi o‘zlashtirilayotgan mavzularni takrorlashga, o‘quvchilarni yozma (yoki gafikli ko‘rinishda) izhor etishga, g‘oyalarini jamlashga o‘rgatdi. Quyida mazkur texnologiyaning ta’rifini keltiramiz:

**“Zinama-zina” texnologiyasi**

**Texnologiyaning maqsadi.** Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, guruhga o‘z bilimiga asosan ta’sir o‘tkaza olish, uni tasdiqlanishiga, shu bilan birga mavzuning asosiy tamoyillariga sharx berishda o‘zlashtirilgan tushunchalarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

**Texnologiyaning tavsifi.** Bu seminar talabalarni o‘zlashtirilgan yoki o‘zlashtirilayotgan mavzu bo‘yicha individual yoki frontal bo‘lib olib borish hamda eslash, egallangan tushunchalarni esga tushurish, yig‘ilgan tushunchalarni jamlay olish va ularni qo‘lyozma, grafikli va boshqa ko‘rinishda ayta olishiga undash. Bu texnalogiya o‘quvchi (yoki o‘quvchi) lar bilan yakka jamoa ichida alohida jamoalarga ajratilgan holda qo‘lyozma shaklida o‘tkazilganm va joriy etilgan.

**Texnologiyaning qo‘llanishi:** ma’ruz, seminar, amaliy va laboratoriya darslarda individual holda yoki kichik jamoalarda olib borish hamda baholash darslarida amalga oshirilishi mumkin.

**Dars jarayonida amalga oshiriladigan vositalar:** Talabalar fikrlari jamlanadi va ulardan kichik slaydlar (4-5 ta) yaratish taklifi beriladi.

Kichik guruhlarga ajratilgan talabalar slaydlarda yozilgan mavzular bilan tanishadilar va uniyozma (yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishida taqdim etilgan. Bu jarayonda jamoa vakillari qisqa mavzu buyicha imkoniyat darajasida to‘liq javob berilishi lozim.

berilgan kartochkalar to‘ldirilgach jamoa azolaridan bir kishi taqdimot qiladi.

Anjumanda  tayyorlangan o‘quv materiali mantiqan zina shaklida-oddiydan murakkabga tomon shaklida prezentatsiya qilinadi.

pedagog jamoa tamonidan ishlangan ma’lumotlarga sharx beribbularni baholaydi va darsni tugatadi.

2.2.2.jadval.

| Tar№ | **Pedagogik kategoriyalar, qarashlar, nazariyalar** | **Tavsifi** |
|---|---|---|
| 1 | Odob-axloq | Shaxsning jamiyat tomonidan o‘rnatilgan axloqiy normalarga rioya qilishi |
| 2 | Abu Nasr Farobiyning pedagogik qarashlarini ifoda etgan asarlari | «Fozil odamlar shahri », «Kitob al musiqa al kabir », «Katta musiqa», «Ritmlar tartibi haqida» |
| 3 | Abu Rayhon Beruniyning pedagogik qarashlarini ifoda etgan asarlari | «Masud Qonuni», «Hindiston», «Qadimiy xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Saydona», «Axloq xaqida risola» |
| 4 | Abu Ali ibn Sinoning pedagogik qarashlarini ifoda etgan asarlari | «Tadbiri manozil», «Axloq xaqida risola », «Donishnoma», «Salamon va Ibsol », «Xay ibn Yakson », «Tib qonunlari» |
| 5 | Alisher Navoiyning pedagogik qarashlarini ifoda etgan asarlari | : «Makorim ul-axloq», («Mukarram xulqlar»), «Badoiy ul-bidoya», («Go‘zallikning boshlanishi»), «Navodir un-Nihoya», («Nodirliklar nihoyasi»), «Xazoyin ul-Maoniy», («Ma’nolar xazinasi») |

Mazkur jadvalni to‘ldirar ekanlar, talabalar buyuk mutafakkir olimlar qalamiga mansub bo‘lgan asarlarda insonni tarbiyalash g‘oyalari hozirgi zamon g‘oyalari bilan hamohang ekanligini uqtirishadi. O‘z fikrlarini himoya qilar

ekanlar, talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanish dinamikasini kuzatishga imkoniyat kengayadi.

Quyida mazkur texnologiyaning tavsifini keltiramiz:

**“Charxpalak” texnologiyasi**

**Texnologiyaning maqsadi**: talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish, o‘z fikrlarini ravon va mustaqil ravishda erkin bayon eta olish, boshqalar fikriga hurmat bilan qarashga o‘rgatish.

**Texnologiyaning tavsifi.** Ushbu texnologiyada guruh a’zolari tomonidan yakka holda mustaqil ravishda tarqatma materiallardagi vazifalar bajariladi, qisqa vaqt ichida o‘qituvchi tomonidan barcha talabalarning o‘zlashtirilgan tushunchalarini xulosalashga yo‘naltirilgan.

**Texnologiyaning qo‘llanilishi:** texnologiya texnalogiya dars jarayonining hamma turlarida mashxulot boshlanishi yoki mashxulot oxirida o‘quv kursining biron bir bo‘limi tugallanganda, o‘tilgan mavzularni talabalar tomonidan o‘zlashtirilganlik holatini nazorat qilish, mustahkamlash yoki nazorat uchun mo‘ljallangan. Bu texnalogiyani dars vaqtida yoki uning bir qismida individual, kichik jamoa va guruh shaklida tashkillashtiriladi.

**Mashg‘ulotda foydalaniladigan vositalar:** multimediali ilovalar, tarqatma materiallar, rangli qalam (yoki flomaster)lar.

***Izoh:*** *reja bo‘yicha belgilangan mavzu asosida hamda o‘qituvchining qo‘ygan maqsadi (tekshirish, mustahkamlash, baholash)ga mos tayyorlangan tarqatma materiallar (agar yakka tartibda o‘tkazish mo‘ljallangan bo‘lsa, guruh talabalari soniga, agar kichik guruhlarda o‘tkazish belgilangan bo‘lsa, u holda guruhlar soniga qarab tarqatma materiallar tayyorlanadi).*

**Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:**

Tarqatma materiallar boshqa guruhlarga “charxpalak aylanmasi” yo‘nalishida almashtiriladi;

tahsil oluvchilarni darsni o‘tkazishga talab etilgan talablar bilan tanishtirish;

tarqatma materiallarni guruh a’zolariga tarqatish.

har bir guruh a’zosi o‘zi ishlagan tarqatma materialining o‘ng burchagiga guruh raqamini yozadi, chap burchagiga esa o‘zining biron-bir belgisini chizib qo‘yadi;

yangi guruh a’zolari tomonidan berilgan materiallar o‘rganiladi va o‘zlashtirishlar kiritiladi;

jamoalar tomonidan o‘rganilgan va o‘zgartirishlar kiritilgan materiallar yana yuqorida eslatilgan yo‘nalish bo‘yicha guruhlararo almashtiriladi (ushbu jarayon guruhlar soniga qarab davom ettiriladi);

materiallarni oxirgi almashishdan so‘ng har bir guruh va har bir guruh a’zosi o‘zlari ilk bor to‘ldirgan materiallarni (guruh raqami va o‘zlari qo‘ygan belgilari asosida) tanlab oladilar;

har bir guruh a’zosining o‘zlari belgilagan javoblariga boshqa guruh a’zolarining tuzatishlarini taqqoslaydigan va tahlil qiladilar;

o‘qituvchining tarqatma materialda berilgan vazifalarini o‘qiydi va jamoa bilan birgalikda to‘g‘ri javoblarni belgilaydi;

har bir talaba to‘g‘ri javob bilan belgilangan javoblar farqlarini aniqlaydilar, kerakli ballni to‘playdilar va o‘z-o‘zini baholaydilar.

Izoh: tarqatma materialda talaba (yoki talaba)lar belgilagan to‘g‘ri javoblar bilan o‘qituvchi hamkorligida aniqlangan to‘g‘ri javoblarning farqi 0,55 foizdan yuqori bo‘lsa, talaba (yoki talaba) ushbu o‘quv materialini o‘zlashtirgan, undan kam bo‘lsa o‘zlashtira olmaganligini bidriadi. Masalan, vazifalar soni 30 ta bo‘lib, javoblarning 17-20 tasi to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa, talaba ushbu vazifani bajargan va o‘quv materialini o‘zlashtira olgan, agar undan kam bo‘lsa o‘zlashtira olmagan hisoblanadi. Shu bilan birga, javoblarning 21-24 tasi to‘g‘ri belgilangan bo‘lsa talaba materiallarni o‘zlashtirgan darajasi “yaxshi” bahoga, 25-30 tasi to‘g‘ri bo‘lsa “a’lo” bahoga o‘zlashtirgan, deb hisoblanadi.

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan vazifa bajarilgach, o‘qituvchi qog‘ozlarni yig‘ib oladi.

**Vazifa.** O‘qituvchining muomala va munosabati boshqarishdagi harakatlari qaysi boshqaruv usuliga mansub ekanligini aniqlang va ularga beradigan tavsiflarini ilovada keltirilgan jadvalga kiriting.

2.2.3.jadval.

| № | O‘qituvchining munosabat va muomalani boshqarishdagi harakatlari | Avtoritar (yakka hokimlik) | Demokratik (hamkorlik) | Liberal (beparvolik, murosalilik) |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Boshqalar fikrini o‘ziniki qilib oladi. | + | - | - |
| 2 | O‘zi yakka holda guruh faoliyati. Yo‘nalishini belgilaydi. | + | | |
| 3 | Tashabbuskor emas. | - | - | + |
| 4 | O‘zi ko‘rsatma va buyruq beradi. | + | - | - |
| 5 | Jamoa ishiga aralashmaydi. | - | - | + |
| 6 | Tashakkuri ham buyruqdek chiqadi. | + | - | - |
| 7 | Hamma masadlarni yuzaki ko‘rib chiqadi. | - | - | + |
| 8 | Boshqalar fikriga hurmat bilan qaraydi. | - | + | - |
| 9 | Aytilgan narsani to‘liq bajarilishini talab etadi. | + | + | - |
| 10 | Boshqalar fikriga tez qo‘shiladi va qabul qiladi. | - | + | - |
| 11 | So‘z va gaplari qattiq va ko‘pol | + | - | - |
| 12 | O‘zining shaxsiy nuqtai nazari yo‘q | - | - | + |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 13 | Jamoa fikrini va tashabbusini ma’qullaydi hamda rivojlantiradi | - | + | - |
| 14 | Gap qaytargan va gap o‘rgatganlarni yoqtirmaydi. | + | - | - |
| 15 | Javobgarlikdan o‘z-o‘zidan chetlashadi | - | - | + |
| 16 | Obro‘si bo‘lmaydi | - | - | + |
| 17 | Intizomni qattiq talab etadi. | + | - | - |
| 18 | O‘z tinchini o‘ylaydi | - | - | + |
| 19 | Ish natijasi bilan qiziqmaydi | - | - | + |
| 20 | So‘zsiz bo‘ysunishni talab etadi. | + | - | - |
| 21 | O‘z ishiga sovuqqon | - | - | + |
| 22 | Qo‘rqmasdan javobgarlikni o‘z bo‘yniga oladi. | - | + | - |
| 23 | Kasbini sevmaydi | - | - | - |
| 24 | Tushuntirmaydi, lekin talab qiladi. | - | - | + |
| 25 | Jamoa ishiga tayanib ish olib boradi. | - | + | - |
| 26 | Talaba (yoki talaba)ga e’tiborsiz, beg‘am. | - | - | + |
| 27 | O‘qituvchi ekanligini yoddan chiqarib qo‘yadi | - | - | + |
| 28 | O‘ziga bino qo‘yishni yaxshi ko‘radi | - | - | + |
| 29 | Talaba (yoki talaba)larni erkin fikrlashga yo‘l qo‘ymaydi. | + | - | - |
| 30 | Talaba (yoki talaba) fikri bilan o‘rtoqlashmaydi. | + | - | - |

17-20 ta aniq to‘g‘ri javob «qoniqarli darajada»;

21-24 ta aniq to‘g‘ri javob “yaxshi darajada”;

25-30 ta aniq to‘g‘ri javob “a’lo darajada”

## 2.3-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalarini tatbiq etish vositasida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish modeli.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonining imkoniyatlari keng hisoblanadi. Shuningdek, bu jarayonda talabalar o‘z fikrlarini bayon qila olish ko‘nikmalari rivojlantirishga qaratilishiga ehtiyoj yuzaga keladi.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun ta’lim-tarbiya jarayonida talaba mustaqil fikrlashining birinchi asosi talqin etiladi.

2. Talabaning mavjud holati negizida hosil qilingan tasavvur. Bunda talaba unga bo‘layotgan ta’sirlar asosida, mavjud ma’lumotlarga tayangan holda har qanday jihatning hozirgi holati orqali ham o‘tmish va ham kelajak holatini aniq ko‘z oldiga keltiradi.

3. Jarayonga bo‘lgan kuzatuvchanligi uning keyingi hatti-harakatlari uchun yana bir asosdir. U o‘z oldiga aniq va muayyan maqsad qo‘yishga ko‘z oldidagi har qanday yaxlit predmetni qismlarga ajratish yoki bo‘lmasa ob’ektlarni taqqoslashni o‘rganadi. Bu uning faoliyatida o‘z ta’sirini ko‘rsatib boradi. Shu bois talabaning kommunikativligida uning kuzatuvchanligi bilan mushohada etishi rivojlanib boradi.

4. Tahsil oluvchilarning nutqiy aloqa o‘rnatish layoqatlarini takomillashtirish yana bir pedagogik-psixologik asosi bu idrok etishdir. Idrok etish orqali o‘quvchi ijtimoiy-jamiyatdagi, muhitdagi, odamlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni, aloqani tushunib yetadi. Shunchaki fikrlashdan chekinib, atroflicha ichki, tashqi bog‘lanishlarni, sabab-oqibat, munosabatlarini aniqlashtirib olishga imkoniyat qidiradi.

5. Xulosa chiqarish shunday jarayonki, bunda talabaning mustaqil fikrlashi yuzasidan ma’lum bir to‘xtamga kelinadi. Xususan, talaba o‘zidagi

ma’lumotni anglashi, tushunishi natijasida xulosa chiqarishga harakat qiladi. Har qanday xulosa asoslashni taqozo etadi. Zotan xulosa chiqarish uchun talaba pedagogik-psixologik asos sifatida talqin etiladi.

6. O‘quv-materiallari va mustaqil fikrlash uchun zarur bo‘lgan materiallarni xotirada saqlash jarayoni. Har qanday sharoitda mustaqil fikrlashning bu jihati bilan taqqoslash, tahlil etishga zamin yaraladi. Bu o‘z navbatida talabaning psixologik ta’sirlanishi uchun zaruriy imkoniyatdir.

7. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirishning yana bir jihati bu talabani qiziqtira olishdir. Talaba qiziqishi asosida mustaqil fikrlashga harakat qiladi, izlanadi va nimagadir erishish uchun intiladi.

Qayd etish kerakki, o‘quv-tarbiya jarayonida bo‘lgan turlicha yondoshuvlar mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda amaliyotga tatbiq etiladi va bu holatda turli xil usullarda qo‘yilgan maqsadga erishish muhim sanaladi.

Pedagogik texnologiya, Pedagogika tarixi, Ijtimoiy pedagogika kabi o‘quv kurslarini o‘qitish jarayonida talabalarning o‘quv biluv faoliyatlari quyidagicha tarkibiy tuzilishda kechadi:

1) Kuzatish;
2) Izlanish;
3) Alohidaliklarni sharhlash;
4) Qiyoslash;
5) Umumiylikni sharhlash;
6) Farqlarni sharhlash;
7) Tasnif etish;
8) Hukm chiqarish;
9) Aloqadorlikni aniqlash;
10) Qo‘llash.

Ijtimoiy-gumanitar ta’lim o‘quv dasturlari tuzishda, avvalo, talabalarning matn ustida ishlashi jarayonida umumiy taraqqiyoti hisobga olinadi. Bunda:

a) talabalarning tevarak-atrofdagi predmet hodisalar va ularning xilma-xilligi to‘g‘risidagi tasavvuri;

b) mana shu predmet-hodisalar orasidagi sabab, shart, qarama-qarshilik munosabatlarini to‘g‘ri farqlay olish qobiliyati;

v) o‘z his-tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalay olish va o‘z bilganlarini boshqalarga yetkaza olish malakalari.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish shakl va vositalari bilan bir qatorda metodlarining ham o‘ziga xos o‘rni mavjud ekanligini ta’kidlab o‘tish joiz. Zero, tanlangan metod orqali jarayonning sifati kafolatlanadi.

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga oid metodlarni quyidagicha tavsiflash mumkin. Metod – nazariy, amaliy, biluv, boshqaruv, maishiy tavsifdagi vazifalarni yechishning ma’lum yo‘li.

Ijtimoiy-gumanitar ta’lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda alohida o‘ringa ega bo‘lgan mazkur metod ular bilan ishlashda muhim o‘rin egallaydi. Binobarin, talabalarning ijodkorligi, izlanuvchanligi, bunyodkorligi va kashfiyotchiligi sifatlari ularning mustaqil fikrlashini oshiradi.

Umuman, fikrlash murakkab jarayon. Shu bois darslikda mustaqil fikrlashga yo‘naltirilgan matnni talabaning yoshi, fikrlash doirasiga mos bo‘lishiga e’tibor berish zarur. Chunki oddiy kitob o‘qish orqali bilimlar ko‘payib, fikrlash rivojlanib qolmaydi. Bu - shunday faol jarayonki, odam o‘qigan, mushohada qilayotgan manbasiga ma’lum ma’noda o‘z munosabatini bildira olishi kerak. Masalan, geografiya o‘quv fanining oddiy tushunchalaridan bo‘lgan «geografik o‘rin» tushunchasini o‘zlashtirish, egallash jarayonini olib ko‘raylik. Ushbu tushunchani o‘zlashtirish uchun talabaga ma’lum ob’ektlardan istalganining geografik o‘rnini ko‘z oldiga keltira bilishi kerak. So‘ng yangi ob’ekt geografik o‘rniga baho berishga o‘tiladi. Bunda «Xo‘sh, menga nima uchun bu narsa kerak?» degan ma’noda talaba o‘ziga savol berib, unga javob

topa olishi kerak. Bu mavzuni O‘zbekiston misolida havoning isishi yoki sovishi, sovuq havo massalarini yoki yog‘inlarni gorizontning qaysi tomonidan kelishi sabablarini anglash, tushunish uchun avvalo O‘zbekiston hududining fazoviy o‘rnini tasavvur eta olishi zarur. Aks holda mavzuni eslab qolish mushkul bo‘ladi. Demak, har qanday fikr qo‘zg‘alishi shaxsiy manfaatga aloqador bo‘ladi va har bir alohida fikrning ortida konkret odamning murakkab mushohada va mulohaza faoliyati yotadi (2.3.1-rasm).Talabaning mustaqil fikrlashga yo‘naltirishda uning yoshi, fikrlash darajasiga alohida e’tibor berish zarur.




**2.3.1-rasm. Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogik shart-sharoitlari.**

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishni pedagogik jihatdan ta’minlashda uzviylik tamoyillarining har biri yaxlit zanjirning xalqalari sifat tizim tashkil qiladi.

Didaktik ma'lumotlar mazmunining uzviylik tamoyiliga bo'ysungani talabalarda mustaqil fikrlashga bo'lgan maylning barqaror bo'lishiga xizmat etadi (2.3.2-rasm).

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish quyidagi besh muhim tamoyil zaminida amal qiladi:




**2.3.2-rasm. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish bosqichlarining uzviyligi yoki uzviy tafakkur piramidasi.**

1. O'quv dasturlarida berilgan mavzularning talabani mustaqil fikrlashga yo'naltirishi;

2. Talaba yosh xususiyati, imkoniyat darajalarining hisobga olinganligi;

3. Talabalarga beriladigan topshiriqlarning tizimga keltirilganligi;

4. Iqtidorli talabalar bilan ishlash hisobga olinganligi;

5. Talabalar kompyuter texnikasi bilan ishlash ko‘nikmasiga egaligi.

Ijtimoiy-gumanitar o‘quv fanlaridagi dasturlarda mavzularning sinflar kesimidagi uzviyligi, ketma-ketligi, mazmunan bir-biriga bog‘liqligiga asoslanadi.

Uchinchidan, borliqni yaxlit holatda, u aloqador shart-sharoitlardan ajratmay umumlashtirish, ya’ni tarkib topgan muayyan uyg‘unlik doirasida mushohada qilishni;

To‘rtinchidan, fikrlash vositasi hamda ob’ekti mustaqil fikrlovchining salohiyatiga mutanosib bo‘lishi, ya’ni fikriy bahsga rahnamo ustoz o‘zini talabaning darajasi – «qolipi»ga kirib so‘ng suhbatga, fikriy bahsga chorlashni;

Beshinchidan, aloqadorlikni keng qamrovdan izlashi, voqea, narsani u bilan aloqador makon va zamondan ayirmaslik, aks holda borliqni voqealikni idrok etish va unga xos hukm chiqarishni;

Oltinchidan, o‘rganilayotgan masalaga his-hayajon qo‘zg‘ovchi sharoit yaratishini; Bu fikrlashga rag‘batni oshiradi, fikriy zo‘riqishdan asraydi.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish darsga qo‘yilgan maqsadlar va ularning erishganlik darajasi bilan bog‘liklikda qaraladi (2.3.3-rasm)



**2.3.3-rasm. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda asosiy didaktik parametrlar**

Ta’lim mazmunini belgilab beruvchi asosiy omillardan biri o‘quv darsliklaridir. Darsliklarning davr talabi, jahon andozalariga mos keladigan darajada bo‘lishini ta’minlash bilan shug‘ullanish kundalik vazifaga, mas’uliyatga aylangan.

Ayni vaqtda har xil tushunchalarni jamlashtirgan har qanday o‘quv qo‘llanma, kino, xotiraga yozilgan ovoz kabilarni ham ta’lim deb biluvchilar yo‘q emas. Fikrimizcha ular umumiy ma’nodagi darslik ya’ni «ta’lim-tarbiya hodisasi qaratuvchi boshqaruv vositasi» bo‘lmaydi. Buning uchun ular ruhiyatshunoslik, pedagogika nazariyasi asosida didaktik sinovdan o‘tishi kerak.

Talabalarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish uchun darsliklarga bo‘lgan psixologik va pedagogik talablar, tamoyillar muhim o‘ring egallaydi (2.3.4-rasm).

Mazkur jarayon darslikni boyitish bilan birga keyingi chop etilgunicha bo‘lgan o‘tadigan 5 yil davomida bo‘ladigan o‘zgarishlarni davriy ravishda nternet resurslari hisobiga to‘ldirib borish imkoniyatini yaratdi.




**2.3.4-rasm. Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga bo'lgan psixologik va pedagogik talablar.**

Mavjud pedagogik texnologiyalar asosida o'quv materiallarini modellashtirish ta'lim jarayoniga qo'yilgan maqsadga erishishning ma'lum bir yo'lidir. Modellashtirilgan o'quv materialarida talabalar o'zlashtirishlari kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar aniqlashtiriladi. Modellashtirilgan texnologiyalarning aniq bir jihati beriladiki, bunda talabaning faolligini oshirish ta'minlanadi.

Tahsil oluvchilarni shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan debat, seminar, metodik ishlar ularning o'z kasbiy-shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy kompetensiyasini oshirish ustida faol ishlashini talab qiladigan texnologik yo'nalishlar va o'z-o'zini baholash parametrlari ishlab chiqilganligida aks etadi. Shu munosabat bilan biz shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan model ishlab chiqildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim texnalogiyalari orqali talabalarning kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirish modeli. (2.3.5-rasm)



Modelda ko‘rsatilgan shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasini qayd etilgan bosqichlarida amalga oshiriladigan har bir faoliyat natijasi aniq belgilanadi. Biz tadqiqotlar davrida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida talabalar kommunikativ qobiliyatlarini aniqlash mezonlarini ham o‘rganib chiqdik. Bunda ball me’yorlari quyidagicha asoslanildi:

**Talabaning ma’lumotlarni qabul qilishi.** Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida o‘quv fanlaridan beriladigan mavzular yo‘nalishdagi ma’lumotlarni talabalarning qabul qilishi maksimal 1 ball bilan baholanadi va o‘zlashtirish darajasida 10% tarzida qayd etiladi. O‘z navbatida bu ma’lumotlarni qabul qilishning uch darajasini ajratib belgilaymiz:

1-bosqich ma’lumotlarda qayd etilgan raqamlar va sanalarni to‘liq qabul qilishi, tushunishi va anglashi -0.40 ball

2-bosqich talabaning voqea-hodisalarni to‘laqonli tushunib olishi-0.40 ball

3-bosqich mavjud ma’lumotlarni berilgan vaqtning o‘zida o‘zlashtira olishi - 0.20 ball. Jami 1 ball bilan baholandi.

Bunda talabalarning mustaqil fikrlash kompetensiyasi aniqlanayotganligiga asosiy e’tibor qaratilishi lozim bo‘ladi.

Shu bois birinchi bosqichda 0.4%, ikkinchi bosqichda 0.6%, uchinchi bosqichda 0.2%, umumiy 10% etib belgilandi.

O‘qitish jarayonida o‘quv fanlarining maqsadi va vazifalariga; mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlariga; fanlararo bog‘lanish masalalariga; o‘qitishning samarali vositalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarining qo‘llanilishi, mashg‘ulotlarning rang-barangligiga, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasini qayd etilgan bosqichlarida amalga oshiriladigan har bir faoliyat natijasi ko‘rsatiladi. Dars mavzusi maqsadidan kelib chiqqan holda tayyorlangan modellashtirish texnologiyalari orqali o‘quv

materilalarini to‘laqonli o‘zlashtirilishiga erishiladi. Xususan, umumlashtiruvchi darslar ijtimoiiy gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida katta tayyorgarlikni talab etadi. Umumlashtiruvchi darslar o‘z mazmuni, maqsadi va vazifalari bilan odatdagi darslardan farqlanadi. Negaki, bu xildagi darslar bilimlarni umumlashtirishni, takrorlash va mustahkamlash maqsadi atrofida birlashadi. Ba’zida o‘qituvchilar tomonidan bu kabi darslarning e’tiborsiz qoldirilishi, umumiy takrorlanish bilan chegaralanishi o‘quv materiallarining to‘laqonli va yaxlit holdagi o‘zlashtirilishini kuzatishga imkoniyat bermaydi. Bu kabi darslarning samaradorligini ta’minlash uchun modelllashtirish texnologiyasidan foydalanish samarali natija beradi. Quyida keltirilgan umumlashtirish darslari texnologiyalaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarining qo‘llanilishi, mashg‘ulotlarning rang-barangligiga, noananaviy tarzda tashkillashtirilgan dars qo‘llanmalarining tushunarli egallashlariga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

O‘qitish jarayonida o‘quv fanlarining maqsadi va vazifalariga; mavzular o‘rtasidagi bog‘liqlik jihatlariga; fanlararo bog‘lanish masalalariga; o‘qitishning samarali vositalaridan foydalanishga alohida e’tibor qaratish kerak.

Ta’lim jarayonida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalarining qo‘llanilishi, mashg‘ulotlarning rang-barangligiga, qiziqarli tarzda tashkil etilishiga olib kelishi bilan o‘quv materiallarining chuqur o‘zlashtirilishiga ham keng imkoniyatlar yaratadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyasini qayd etilgan bosqichlarida amalga oshiriladigan har bir faoliyat natijasi ko‘rsatiladi. Dars mavzusi maqsadidan kelib chiqqan holda tayyorlangan modellashtirish texnologiyalari orqali o‘quv materilalarini to‘laqonli o‘zlashtirilishiga erishiladi. Xususan, umumlashtiruvchi darslar ijtimoiiy gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida katta tayyorgarlikni talab etadi. Umumlashtiruvchi darslar o‘z mazmuni, maqsadi va vazifalari bilan odatdagi darslardan farqlanadi. Negaki, bu xildagi darslar bilimlarni umumlashtirishni, takrorlash va mustahkamlash maqsadi atrofida birlashadi.

Ba'zida o'qituvchilar tomonidan bu kabi darslarning e'tiborsiz qoldirilishi, umumiy takrorlanish bilan chegaralanishi o'quv materiallarining to'laqonli va yaxlit holdagi o'zlashtirilishini kuzatishga imkoniyat bermaydi. Bu kabi darslarning samaradorligini ta'minlash uchun modelllashtirish texnologiyasidan foydalanish samarali natija beradi. Quyida keltirilgan umumlashtirish darslari texnologiyalaridan ijtimoiy-gumanitar fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tahsil oluvchilarni shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan debat, seminar, metodik ishlar ularning o'z kasbiy-shaxsiy imkoniyatlari, kasbiy kompetensiyasini oshirish ustida faol ishlashini talab qiladigan texnologik yo'nalishlar va o'z-o'zini baholash parametrlari ishlab chiqilganligida aks etadi. Shu munosabat bilan biz shaxsga yo'naltirilgan texnologiya asosida talabalarning kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan model ishlab chiqildi (2.3.6-rasm)

**Umumlashtirish darslarini modellashtirish texnologiyasi**

**Maqsad:**

Amaliy-nazariy tushunchalarni shakllantirish, hayotiy ko'nikmalarni hosil qilish

**Jarayonlar:**

**Tayyorgarlik jarayoni:**

1-bosqich: Mazmun jihatdan umumiy bo'lgan mavzular saralandi

2-bosqich: Boshqa mavjudlardan keskin farq qiluvchi yaxlitligini talqin etuvchi jihatlar ajratiladi.

4-bosqich: Talabalar mustaqil fikrlash kompetensiyasi jihatdan uch guruhga o'qituvchi tomonidan ajratiladi:

a) Keng fikrlovchi qo'shimcha manbalar asosida, o'quv materialini to'laqonli

o‘zlashtirgan talabalar

b) O‘quv materialini to‘liq o‘zlashtirgan talabalar

v) O‘quv materialini talab darajasida o‘zlashtira olmaydigan talabalar

5-bosqich: Yuqoridagi tartibda guruhlangan talabalarning har bir guruhiga oid topshiriqlar ishlab chiqiladi bunda uning javobi uchun ham joy tayyorlanadi

6-bosqich: Talabalarga darsdan oldin vazifa, ya’ni mavzularni takroran qayd etib, to‘laqonli tanishib kelish topshirig‘i beriladi.

7-bosqich: Bo‘lim yuzasidan umumiy tarzdagi ma’lumotni beruvchi 5-7 daqiqalik kichik ma’ruza va uning ko‘rgazmasi (elektron slayd) tayyorlanadi;

**Dars jarayoni**

1-bosqich: Darsning tashkiliy qismi o‘tkaziladi

2-bosqich: Talabalarning har biriga mo‘ljallangan topshiriqlar o‘qituvchi tomonidan tarqatiladi va bajarish tartibi tushuntiriladi.

3-bosqich: Talabalar topshiriqlarni bajarishlari uchun 5 daqiqa vaqt belgilanadi (topshiriq tarqatilgan tarqatmada javob uchun joy belgilanadi)

4-bosqich: Vaqt yakunlangandan so‘ng talabalarning ishlarini o‘qituvchi belgilagan talabalar tekshirishi qayd etilib, e’lon qilinadi. Bunda hech bir talaba e’tibordan chetda qolmay, yuqoridagidek guruhlantirilgan tarzda bir-birlarining javoblarini tekshiradilar (a guruhdagi talaba faqat a guruhdagi sherigining, b guruhdagi talaba faqat b guruhdagi talabaning, v guruhdagi talaba faqat v guruhdagi talabaning ishini tekshirishiga o‘qituvchi tomonidan yo‘naltiriladi.

5-bosqich: talabalarning sheriklari javoblariga izohi eshitiladi, zaruriy holatlarda boshqa talabalardan ko‘mak so‘raladi

6-bosqich Talabalar bilan bahs-munozara jarayoni tashkil etiladi:

Sizningcha eng to‘g‘ri, to‘laqonli javob bergan talabamiz kim?

Nima uchun?

Siz berilgan imkoniyatdan to‘g‘ri foydalandingizmi?

7-bosqich O‘qituvchi tomonidan mavzuga oid umumlashtirish yuzasidan kichik ma’ruza tashkil etiladi, talabalarning savollari eshitiladi, javob beriladi. Shundan

so‘ng o‘qituvchi talabalarning umumlashtirish darsidagi ishtirokini baholaydi. Bunda uchta guruhdagi talabalar bir-biriga qiyoslangan holda baholanadi.

**Xulosalash jarayoni**

1-bosqich: O‘qituvchi barcha talabalarning bajargan ishlarini yig‘ib oladi

2-bosqich: Tahlil qilgan holda har bir guruh yo‘nalishidagi talabalarning tarkibidan takrorlangan bo‘lim yuzasidan qo‘shimcha ishlanishi lozim bo‘lgan talabalar ro‘yxati tayyorlanadi

3-bosqich: O‘zlashtirishda qiynalgan talabalar uchun darsdan keyin qo‘shimcha mashg‘ulot o‘tkazish rejalashtiriladi.

**Natija:**

1.Belgilangan mavzular yuzasidan talabalar o‘z fikr-mulohazalarini bayon etadilar, mavjud noaniqliklar, kiritilishi mumkin bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar, o‘zlashtirilishi lozim bo‘lgan bilimlar yuzasidan o‘z qarashlarini taqdim qiladilar.

2. O‘qituvchi talabalarni guruhlarga ajratgan holda ulardagi mavjud bo‘shliqlarni to‘ldirish, mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish bosqichlarini belgilab oladi.

3. Talaba yoshi, qobiliyati, iqtidori, ehtiyoji, qiziqishlarining aniq holati bilan tanishish imkoniyati yaratiladi.

Mazkur modellashtirish iqtidorli talabalar bilan ishlash, bo‘sh o‘zlashtiruvchi talabalar o‘zlarini jarayondan chetda his qilishlarining oldini olishga xizmat qiladi.

Berilgan shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalaridan amaliyotda foydalanilganda quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

1. Talabalarning fanga bo‘lgan qiziqishini oshiradi
2. O‘quv materiallarining to‘laqonli o‘zlashtirilishiga erishiladi
3. O‘qituvchi mehnatini yengillashtiradi

4. Talabalarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga shart-sharoit, imkoniyat yaratiladi.

Taklif etilayotgan model ijtimoiy-gumanitar fanlarni oʻqitish jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish ehtiyojlari, manfaatlari, motivlari, qadriyatli yoʻnalishlaridan tortib to xulq-atvordagi va faoliyatdagi mustaqil fikrlash kompetentligining namoyon boʻlishigacha jarayonlarni qamrab oladi.

Shaxsga yoʻnaltirilgan oʻqitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga oid mezonlar aniqlashtirildi. Buning uchun topshiriqlar talabalarning mashgʻulotlar vaqtida oʻquv matni ustida ishlash, qarorlar qabul qilishda soʻz birikmalaridan foydalanish qobiliyatlarini takomillashtirish, kompetentlik omillarini rivojlantirish asosida kengaytirilgan axborotlarni interpretatsiya qila olishga yoʻnaltirildi.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashgʻulotlar mobaynida muhim sifatlar: empatiya, tolerantlik kabi fazilatlarda moʻjassam boʻlgan kross-madaniy yondashuvga ham tayanildi.

Taraqqiyot sari intilgan davlat borki, talabalarda mustaqil fikrlash kompetensiyasini peshlaygan jarayonning takomillashuviga doimo eʼtibor qaratadi. Fikrimizni taʼlim muassasalari, hatto oila va mahalla faoliyatiga aloqador qonunlar, tartib-qoidalar tasdiqlashi mumkin.

Talabalarda kommunikativlik koʻnikmalarini rivojlantirishda, xususan:

1. Modelning amaliyotdagi natijaviyligiga;

2. Modelning millliy qadriyatlarimiz va anʼanalarimizga mosligiga;

3. Modelni tatbiq etish davomida uchrashi mumkin boʻlgan toʻsiqlarni oʻrganishga;

4. Modelning tatbiq etuvchilar uchun qulayligiga;

5. Modelning shaxsni mustaqil fikrlashga yoʻnaltirishi kafolatlanishiga eʼtibor qaratildi.

## IKKINCHI BOB YUZASIDAN XULOSALAR

Respublikamizdagi zamonaviy ta’limda o‘qitish modellarini texnologik taraqqiyot g‘oyalari bilan uyg‘unlashtirish, xususan, innovatsion ta’lim texnologiyalari va pedagogik modellardan foydalanish uchun o‘qituvchilar mas’uligini oshirish, ta’lim jarayonlarini raqamli texnologiyalar asosida individuallashtirishga ham alohida ahamiyat qaratish lozimligi ayon bo‘ldi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish kredit-modulli tizimda kechishini kuzatib, bu jarayonda mamlakatimiz OTMlaridagi mavjud holat o‘rganildi. Buning uchun tavsiya etilayotgan texnologiyani joriy etish, HEMIS platformasi bo‘yicha ta’lim sifatini oshirish, mobil ta’limni jahon zamonaviy talablari asosida rivojlantirishga mo‘ljallangan jarayonlar me’yoriy hujjatlar yordamida tashkil qilindi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga oid mezonlar aniqlashtirildi. Buning uchun topshiriqlar talabalarning mashg‘ulotlar vaqtida o‘quv matni ustida ishlash, qarorlar qabul qilishda so‘z birikmalaridan foydalanish qobiliyatlarini takomillashtirish, kompetentlik omillarini rivojlantirish asosida kengaytirilgan axborotlarni interpretatsiya qila olishga yo‘naltirildi.

Talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun mashg‘ulotlar mobaynida muhim  sifatlar: empatiya, tolerantlik kabi fazilatlarda mujassam bo‘lgan kross-madaniy yondashuvga ham tayanildi.

## III BOB. SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN O‘QITISh TEXNOLOGIYALARI ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISh SAMARADORLIGI

### 3.1-§ Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarini tashkil etish metodikasi

Dastur asosida maxsus texnologiyadan foydalanilganda talaba shaxsi ijodkorlik ob’ekti darajasidan ijodkor subekt darajasigacha ko‘tarildi. O‘quv materiali ijodkorlik, yaratuvchanlik maqsadiga erishish vositasiga aylandi. Tavsiya etilayotgan texnologiya talabaning nutqiy qobiliyatlarini o‘stirish, yangi kerakli bilim olish, yaratish va ishlab chiqarishga qaratilgan. Tajriba mobaynida talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish uchun quyidagilar zarur bo‘ldi:

- ta’limga nisbatan yangi mentalitetni shakllantirish;
- tizimli fikrlash, nostandart g‘oyalarni yaratish va original yechimlarni qabul qilish orqali kommunikativ qobiliyatini rivojlantiruvchi metod sifatida tizimli va programma-algoritmik yondashishdan foydalanish;
- texnika-texnologiyaga oid tizimli fikrlashni shakllantirish va yaratuvchanlik qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonlarini, shuningdek tegishli motivatsion sohani aniq maqsadga yo‘naltirgan holda boshqarish;
- shaxsning tizimli fikrlashi, nazariy o‘qitishni malakaviy amaliyot bilan uzviy birlashtirish yo‘li bilan kasbiy qiziqishni rivojlantirish va h.k.

Talabalar o‘zlashtirgan pedagogika sohasiga oid bilimlarni baholash uchun quyidagi mezonlar ishlab chiqildi:

- tadqiqot ob’ektini fikran yoki amalda tarkibiy qismlarga ajratib, tizimli tahlil qilish;
- axborot hajmi yetarli bo‘lmagan holda noaniq muammoli vaziyatdan masalalarni belgilab olish va to‘g‘ri izohlash;

- hal etiladigan muammo bo‘yicha ilmiy-texnik axborotni aniq maqsad yo‘nalishida izlash;

- nostandart original g‘oyalarni yaratish va farazlarni oldinga surish;

- mumkin bo‘lgan barcha variantlarni har tomonlama ob’ektiv baholash asosida ular ichidan ratsional yechimni aniq maqsadli izlash;

- tizimli tadqiq natijalari bo‘yicha xulosa va takliflarni bir ma’noli ifodalash;

- tadqiqot ob’ektlarining rivojlanishini bashorat etish;

- muammoni yechishda yuzaga keladigan ziddiyatlarni nostandart topish, shakllantirish va hal etish va h.k.

Tajriba-tadqiqot ishlari asosan talabalarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish orqali amalga oshirildi. Buning uchun tadqiqot dasturi tayyorlanib, unda talabaning ijodkorligini uyg‘otish va uning o‘zida bor bo‘lgan ijodiy imkoniyatni rivojlantirish maqsad qilib quyildi. Dastur asosida maxsus texnologiyadan foydalanilganda talaba shaxsi ijodkorlik ob’ekti darajasidan ijodkor subekt darajasigacha ko‘tarildi.

Tajriba-sinov ishida 5110900-“Pedagogika va psixologiya” ta’lim mutaxassisligining 2- bosqich talabalariga shaxsga qaratilgan o‘qitish texnologiyasi qo‘llanildi. o‘quvchining muhit, madaniy rivojlanish kammunikativ layoqatlilikni takomillashtirish, talabaning mavjud tushunchalarini faollashtirishga va yangilarini (ba’zan, mustaqil ta’lim yo‘li bilan) olishiga yo‘naltirildi.

Biz tajriba-tadqiqot ishlarimizni Guliston davlat Unversiteti, Navoiy pedagogika instituti va Jizzax davlat pedagogika universitetlarida 2020-2022 yillarda amalga oshirilib, jami  576 nafar respondent talabalar va professor-o‘qituvchilar jalb qilindi. Bunda maxsus ishlab chiqilgan dastur maqsadi: kutilayotgan natijani qo‘lga kiritish; tavsiya va takliflar ishlab chiqish; tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish; tajriba-sinov maydonini yaratish; taklif qilingan metodikaning samaradorligini aniqlash; statistik tahlillar o‘tkazib, xulosa va takliflar ishlab chiqish, etib belgilandi.

Quyida asoslovchi tajriba ishi mazmuniga to‘xtalib o‘tamiz:

1. Ilmiy tatqiqot faoliyatining tashkillashtirilishi;
2. Amaliy harakatni yo‘lga qo‘yish;
3. Tajriba maydonlarida amaldagi ishlar jarayoni;
4. Kelajakdagi harakatlar.

Metadologik tajriba natijalarining muayyan reja asosida tashkillashtirilishi ushbu tatqiqot foydali tarafini taminlaydi. Ushbu bosqichda tatqiqot ishlarini yo‘lga qo‘yish sharoit yaratuvchi tajriba joylari tanlanadi; tajriba joylari tariqasida belgilangan oliy talim dargohlarining raxbar xodimlari, shu jumladan, o‘quv dargohlarida ilmiy faoliyat va ularning tashkillashtirilishi uchun ma’sul bo‘lgan vakillarning hayrihohligi asosida tajriba-sinov jarayonining umumiy davri va bosqichlari rasmiylashtirildi.

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish borasida tashkil etilgan amaliy faoliyat uchun ob’ekt (tajriba maydoni) sifatida Jizzax davlat pedagogika universitetining Pedagogika, Guliston davlat Unversitetining «Pedagogika va psixologiya» Navoiy davlat pedagogika institutining «Pedagogika va psixologiya» fakultetlari tanlandi.

Tajriba maydonlarida amalga oshirilgan sinov ishlari “Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish” nomli maxsus dastur mazmuni va tajriba-sinov maydonlari sifatida tanlangan oliy ta’lim muassasalarining o‘quv va tarbiyaviy ishlar rejasiga muvofiq amalga oshirildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyasi o‘quv jarayonining yangi loyihasini ifodalovchi ta’lim tamoyillariga asoslangan bo‘lib, talaba shaxsiga yo‘naltirildi. Bunda, o‘qituvchi va talabalarning o‘zaro hamkorligi, muloqoti, ularning bir-biriga ko‘rsatadigan ta’siri, talabalarda insoniylik xislatlarini shakllantirishga xizmat qilishga erishildi. Bunday do‘stona munosabat jarayonida talabalarda hamkorlikda ishlash ko‘nikmalari shakllanadi.

Tajriba-sinov ishlarini izchil, tizimli yo‘lga qo‘yish maqsadida “Pedagogika nazariyasi va tarixi”, “Pedagogik mahorat va texnologiyalar”,

“Xalq pedagogikasi”, “Qiyosiy pedagogika”, “Ijtimoiy pedagogika”, “Oila pedagogikasi” kabi fanlarning bu boradagi imkoniyatlari o‘rganildi.

Ilmiy tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirishda nazarda tutilgan yetakchi maqsad o‘quv dargohlarining talimiy-tarbiyaviy holatlaridan kelib chiqqan holda oliy ta’limda o‘qitiladigan o‘quv rejalarida va o‘quv rejadan tashqari tarbiyaviy ishlarda talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish iborat bo‘ldi. Bu maqsadni joriy etilish maqsadida quyidagi vazifalar hal etildi:

1. Pedagogika sohasiga oid materiallar asosida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish;

2. Pedagogika turkum fanlari tarkibiga kiruvchi o‘quv kurslarida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan metodlarni aniqlash, ularni ta’lim jarayoniga tatbiq qilish;

3. Talabalar tomonidan nazariy jihatdan kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanishi – pedagogik texnikani mukammal o‘zlashtirishga yordam berishini anglanishiga erishish.

Amalga oshirilgan tajriba-sinov natijalari Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishda o‘quv-biluv jarayonini shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar vositasida samarali tashkil etish,  ta’lim shakllari, metodlari va vositalarini oqilona tanlash muhim ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatdi:

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish pedagogik faoliyatning turli shakl, metod va vositalar asosida amalga oshirilishi talabalarda bu borada uyushtirilayotgan tadbirlarda faol ishtirok etishga ko‘maklashadi.

O‘quv tahlil etish (kuzatish), dialogik metod (suhbat) mahorat kurslari, so‘rovnoma hamda test savollarini tashkil qilib, tadqiqotni amalga oshirdik. Tajriba-sinov ishlarini tashkillashtirishda intervyu, debat, amaliy treninglardan foydalandik. Shuningdek, ko‘rgazma tashkillashtirishda, ekskursiya, tanlov, ma’ruza kabi shakllardan foydalanildi;

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalar orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarini amalga oshirish maqsadida 52 soatlik (26

soat ma’ruza, 26 soat amaliy mashg‘ulot) “Pedagogik texnika” mavzusidagi tanlov fan sifatida Jizzax DPI va  Guliston davlat Unversiteti, Navoiy instituti talabalariga to‘garak mashg‘uloti sifatida o‘qitildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalar orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish hikoya qilish, tushuntirish, ko‘rgazmalilik, amaliy mashg‘ulot, rolli-ishchan o‘yinlar, “FSMU”  kabi metodlar orqali amalga oshirildi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalar orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyatini ta’minlashda tajriba-sinov ishlarining mazmunan va usluban bir-birlarini to‘ldirishlariga alohida e’tibor qaratildi. Shuningdek, amaliy tadbirlarning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida ularning yakunida respondent-talabalar ishtirokida munozaralar tashkil etib borildi.

Amaliy tadbirlarning samaradorlik darajasini aniqlash maqsadida ularning yakunida respondent-talabalar ishtirokida munozaralar tashkil etib borildi.

Shaxsni tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik faoliyatning muhim jihati sifatida namoyon bo‘ladigan audutoriyadan tashqari sharoitda va talabalarning ommaviy ishtirokiga asoslangan holda uyushtiriladigan tadbirlar talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratdi.

Fan rejalarini o‘rganish yuqorida zikr etilgan o‘quv qo‘llanmalarining tatqiqot kanfilektini bartaraf etishda kerakli sharoitga egaligi bilan xarakterlanadi.

Ta’lim jarayonining turli shakil, usul va vosital asosida tashkillashtirilgan o‘quvchilarda bu borada tashkillashtirilgan anjumanlarda faol qatnashishga qiziqish uyg‘otadi.

Aniqlovchi-ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlarini o‘tkazishda quyidagi metodlardan foydalanildi: tadqiqot muammosi bo‘yicha pedagogik-psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil  qilish, horijiy ilg‘or tajribalarni o‘rganish; ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabaning mustaqil fikrlash

kompetensiyasini rivojlantirish jarayonini o‘rganish va tahlil qilish, kuzatish; suhbat va anketa so‘rovlarini o‘tkazish; tahlil qilish va shular asosida xulosalar chiqarishga e’tibor qaratildi.

Aniqlovchi-ta’kidlovchi tajriba-sinov ishlari natijalari quyidagi yo‘nalishlarda tahlil etildi: ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabaning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish ehtiyojlarini analizlash; tajriba -sinov faoliyati hodisasida ayon bo‘lgan kamchiliklarini hal etish metodlarini belgilash.

Qolibga soluvchi tajriba-sinov ishlari davomida tajriba guruhlaridagi natijalarni umumlashtirib tahlil qilish; tajriba-sinov ishlari jarayonida ma’lum bo‘lgan kamchiliklarni bartaraf etish yo‘llarini aniqlash; olingan natijalarga ko‘ra ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalarni takomillashtirish.

Shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlarida obzor, anketa, suhbat, intervyu, savol-javob metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalarni metamatik statistika metodi yordamida tahlil qilish va umumlashtirish nazarda tutildi.

Yakunlovchi tajriba-sinov ishlarida shaxsga yo‘naltirilgan texnologiyalar asosida talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda ijtimoiy gumanitar ta’limning qanday shakllari asqotdi? savoliga 32% o‘qituvchi noan’anaviy, 46% yangicha, 22% an’anaviy deya javob bergan.

2. Talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda foydalaniladigan ta’limiy metodlardan qaysi birini samarali hisoblaysiz? savoliga o‘qituvchilarning 31% bahs-munozarani, 25% suhbatni, 24 % kichik guruhlarda ishlashni, 12% muammoli o‘qitish hamda loyihalash metodini, 8% ma’ruzani keltirgan.

3.Mashg‘ulot jarayonida talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishda qanday didaktik vositalarni samarali hisoblaysiz? savoliga sifatli o‘quv materiallarini 46% o‘qituvchi, ko‘rgazmalilikni 28% o‘qituvchi, talabalar tomonidan tayyorlangan manbalar deya 26% o‘qituvchi ko‘rsatgan.

O‘tkazilgan so‘rovnoma natijasi shuni tasdiqlaydiki, ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabalar kommunikativ qobiliyatlarini

rivojlantirishda o‘qituvchilar uchun o‘quv-metodik materiallarni tayyorlash va uni amaliyotga tatbiq etish o‘z samarasini berdi.

Tadqiqotni audutoriya va audutoriyadan tashqari sharoitlarda amalga oshirish imkoniyatlaridan keng foydalanildi va ыuyidagilar aniыlandi: oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, respondent-talaba hamda o‘qituvchilar ishtirokida suhbat, davra suhbati, debat, bahs-munozara, ma’ruza, konferensiya, amaliy seminar va treninglarni tashkil etish, asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalarini inobatga olish, talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlardan keng foydalanish maqsadga muvofiq.

Talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan o‘quv materiallari hamda ta’lim modellarining samaradorligini biz quyidagi mezonlar bo‘yicha baholadik:

Ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonida talabalar kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy besh mezon bilan aniqlanadi:

1. Talabaning ma’lumotlarni qabul qilishi

2. Talabaning ma’lumotlarni tahlil etishi va qiyoslashi

3. Talabaning manbalar asosida qo‘shimacha ma’lumotlar bera olish darajasi

4. Talabaning fikrini bayon qilishi, asoslay olishi

5. Talabaning ma’lum bir vaziyatlar, muammolar yuzasidan qaror qabul qilishi

Bunda har bir parametr 1 baldan umumiy holatda besh ball bilan quyidagi tartibda baholanadi

**3.1.1-jadval**

**Talabalar kommunikativ ko‘nikmalarini rivojlantirishda baholash mezonlari**

| T.r | Baholash parametri | Ball |
|---|---|---|
| 1. | Talabaning ma’lumotlarni qabul qilishi | 1 |
| 2. | Talabaning ma’lumotlarni tahlil etishi va | 1 |

| | | |
|---|---|---|
| | qiyoslashi | |
| 3. | Talabaning manbalar asosida qo‘shimcha ma’lumotlar bera olish darajasi | 1 |
| 4. | Talabaning fikrini bayon qilishi, asoslay olishi | 1 |
| 5. | Talabaning ma’lum bir vaziyatlar, muammolar yuzasidan qaror qabul qilishi | 1 |
| | Jami | 5 ball |

O‘zlashtirish darajasi 100 % deb olinganda har bir parametr 20 % bilan belgilanadi. Bunda parametrning 1 tasi aniqlanganda 10 %, 2 tasi aniqlanganda 40 %, 3 tasi mavjudligi aniqlanganda 60 %, 4 tasi aniqlanganda 80%, 5 tasi to‘laqonli mavjudligi aniqlanganda 100% tarzida belgilanadi.

Shunday qilib, talabalarning ijtimoiy-gumanitar fanlarni o‘qitish jarayonidagi bilim, ko‘nikma va malakalari 1, 2, 3, 4, 5 gacha qo‘yilgan ballar, ularning o‘zlashtirish imkoniyatlarini ifodalovchi ballar bo‘lib, ularning yig‘indisi 3-3,5 balga yetganda talabaning kommunikativ ko‘nikmalari yetarli deb baholanadi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlarning samaradorligini aniqlash uchun talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini belgilovchi indikatorlar ishlab chiqildi (3.1.2-jadval).

**3.1.2-jadval. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish indikatorlari**

| № | Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganligini belgilovchi ko‘rsatkichlar | **Kutiladigan natija** | **Indikatorni baholash** |
|---|---|---|---|
| 1 | o‘quv materiali bo‘yicha pedagogik kategoriyalar talqinini ravon bayon eta oladi | Kommunikativlikni rivojlantirish | 1-10 ballgacha |
| 2 | o‘quv materiali bo‘yicha pedagogik bog‘liqlik va munosabatlar miqdorini anglaydi | O‘z fikrini mustaqil bayon eta olish | 1-10 ballgacha |

| | | | |
|---|---|---|---|
| 3 | bilimlarning mustahkamligini bayon etilgan fikrlari asosida asoslaydi | O‘quv materialida taqdim qilingan g‘oyalarni tahlil etish, qiyoslash | 1-10 ballgacha |
| 4 | Pedagogik atamalar, kategoriyalar ta’rifini to‘g‘ri talqin etadi | oilada salbiy tamonga yo‘naltiruvchi hatti harakatlarni inkor etadi, ijobiy faoliyatga yetaklovchi amalni qabul qiladi. | 1-10 ballgacha |
| 5 | Ta’lim-tarbiya qonuniyatlari, tamoyillari, metodlari tavsifini biladi va hayotda qo‘llay oladi | ijtimoiylashishdan maqsadini aniq belgilaydi, hayotini ijobiy tashkillashtira oladi | 1-10 ballgacha |
| 6 | Mutafakkirlar ijodida pedagogik g‘oyalar, qarashlar, pedagogik konsepsiyalar mohiyatini teran anglaydi va ularni bayon qilishda asosli dalillarni keltira oladi | asl insoniy fazilatlarning o‘zviy birlik, mushtaraklik kasb etishini anglash, jamiyat ehtiyojlarini qondirish | 1-10 ballgacha |
| 7 | nazorat topshiriqlarini bajarish tezligi yetarlicha | Kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish | 1-10 ballgacha |
| 8 | o‘zlashtirilgan bilimlarning qo‘llay olishligi | Pedagogik texnika sirlarini anglash | 1-10 ballgacha |
| 9 | Nutqining jozibadorligi, ta’sirchanligi | Pedagogik texnikani egallash | 1-10 ballgacha |
| 10 | Ifodali nutqqa egaligi | Pedagogik texnikani egallash | 1-10 ballgacha |

Bu qonun xulosalash ko‘rsatkichi tariqasida o‘quvchilar tamonidan tushunchalar doirasidagi tushunib yetilgan uzviylik va aloqalar o‘lchovining o‘quv dasturlarida mavjud bo‘lgan uzviylik va aloqalar o‘lchovi olinadi; a)

*kommunikativ qobiliyatlarning shakllanganligi*; b) *pedagogik texnikani egallaganligi; s) ilmiy tushunchalarning* barqarorligi va boshqalar. Mazkur tahliliy ko‘rsatma o‘quvchi tamonidan egallangan ilmiy tushunchalarni tajriba sinov ishlarining oxiriga ko‘ra davomiy xotirada ushlab turishi darajasi bilan aloqador ko‘rsatkich hisoblanadi.

Biz aniqlagan indikatorlarni ikkala toifa respontentlarda ham rivojlantirish va takomillashtirish bo‘yicha qo‘yidagi ishlar amalga oshirildi: tajriba-sinov ishlari loyihalashtirildi (tadqiqot olib borish dasturi, so‘rovnomalar, o‘quv materiallari, test variantlari, mashg‘ulot ishlanmalari; ta’limning texnologiyalari, usullari, didaktik materiallar, natijani matematik-statistik tahlil qilish usullari aniqlandi); tajriba-sinov ishlari olib borilgan OTM lari talabalarida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan pedagogik texnologiyalar tizimlashtirildi va pedagogika turkum fanlarini o‘qitadigan professor-o‘qituvchilar hamda shu yo‘nalishda tahsil oluvchi talabalar o‘rtasida tadqiqot boshida va tadqiqot oxirida so‘rovnomalar o‘tkazildi.

Tajriba guruhlari talabalari orasida multimediali ilovalarning xam ahamiyati nihoyatda katta bo‘ldi.

Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun nutqni tezkor o‘stirish uchun multimediali o‘qitish vositalariga ham murojaat etildi. Bular: *annimatsion slaydlar, videoroliklar, grafik chizmalar, jadvallar, ovozli roliklar, rangli tasvirlar*dan foydalanish orqali talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga erishildi.

Tavsiya etilayotgan metodika asosida talabalar o‘zlashtirilgan leksik vositalarni kontekst (matn)da qo‘llay olishi; mavzuga oid pedagogik atamalarni kommunikativ vaziyatlarda qo‘llay olishi; ba’zi baynalminal so‘zlar va turdosh kategoriyalarni farqlay olishi ko‘nikmalarining rivojlanganlik darajasi tahlil etib borildi.

### 3.2-§. Shaxsga yo‘naltirilgan o‘qitish texnologiyalari orqali talabalarning kommunikativ qobiliyatlarining rivojlantirishga yo‘naltirilgan tajriba-sinov ishlarining statistik tahlili

Tajriba-sinov ishlari sifatiga ta’sir qiluvchi bir qancha ob’ektiv hamda sub’ektiv omillar mavjud. Jumladan, tajriba-sinov o‘tkazuvchi tadqiqotchining xohish-istaklari, uning intiluvchanlik darajasini sub’ektiv omillar qatorida, tajriba-sinov ishlariga qo‘yiladigan me’yoriy-huquqiy hamda pedagogik-psixologik talablarni ob’ektiv omillar qatorida qayd etish mumkin. Bu kabi talablar asosida: tajriba-sinov ishlarining turi (izlanuvchi, tasdiqlovchi, shakllantiruvchi, asoslovchi), ko‘lami (respublika, mintaqa, viloyat yoki shahar va tuman darajasida), tajriba-sinov ishining miqyosi (muddati, o‘quv materialini hajmiga ko‘ra bir qancha mavzular, semestr, o‘quv yili, bir necha yilni qamrab oluvchi), tajriba-sinov jarayonining barcha ishtirokchilarini belgilab olishga e’tibor qaratildi.

Taqdim qilingan kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirishga mo‘ljallangan topshiriqlar asosida talabalar:

1) Inavatsion pedagogik ta’limiy lug‘attlarni;

2) Leksik materialning avtomatik tarzda o‘rganishga hozirlik ko‘rish;

3) Eslay olish qobiliyati asosidagi monologik nutqni o‘stirish;

4) O‘qish texnikasini shakllantirish va rivojlantirish;

5) Og‘zaki nutq texnikasini shakllantirish;

7)Xotira mashqlarini o‘tkazish;

8)Diqqat va idrokni jamlash ko‘nikmalarini shakllantirish;

9)Mantiqiy mushohada qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishga o‘rgandilar.

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish uchun belgilangan tajriba-sinov ishlari pedagogik tajriba-sinov ya’ni pedagogik tafakkur metodi, nazariy metodik, empirik (amaliy faoliyat) metodlar asosida tashkil qilindi.

Pedagogik tajriba-sinov asosida kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish shart-sharoitlari, jarayonlar va uslubiy yondashuvlar orasidagi sabab-oqibatli aloqadorlikni aniq rejalar asosida oydinlashtirish imkoniyatini berdi.

Tajriba-sinov ishlarining yana bir muhim jihati shundaki kutiladigan natijalarni baholash mezonlari ishlab chiqildi. Ushbu mezonlarni ishlab chiqishda tajriba-sinov jarayonida qo‘llaniladigan materiallar (o‘quv dasturlari, metodikalar, didaktik tamoyillar, pedagogik usullar majmuasi) ta’sirida repondent-talabalarda yuz beradigan o‘zgarishlar baholanishi belgilab olindi. Navbatdagi vazifa sifatida olinadigan natijalarini baholashning didaktik vositalari ishlab chiqildi. Bunday vosita sifatida anketalar, test savollari, nazorat topshiriqlari, suhbat o‘tkazish uchun savollar tuzildi.

Kutilayotgan natijalar belgilandi. Tajriba-sinov dasturini amaliyotga joriy qilish tartibi belgilandi. Tajriba-sinov jarayoni natijalarini kuzatib borish, nazorat qilish qoidalari belgilandi.

Tadqiqot jarayonida kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasini aniqlashga xizmat qiladigan kriteriyalar asosida oliy ta’lim muassasalari, shuningdek, talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita kuzatish, respondent-talaba hamda o‘qituvchilar ishtirokida suhbat, davra suhbati, debat, bahs-munozara, ma’ruza, konferensiya, amaliy seminar va treninglarni tashkil etish, asoslovchi tajriba-sinov ishlari natijalarini inobatga olgan holda talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi quyidagi mezonlar asosida aniqlanadi, degan to‘xtamga kelindi:

1) o‘qituvchining tushuntirganlari asosida o‘quv materialini mustaqil o‘qib-o‘rganish;

2) matndagi eng muhim pedagogik atamalarni ajratib olish;

3) matndagi ma’lumotlarni tahlil etish;

4) ma’lumotlarni bir-biri bilan taqqoslay olish;

5) matndagi eng asosiy ma’lumotlarni ajrata olish;

6) o‘zidagi mavjud tasavvurlarni boshqalarniki bilan taqqoslay olish;

7) o‘z qarashlarini asoslay olish;

8) mustaqil ravishda yakuniy xulosalar chiqara olish.

Mazkur mezonlar asosida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganligini va o‘quv muhitida faoliyat yuritish ko‘nikmalarining shakllanganligini aniqlashda uch daraja asos qilib olindi.

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi sifat ko‘rsatkichlariga muvofiq matematik-statistik metod asosida qayta tahlil etishga imkon beruvchi yuqori, o‘rta va past darajalarga ajratildi. Matematik-statistik metoddan olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Ko‘rinadiki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekanligi aniqlandi.

**1. Yuqori daraja** – bilishga bo‘lgan ehtiyoj va qiziqishlari o‘ta kuchli. Pedagogikada falsafiy ahamiyatga ega bo‘lgan asarlarini ajratib, izohlay oladi. Pedagogika sohalaridagi tadqiqotchi olimlar faoliyatini tahlil qila oladi. Shaxsni ma’nan yetuk, axloqan poklikka yetaklaydigan asarlarni mutolaa qiladi. Allomalarning ma’rifatparvarlik qarashlarini komil inson mohiyatini, o‘zligini anglagan shaxs, iroda, qalb va vijdonlilik, iymon-e’tiqod, bag‘rikenglik kabi omillar orqali tizimlashtira oladi. Ilm orqali ma’rifatli bo‘lishga bo‘lgan munosabatini misollar orqali izohlaydi. Ma’naviyati yuksak shaxs tarbiyalanishiga, umuminsoniy qadriyatlar mustahkamlanishiga hissa qo‘sha oladi va bu borada faollik ko‘rsata oladi.

**2. O‘rta daraja** –Pedagogikaning ob’ekti narsa va hodisalar mohiyatini o‘rganishga qaratilganligini misollar orqali tushuntira oladi. Allomalar ijodida ma’rifatparvarlikka oid qarashlarini komil inson mohiyatini, o‘zligini anglagan shaxs kabi omillar orqali tizimlashtira oladi. Ma’naviyati yuksak shaxs tarbiyalanishiga hissa qo‘sha oladi, biroq bu borada yetarli darajada faollik ko‘rsata olmaydi.

**3. Past daraja** – Pedagogik kategoriyalar borasida qisman ma’lumot bera oladi, allomalarning ijodiy faoliyatiga aniq izoh keltira olmaydi. Pedagogika va psixologiya sohalaridagi tadqiqotchi olimlar faoliyatini biladi. Ammo, ahamiyatini tushuntira olmaydi. Pedagogikada shaxslararo munosabatga e’tibor

qaratilganligini tushunadi, lekin foydalana olmaydi. Pedagogikaning ob’ekti narsa va hodisalar mohiyatini o‘rganishga qaratilganligini misollar orqali tushuntira olmaydi. Ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlar mohiyatini, o‘zligini anglagan shaxs kabi omillar ekanligini biladi, biroq, bu borada faollik ko‘rsatmaydi.

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi sifat ko‘rsatkichlariga muvofiq matematik-statistik metod asosida qayta tahlil etishga imkon beruvchi yuqori, o‘rta va past darajalarga ajratildi. Matematik-statistik metoddan olingan natijalardan o‘qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko‘rish mumkin. Ko‘rinadiki, tajriba guruhidagi o‘zlashtirish nazorat guruhidagi o‘zlashtirishdan yuqori ekanligi aniqlandi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlarining samaradorligi uning maxsus dastur asosida olib borilganligi, tajriba-sinov maydonchalarining geografik joylashuvi, pedagogik shart-sharoitlarning maqbulligi, sifat darajasini belgilovchi mezonlarning ishlab chiqilishi va olingan natijalarning matematik-statistik tahlili bilan ta’minlandi.

Talabalarda kommunikativ qobiliyatlarni rivojlantirish darajasi sifat ko‘rsatkichlariga muvofiq matematik-statistik metod asosida qayta tahlil etishga imkon beruvchi yuqori, o‘rta va past darajalarga ajratildi.

3.2.1-jadval.

**Tajriba-sinovda qatnapshgan respondentlarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi (tajribadan oldin)**

| Guruhlar | Respondentlar soni | O‘zlashtirish darajalari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yuqori | O‘rta | Quyi |
| Tajriba guruhi | 289 | 60 | 126 | 103 |
| Nazorat guruxi | 287 | 23 | 103 | 161 |
| Jami | 576 | 83 | 229 | 264 |

3.2.2- jadval.

**Tajriba-sinovda qatnapshgan respondentlarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi (tajribadan so‘ng)**

| Guruhlar | Respondentlar soni | O‘zlashtirish darajalari | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yuqori | O‘rta | Quyi |
| Tajriba guruhi | 287 | 123 | 103 | 61 |
| Nazorat guruxi | 289 | 95 | 122 | 72 |
| Jami | 576 | 218 | 225 | 133 |

Yuqoridagi jadval natijalari asosida talabalarda kommunikativ qobiliyatlarning rivojlanganlik darajasi tajriba guruhlarida yuqori ekanligini ko‘rish mumkin.

Yuqoridagi jadval natijalariga asoslangan holda o‘tkazilgan tajriba-sinov samaradorlik darajasini aniqlash yuzasidan o‘tkazilgan tajriba-sinov natijalari to‘g‘risida 10 ta kriteriy bo‘yicha tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘rtacha o‘zlashtirishlarini Styudent va Pirsonning $\chi^2$ matematik-statistika metodi yordamida tahlil etdik. Tajriba-sinovda 576 nafar talaba qatnashdi.

Yuqoridagi jadval asosida tajribadan keyingi va oldingi vaqtda talabalar o‘zlashtirishlari samaradorligini ko‘rsatuvchi $N_1$ gipoteza va unga zid bo‘lgan $N_0$ gipotezani tanlaymiz.

